



Sherqo'zi ABDULLOYEV,
Samarqand davlat universiteti doktranti
E-mail: sheriabdullayev@1gmail.com

PhD O. Mattiyev taqrizi asosida

O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MAKTAB TA'LIMI SOHASI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN TADBIRLAR

Аннотация

Mustaqillik yillarida barcha sohalar qatori maktab ta'limini rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, maktablar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asos yaratildi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va zamonaviy o'qitish usullarini joriy qilish choralarini ko'rildi. Bunday tadbirlar 2016 yildan e'tiboran yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar zamon talablari darajasida takomillashtirildi, ayrim sohalar bo'yicha yangi qabul qilindi. Bu esa, maktab ta'limini rivojlantirish ishlarida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu maqolada O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida maktab ta'limi sohasi huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan tadbirlar va ularning natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Maktab ta'limi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", islohotlar, Prezident maktablari.

МЕРЫ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПРАВОВОЙ БАЗЫ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В годы независимости, наряду со всеми другими направлениями, была проведена масштабная работа по направлению развития школьного образования. В частности, создана правовая база для регулирования деятельности школ, приняты меры по укреплению материально-технической базы и внедрению современных методов обучения. С 2016 года подобные мероприятия вышли на новый уровень. В частности, действующие нормативно-правовые документы были усовершенствованы в соответствии с требованиями времени, а по ряду направлений приняты новые. Это стало важным в развитии школьного образования. В данной статье анализируются меры и их результаты на новом этапе развития Узбекистана по совершенствованию правовой базы школьного образования.

Ключевые слова: Школьное образование, Закон "Об образовании", "Национальная программа подготовки кадров", реформы, Президентские школы.

MEASURES TO IMPROVE THE LEGAL BASIS OF SCHOOL EDUCATION IN THE NEW STAGE OF UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT

Annotation

In the years of independence, along with all other fields, large-scale work was carried out in the direction of school education development. In particular, a legal framework was created to regulate the activities of schools, measures were taken to strengthen the material and technical base and introduce modern teaching methods. Since 2016, such events have reached a new level. In particular, the current regulatory legal documents were improved to meet the requirements of the times, and new ones were adopted in some areas. This has become important in the development of school education. This article analyzes the measures and their results in the new stage of Uzbekistan's development to improve the legal framework of school education.

Key words: School education, Law "On Education", "National Program of personnel training", reforms, Presidential schools.

Kirish. 2016 yildan e'tiboran barcha sohalar qatori maktab ta'limini rivojlantirish borasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi va salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi. Bunda soha huquqiy asoslarining takomillashtirilishi katta rol o'ynadi. Shu sababdan soha huquqiy asoslarini zamon talablari asosida takomillashtirish va uning natijalarini o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda barcha sohalar qatori maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Shuningdek, soha moddiy-texnik bazasini rivojlantirish choralarini ko'rildi. Ammo shunga qaramay, bu borada ham ayrim kamchiliklar saqlanib qoldi. Davlat tasarrufidagi maktablarda matematika, fizika, kimyo, informatika va chet tili kabi fanlar bo'yicha o'qituvchilar yetishmasligi, uzoq hududlardagi yoshlar uchun OTMga kirishda imtiyozlarning yo'qligi sababli u yerdagi maktablarda o'qituvchilarga ehtiyoj yuqori darajada saqlanib qolgani va boshqalar shular jumlasidandir. Shuningdek, ayrim maktablardagi sinflarda o'quvchilar sonining belgilangan miqdordan oshib ketgani va shunga o'xshash muammolar saqlanib qoldi [6]. Bundan tashqari,

mutaxassis kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimi jamiyatdagi yangilanishlardan orqada qolmoqda edi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlashda umumqabul qilingan tarixiy metodlar – ilmiylik, xolislik, tarixiylik, qiyosiy tahlil va ketma-ketlik tamoyillariga amal qilindi. Tadqiqotning ishonchiligi va samaradorligini oshirish uchun tegishli adabiyotlar va rasmiy internet saytlar ma'lumotlaridan foydalanildi.

Yig'ilib qolgan muammolar sohani tubdan isloh qilishni, dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasidan foydalanish zarurligini taqozo qildi. 2017 yil umumta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida tub islohotlar yili bo'ldi. Xalq qabulxonalarini va Prezidentning virtual qabulxonasiga tushgan taklif va mulohazalar, shuningdek, respublika maktablaridagi bitiruvchilarning ota-onalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3, ya'ni 12 yillik majburiy ta'limdan 11 yillik ta'limga o'tildi. Natijada, birgina 2017 yilda 10-sinf o'quvchilari uchun 9 mln. nusxa darslik chop etildi va 10 mingga yaqin umumta'lim maktabida 11 yillik ta'limga o'tildi [5].

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlanganidek, 2017 yil yurtimizda ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishga jadal

ravishda kirishildi. Bunda, avvalo, soha faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar zamon talablariga moslashtirildi. Jumladan, 2019 yil 29 aprelda "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Unda xalq ta'limini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi [6].

Konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali iqtidorli yoshlarni aniqlash va o'qitish tizimi shakllantirildi. Shuningdek, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida 2019 yil

2 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Mazkur Qaror asosida ilk Prezident maktabi 2019 yil

5 sentabrda Toshkent shahrida, 2 dekabrda Namangan shahrida va 9 dekabrda Xiv shahrida hamda 11-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida tashkil etildi.

Prezident maktablarining dastlab cheklangan miqdorda tashkil etilishi ushbu muassasalarni boshqarish uchun mutlaqo yangi modelni sinab ko'rish zarurati bilan bog'liq edi. Keyinchalik 2020-2021-yillarda Prezident maktablari O'zbekistonning 14 ta hududida faoliyat yuritib boshladi [10].

Ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda 2020 yil

16 sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur Qonunning 9-moddasida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi haqidagi norma belgilab qo'yildi. Bu bilan maktablarda ta'lim sifatini oshirishga e'tibor qaratildi [7].

Bu boradagi tadbirlar keyingi yillarda ham davom ettirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 iyul kundagi "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori asosida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi deb qayta nomlandi [8].

Bugungi kunda ushbu agentlik tizimida faoliyat ko'rsatayotgan 14 ta Prezident maktablarida 2352 nafar, atoqli adib va shoirlarimiz nomi bilan atalgan 9 ta ijod maktabida 1849 nafar, 3 ta tayanch ixtisoslashtirilgan maktab hamda 179 ta hududiy ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida 67454 nafar o'quvchi mahalliy va xorijlik mahoratli o'qituvchilardan tahsil olmoqda.

2021 yilda ilk Prezident maktablari (Nukus, Xiva, Namangan va Toshkent shahridagi) ning 96 nafar bitiruvchilarining barchasi nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'qish uchun taklif olgan. 2022-2023 o'quv yilida 14 ta Prezident maktabini 326 nafar o'quvchi bitirdi. Shundan 281 nafari muddatidan oldin nufuzli xalqaro universitetlarga qabul qilindi. Ularning 51 nafari to'liq grant asosida o'qish imkoniyatiga ega bo'ldi. 45 nafar bitiruvchi esa xorijdagi nufuzli universitetlarning O'zbekistondagi filiallari va mahalliy OTMlarga grant asosida o'qishga qabul qilindi [10].

Ammo, yuqorida keltirilgan tadbirlarning amalga oshirilganiga qaramasdan bu davrda kadrlar tayyorlash borasida ayrim muammolar ham saqlanib qoldi. Xususan, mazkur yillar davomida umumta'lim muassasalarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan ta'minlanish darajasi 87 foizni tashkil etib, ko'plab maktablar, ayniqsa, chekka hududlardagi ta'lim maskanlarida bir

qator fanlar bo'yicha malakali o'qituvchilar yetishmasligi sezildi [1]. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatayotgan omillardan biriga aylandi.

Keyingi yillarda ham o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoit yaratish, mehnatini moddiy va ma'naviy jihatdan munosib rag'batlantirish borasidagi islohotlar izchil davom ettirildi. 2021 yil 11 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'lis hududlardagi budjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida 2021 yil

1 martdan boshlab ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablarda dars berish uchun boshqa hududlardan jalb qilingan oliy va birinchi toifaga ega o'qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga maxsus ustamalar joriy qilindi. Unga ko'ra, bir ma'muriy-hududiy birliklar doirasida boshqa tuman va shaharlardan kelib faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga 50 foiz; boshqa ma'muriy-hududiy birlikdan kelib faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga 100 foiz maxsus ustama to'lash tartibi joriy etildi [4:2].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 5 mayda qabul qilingan "2022 – 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni asosida 2022 yil 1 sentabrdan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'zi dars beradigan fani bo'yicha tegishli darajadagi sertifikatga ega bo'lgan pedagog kadrlarga har oylik qo'shimcha ustama to'lash tizimi joriy etildi. Unga ko'ra, xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lgan pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida; xalqaro standartlar talablariga javob beradigan milliy baholash tizimidan olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida; Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalami baholash agentligining milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida (chet tili bo'yicha sertifikatlar bundan mustasno); Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalami baholash agentligining milliy baholash tizimida chet tili bo'yicha olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga esa 2025 yil 1 yanvarga qadar – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida; 2025 yil 1 yanvardan boshlab – ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida qo'shimcha ustama to'lanishi belgilandi [9].

Islohotlar natijasida, Yangi O'zbekistonda muallimlarning oylik ish haqi o'rtacha 2016 yilga nisbatan 2,5 baravar oshdi (o'rtacha oylik 3 million so'm). Natijada, 6 million so'mdan 10 million so'mgacha maosh oladigan o'qituvchilar soni – 23 mingga yetdi, 10 million so'mdan yuqori oylik oluvchilar 1 mingdan oshdi. Yana 2 mingga yaqin muallimlarga Vazir jamg'armasidan qo'shimcha ustama to'lanmoqda. Maktablar yuklamasini kamaytirish maqsadida 700 ming o'quvchi o'rni yaratildi. Bu – avvalgi yillarga nisbatan 15 baravar ko'pdir [3].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi islohotlar chuqur o'ylangan holda olib borildi. Eng avvalo, maktablarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, pedagoglarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning huquqiy asosi yaratildi. Shu bilan birga, bu tizimda yutuqlar bilan bir qatorda hali yechimini kutayotgan muammolar ham saqlanib qoldi. Boshlang'ich va yuqori sinflarda o'tiladigan fanlar miqdorining ko'p ekani, o'quvchilar aniq bir yo'nalishda chuqur bilimga ega bo'lmagan holda maktabni bitirayotgani, talab yuqori bo'lgan fan o'qituvchilaridan ayrimlarining bilimi "qoniqarsiz" ekani va boshqa masalalar shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022.
2. O'zbekistonda ta'limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi. Ocherklar. – T.: Tafakkur qanoti, 2017. – B.300.
3. "Xalq so'zi" gazetasi. 2023-yil 29-avgust. 180-son, – B.1.
4. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2021-yil 13-yanvar. 8-son. – B.2.

5. <https://conferencea.org>
6. <https://lex.uz/docs/-4312785>
7. <https://lex.uz/docs/-5013007>
8. <https://lex.uz/docs/-5520855>
9. <https://lex.uz/docs/-6008663>
10. <https://t.me/piimauz/11449>



UDK: 94(4) “1925/1929”: 336.14 (09)

Rasuljon DUSCHANOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: rasuljonduschanov@gmail.com

TDIU professori, i.f.n A.Amanov taqrizi asosida

HISTORY OF THE UZBEK SSR BUDGET (ON THE EXAMPLE OF 1925-1929)

Annotation

This article examines the formation of the budget in the Uzbek SSR, the role of income and expenses, the main sources of income, the distribution of expenses, and which sectors received the most funding, based on archival documents.

Key words: Direct, indirect, tax, finance, collection, soviet, income, expense, state, category, receipt, expenditure, document, archive, source.

ИСТОРИЯ БЮДЖЕТА УЗБЕКСКОЙ ССР (НА ПРИМЕРЕ 1925-1929 ГОДОВ)

Аннотация

В данной статье рассматривается формирование бюджета в Узбекской ССР, роль доходов и расходов, основные источники доходов, распределение расходов и на какие сферы выделялось больше всего средств, основываясь на архивных документах.

Ключевые слова: Прямой, косвенный, налог, финансы, сбор, совет, доход, расход, государство, категория, приход, уход, документ, архив, источник.

O‘ZBEKISTON SSR BYUDJETI TARIXI (1925-1929 YILLAR MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston SSRdagi byudjetning shakllanishi daromad xarajatlarining o‘rni, daromadning asosiy manbalari, xarajatlardagi bo‘linishlar qaysi sohaga ko‘p mablag‘ ajratilganligi arxiv hujjatlari orqali asoslangan.

Kalit so‘zlar: To‘g‘ri, egri, soliq, moliya, yig‘im, sovet, daromad, xarajat, davlat, toifa, kirim, chiqim, hujjat, arxiv, manba.

Kirish. O‘zbekiston SSR Moliya xalq komissarligi tarkibida birinchi va asosiy o‘rinda turivchi byudjet boshqarmasi hisoblanadi. Davlat byudjetining bir-biriga bog‘liq ikkita asosiy ustuni bo‘lib, birinchisi – daromad, ikkinchisi – xarajat hisoblanadi, daromad shakllanishidan kelib chiqib xarajat belgilanadi. Moliya sohasida xarajatlarning daromadlardan ortib ketishi byudjet taqchilligi muammosini keltirib chiqaradi, shu bois doimiy ravishda ularning muvofiqligi ta‘minlab borilishi kerak. Byudjet tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslari, davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, ijro etish bilan tartibga solinadi.

Byudjet so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu (ing. budget - hamyon, mablag‘) degan ma‘noni anglatib - belgilangan muddat (yil, kvartal) uchun ishlab chiqilgan, me‘yorlashtirilgan hamda qonuniy ravishda tasdiqlangan daromadlar va harajatlar yig‘indisi bo‘ladi. Byudjet davlat darajasida shuningdek viloyat, tuman (mahalliy hokimiyat), xo‘jalik sub‘ektlari, oila yoki shaxs darajasida tuzilishi mumkin. Byudjetni tuzish va belgilangan tartibda tasdiqlash emas hamda uning bajarilishi ustidan nazorat yuritishni talab qiladi[1].

Mustaqil har bir davlatda o‘zining yillik byudjeti bo‘ladi, byudjet tasdiqlanishi bilan har bir muassasa, tashkilot va korxonaga yoki davlat boshqaruv organlariga mablag‘ ajratiladi. Shu o‘rinda byudjet shakllanish tarixiga e‘tibor qaratsak, bu XVIII asrning ikkinchi yarmida Frantsiyadagi burjua revolyutsiyasidan keyin o‘rnatilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida byudjet atamasi Yevropa mamlakatlarida tarqaldi va XX asrdan deyarli barcha mamlakatlarda byudjet taifasidan foydalanila boshlangan.

Bizning hududimizga byudjetning kirib kelishi tarixi Rossiya imperiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, imperiyaning o‘zida 1862 yildan boshlab davlat byudjeti tasdiqlangan. 1862-1868 yillarda moliyaviy islohotlar olib borilgan. Shu vaqtgacha mamlakatda yagona byudjet bo‘lmagan. Har bir davlat tashkiloti o‘zining daromad va harajatini tuzib, keyinchalik ular yagona byudjetni shakllantirgan. Davlat byudjetining daromad va harajatlar jadval markaziy qismi bo‘lib hisoblangan[2]. Byudjet shakllanish davrida har bir tashkilot va muassasa o‘zining kirim-chiqimini

shakllantirib bergan, shuning natijasida tashkilot harajatlar qoplangan.

Byudjet tarixining keyingi bosqichiga e‘tibor berilsa, 1924 yil 29 oktabrda qabul qilingan “Ittifoq va ittifoqdosh respublikalari byudjeti huquqlari haqida”gi qonun asosida amalga oshirila boshlangan. Bu qonun asosida respublikalarga ajratilgan daromadlar uning harajatlarini qoplashga yetarli bo‘lmasa Ummumittifoq byudjetidan dotatsiya berish ko‘zda tutilgan. Lekin bu qonunda ham respublikaning asosiy daromad manbai bo‘lgan qishloq ho‘jalik solig‘ining anchagina qismi va boshqa daromadlar ittifoq byudjeti tasarrufidan olinib, respublika byudjetidagi birinchi besh yillik davriga qadar davom etgan[3].

1924 yilda davlat hokimiyatining qaroriga muvofiq va O‘zbekistonning Ittifoq tarkibiga kirishi bilan O‘zbekiston Respublikasining birinchi davlat byudjeti tuzilgan. Shu yildan to 1991 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ittifoq davlat byudjeti kirgan. 1991 yildan O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqil byudjetiga ega bo‘lgan. Shundan keyin O‘zbekiston, o‘zini mustaqil deb e‘lon qilib, davlatni tanglikdan chiqarish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va dunyoviy, iqtisodiy va siyosiy mustaqil, qudratli gullab-yashnaydigan kuchli demokratik davlat qurish dasturini ishlab chiqdi va uni amalga oshirishga kirishildi[4].

Dastlabki, ma‘muriy-hududiy chegaralanish natijasida, uch respublikaning umumiy davlat mulkidan 75.3 mln. so‘mi, ya‘ni 60.8 % i O‘zbekiston ixtiyoriga o‘tkazildi. O‘zbekiston hududida 185 ta sanoat korxonasi bo‘lib, ularning yillik mahsuloti 109,9 million so‘mni (oltin hisobida) tashkil qilardi. O‘zbekiston ixtiyorida 981 boshlang‘ich va o‘rta maktab, 23 texnikum, 8 o‘rta kasb-texnika maktabi, 77 ambulatoriya, 2 bezgakka qarshi stantsiya, shuningdek, korxonalar huzurida 79 ta davolash muassasalari mavjud bo‘lgan. Keltirilgan raqamlar birinchi O‘zbekiston byudjetiga moddiy asos bo‘lib, Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari umumiy byudjet daromadlarining 81.1 xarajatlarning 60 % ini tashkil qilgan. Shunday qilib, O‘zbekistonning byudjeti milliy chegaralanish natijasida O‘rta Osiyo respublikalari orasida birinchi o‘rinni ishg‘ol qilgan, lekin

bu byudjet O'zbekistonning haqiqiy mustaqil davlat byudjeti bo'lmasdan, balki, mustamlakachilik g'oyalari ifoda qiluvchi byudjet bo'lgan[5].

1925 yil mayda XIV-partiya konferentsiyasida qishloq xo'jaligi soliqlarida kamchiliklar mavjud bo'lgan. 1925 yilda

boshlangan butun dehqonchilikni soliqqa tortish tizimini chuqur o'rganish 1926 yilga qadar davom etgan. Quyidagi moliya yillarida byudjetning asosini tashkil qiluvchi soliqlar keltirilgan.

№	Soliq nomi	1922/23 y.	1923/24 y.	1924/25 y.	1925/26 y.
	Aksiz	105,5	240,6	507,8	844,6
	Sanoat solig'i	118,2	233,6	323,5	482,9
	Daromad solig'i	12,7	75,9	113,3	185,9
	Qishloq xo'jaligi solig'i	176,5	231,0	326,2	251,8
	Gerb yig'imi	20,6	57,1	98,9	131,9
	Bojxona boji	66,8	67,4	101,9	150,6
	Boshqa davlat solig'i va yig'imlari	35,9	17,1	52,4	43,3
	Soliq nomi	50,3	66,4	79,4	104,9
	Hammasi	584,0	991,1	1603,4	2192,9
	Daromaddagi soliqlarning byudjetdagi foizi	63,1	48,9	51,4	51,6 [6]

Daromaddan soliqlar o'sishiga yirik sanoat, qishloq xo'jaligi va mahsulot aylanmasi tiklanishi va rivojlanishi hamda soliq apparating mustahkamlanishiga asos bo'ldi. Yuqoridagi jadvaldan ma'lumki, SSSRdagi soliqlar davlat daromadining 50 % dan ortig'ini tashkil qilgan.

1924/25 byudjet yilidagi davlat daromadi – 16.860.855 ming sum, xarajati – 19.047.113 ming sum belgilangan, lekin bular o'rtasidagi farq – 2.186.258 ming sum bo'lib, xarajatlarga ko'proq mablag' ajratilgan[7]. Iqtisodiy tomonidan qaralganda, bu byudjet taqchilligi bo'lganligini ko'rish mumkin. Chunki bu davrda hammasi sohani izga solish uchun xarajatlar qismi yuqori bo'lgan. Xarajatlarni yuqori qilmasdan daromadga erishib bo'lmagligini sovet hokimiyati yaxshi anglab yetgan.

Shu yildagi byudjetning daromad manbalari 6 xil bo'lgan. I) To'g'ri soliq bunga: Qishloq xo'jaligi solig'i; patent va yig'im; daromad solig'i; Rentniy yig'im. II) Egri soliqlar, bunga: Aksiz: choy, kofe, shakar, neft, tamaki va boshqalar kirgan. III) Gerb yig'imi, IV) O'rmon daromadi, V) Davlat mulkidan daromadlar, VI) Boshqa yig'imlar kiritilgan[8]. Bularda 8 ta asosiy soliq, 4 ta yig'im va boshqalardan iborat bo'lgan. Soliq va yig'imlar hamda boshqa daromadlarsiz byudjetni tasavvur qilish qiyin bo'lgan.

Keyingi byudjet yilida ya'ni 1925/26 yillardagi davlat byudjeti daromadi – 23.320.505 ming sum bo'lsa, xarajatlar – 43.383.905 ming sumni 20.063.400 ming sum miqdorida farq qilgan. Shu yildagi byudjet taqchilligi juda yuqori bo'lgan.

1926/27 yildagi davlat byudjeti daromadi – 34.797.271 ming sum, xarajatlari – 58.458.571 ming sumni bular o'rtasidagi farq – 23.661.300 ming sum shu byudjet yilidagi daromadlar o'tgan byudjet yilidagiga nisbatan 49,2 %, xarajatlar 34,8 % ga ko'paytirilgan[9]. Shu yildagi O'zbekiston SSRning davlat

byudjetining tasdiqlangan summasidan soliqlardan daromadlar O'zbekiston SSR bo'yicha – 30.762.363 ming sum, Tojikiston ASSR bo'yicha – 615.147 ming sum keltirilgan. Davlat daromadi asosiy manbalari 5 ta bo'lib, I) to'g'ri soliq bunga: 1) yagona qishloq xo'jaligi solig'i; 2) hunarmandchilik solig'i; 3) daromad solig'i; 4) boshqa to'g'ri soliqlar 5) ijara daromadlar kirgan. Soliqlarning asosiy ekanligi ketma-ketlikda keltirilgan. II) Egri soliqlar bular: 1) Aksiz; 2) Bojxona daromadlari, III) Bojlar: 1) Gerb yig'imi; 2) Bojlar va boshqa yig'imlar, IV) Soliqsiz daromadlar bunga: davlat sanoati, savdo bank va o'rmon hamda boshqa daromadlar belgilangan. V) Zayom[10]dan iborat bo'lib daromad uchun 17 xildan ortiq manba belgilangan.

1927/28 yillardagi O'zbekiston SSR va Tojikiston ASSR davlat byudjeti daromadi – 62.282.790 ming sum, xarajati – 64.576.837 ming sum miqdorida belgilangan. Bu davrda daromadlar asosini 1. To'g'ri soliqlar, 2. Bojlar va yig'imlar, 3. Davlat mulki va korxonalar daromadi 4. Ssudalarni qaytarish va ular bo'yicha foizlardan olingan daromadlar. 5. Turli daromadlardan iborat bo'lgan. Shu davrdagi byudjet daromadining asosiy qismini to'g'ri soliq, bojlar va yig'imlar tashkil qilib ularning ulishi – 89 % ga yaqiniga to'g'ri kelgan. Bulardan tashqari daromadni to'ldiruvchi davlat sanoati, davlatning ichki va tashqi savdosi, bank, o'rmon va boshqa sohalar tashkil qilgan. Harajatlar qismida uchta ustun bo'lib, I. Korxonalar va tashkilotlar II. Xalq xo'jaligini moliyalashtirish, III. Maxsus fondlar. Bularning katta qismi – 40 % ini Korxonalar va tashkilotlarning harajati tashkil qilgan[11].

Respublikalarning byudjet daromadlarida soliq va soliq bo'lmagan daromadlarning ulishi: / gerb yig'imi va qimmatliklar aylanmasiga solinadigan soliqdan tashqari.

№	RSFSR	USSR	BSSR	ZSFSR	TSSR	UzSSR	Jami
25/26 y soliqlar	100	100	100	100	100	100	100
soliqsiz	65,9	73,1	37,2	55,9	78,9	84,1	66,2
26/27 y soliqlar	34,1	26,8	62,8	44,1	21,1	15,9	38,8
soliqsiz	100	100	100	100	100	100	100
27/28 y soliqlar	70,9	74,5	38,9	46,9	72,9	82,3	69,3
soliqsiz	29,1	25,5	61,1	53,1	27,1	17,7	30,7
27/28 y soliqlar	100	100	100	100	100	100	100
soliqsiz	76,9	77,1	43,0	45	71,1	82,6	71,2
soliqsiz	23,1	22,9	57,0	55	28,9	17,4	28,8[12]

Yuqoridagi jadvalda SSSR tarkibidagi 6 ta respublika orasida O'zbekiston SSR soliqdan ulishi byudjetdagi daromadning 3 ta byudjet yilida ham 80 % dan baland bo'lib kelgan.

Shu yilgi mahalliy byudjetning davlat daromadlaridagi ulishi – 63.540.380 ming sum qilib belgilangan. Shulardan Tojikiston ASSR – 15,2 %, Samarqand – 20,6 %, Toshkent – 26,4 %, Farg'ona – 8,3 %, Buxoro – 6 % ini boshqa okruglar bundan ham kamroqqa to'g'ri kelgan[13].

Mahalliy byudjetdagi daromadlar Tojikiston ASSR va okruglar misolida tahlil qilinsa, Tojikiston ASSR 75,6 %, O'zbekiston SSR 99,4 % ini umumiy 98,1 % ini, xarajatlar Tojikiston ASSR 70,6 %, O'zbekiston SSR 94,6 % ini umumiy 93,3 % iga ulishi belgilangan[14].

Arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston SSR davlat byudjeti 1928/29-1929/30 yillardagi byudjetning daromad va harajatlardagi o'zgarishlar va ularning asosini tashkil qiluvchi sohalar ya'ni bunda byudjetning daromad qismi ikkita A

va B toifasiga bo'linib, A) Soliq daromadlar, buning o'zi ham ikkiga bo'lingan, I) to'g'ri soliqlar bunga quyidagilar – yakka qishloq-xo'jaligi solig'i, sanoat solig'i, daromad solig'i, meros va savg'odan soliq va paxtadan asosiy yig'imlar bo'lib, bundan tashqari II) Boj va yig'imlar va shular bilan birga bu toifaga 51.252.534 ming sum o'sha davrdagi soliqlar daromadning 39,5 % tashkil qilgan.

B) kategoriyada soliq bo'lmagan daromadlar ya'ni bular quyidagilar III) Davlat mulki va korxonalar daromadlar – Davlat sanoati, Kasbiy texnik ta'limga 3 % undirish, davlat savdosi, banklar, o'rmondan, boshqalardan – 131.300 ming, davlat mulki va boshqa korxonalar olinib umumiy 4.201.850 mingni tashkil etgan. IV) Ssudalarni qaytarish va ular bo'yicha foizlardan olingan daromadlar – 1.143.621 ming bo'lgan. V) Turli xil daromadlar – 644.000[15] ming sum bo'lib, soliq bo'lmagan daromadlar va boshqalar hisobiga umumiy byudjetning 60,5 % ga ulishi to'g'ri kelgan. 1928-1929 yidagi byudjet daromadi –

129.751.289 ming sum bo'lgan. Bu raqamlar keyingi byudjet yilida 131.278.860 mingni farqi 1.527.571 ming sumga oshirilgan.

Byudjetning xarajat qismi asosiy to'rtta qismdan iborat: I) Korxonalar va muassasalarning mustaqil hisob kitoblari bo'lib bunga Markaziy Ijroiya Qo'mita, Xalq Komissarlar Soveti, Davlat Reja komissiyasi, Oliy Sovet xalq xo'jaligi, Savdo xalq komissarligi, Moliya xalq komissarligi, Mehnat xalq komissarligi, Ishchidehqon xalq komissarligi inspeksiyasi, Markaziy statistika boshqarmasi, Ichki ishlar xalq komissarligi, Adliya xalq komissarligi, Maorif xalq komissarligi, Ijtimoiy ta'minot xalq komissarligi, Sog'liqni saqlash xalq komissarligi, Yer ishlari xalq komissarligi, Suv xo'jaligi boshqarmasi va Notekis yo'llar va avtotransport ta'mirlash bosh boshqarmasiga 25.217.321 ming sum mablag' ajratilgan[16]. Bulardan Maorif xalq komissarligiga – 9.274.806 ming sum, 36,7 % ini, umumiy xarajatning 11,8 % iga to'g'ri kelgan. Keyingi o'rinlarda Yer ishlari, Sog'liqni saqlash va Moliya xalq komissarliklari bo'lgan.

II) Xalq xo'jaligini moliyalashtirish, korxonalar va tashkilotlarga mablag' ajratishlar bo'lib, bu ikkinchi qismda 9 ta sohani o'z ichiga olgan, bular: Sanoat, elektrifikatsiya, qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, kooperatsiya, savdoni rivojlantirish bo'yicha tadbirlar, uy qurilish va kommunal xo'jaligi, avtotransport va yo'l qurilishi hamda boshqa qurilishlar kiritilib – 20.728.396 ming sum belgilangan. Bulardan eng katta xarajat sanoat, qishloq xo'jaligi va savdoni rivojlantirish bo'yicha tadbirlariga ajratilgan.

III) Maxsus fondlarga – 2.997.625 ming, IV) Mahalliy byudjetga – 29.555.413 ming sum belgilangan.

1928/29 yillardagi davlat byudjeti – 191.345.950 ming sum miqdorida tasdiqlangan. Unda daromad va xarajatga teng mablag' ajratilgan. Bularning bajarilishi 100 % dan oshiqni tashkil qilgan. Bu davrda daromad ikkita kategoriyaga bo'linib,

A) soliqlardan daromadlar, B) Soliq bo'lmagan daromadlar bilan jamlangan. Bunda soliqlar daromadning – 58,3 % ini, soliqsiz daromadlar – 6,7 % ini, qolgan qismini boshqa daromadlar bo'lgan. Xarajatlarning taqsimlangani tahlil qilinsa, Korxonalar va muassasa mulklari hisob kitobi – 33,6 % ini, Xalq xo'jaligini moliyalashtirishga – 28,3 % ini, qolgan qismini boshqa sohalarga ajratilgan[17].

1929/30 yillardagi davlat byudjet yili tahlil qilinsa, daromad bilan xarajatlar miqdori bir xil bo'lib – 131.278.860 ming sum, umumiy hisobda – 262.557.720 ming sum belgilangan. Bu davrda davlat daromadi A va B toifagaga ajratilib, A) toifada soliq daromadlari bo'lib, uning o'zi ham ikkiga bo'linib, 1) to'g'ri soliqlar: yagona qishloq xo'jaligi solig'i, sanoat solig'i, daromad solig'i, meros va savg'adan soliq va paxtadan soliqni tashkil qilgan. 2) Boj va yig'imlar kabi bo'lib, bulardan sanoat va yagona qishloq xo'jaligi solig'i tashkil qilgan. Bu soliqlarning daromaddagi ulishi – 65 % i bo'lgan. Soliqsiz daromadlarning o'zi to'rtga bo'linib, 1) davlat mulki va korxonalaridan daromadlar, 2) Ssudalarni qaytarish va ular bo'yicha foizlardan olingan daromadlar 3) Turli xil daromadlar 4) zayomdan ajratmalar bularning daromadi – 45.885.580 ming sum bo'lib, 34,9 % ini tashkil qilgan. Xarajatlar o'ziga xos taqsimlanishi to'rtta ustunni tashkil qilib, 1) Korxonalar va tashkilotlar – 30,5 %, Xalq xo'jaligini moliyalashtirish – 31,7 %, Maxsus fondlar – 3,5 %, mahalliy byudjetga o'tkazilgan mablag'lar – 34 % ini tashkil qilgan[18].

Xulosa va takliflar. Sovet hokimiyati tashkil qilingan dastlabki kunlaridanoq, davlat va mahalliy byudjet uchun soliqlarning ahamiyati yuqori ekanligini anglab yetgan edi. Chunki aksiz, sanoat, daromad va qishloq xo'jaligi soliqlari ketma-ketlikda davlat daromadining asosi bo'lib kelgan. Byudjetdagi soliqning ulushi doim o'sib borgan.

ADABIYOTLAR

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/byudjet-uz/> Murojaat qilingan sana 9 yanvar. 2023 yil.
2. Земцов А.А. История финансовой системы России. – Томск. 2001 г. С – 30.
3. Собиров Х. Ўзбекистон давлат молияси тарихи. – Тошкент. Таълим манбаи., 2002 й. 108-бет.
4. Komolov O.S., Bauyetdinov M.J., Gofurov D.B. – Davlat budjeti. Toshkent. Matbaa uyi. 2021 y. 21-22-betlar.
5. Собиров Х. Ўзбекистон давлат молияси тарихи. – Тошкент. Таълим манбаи., 2002 й. 107-бет.
6. Дьяченко В.П. История финансов СССР (1917-1950 гг.) – Москва: Наука. 1978 г. С-123.
7. O'zMA, R-93-fond, 1-ro'yxat, 30-yig'majild, 3-8-varaqlar.
8. O'zMA, R-837-fond, 1-ro'yxat, 119-yig'majild, 30-varaq.
9. O'zMA, R-837-fond, 5-ro'yxat, 183-yig'majild, 38-varaq.
10. O'zMA, R-837-fond, 1-ro'yxat, 116-yig'majild, 71-varaq.
11. O'zMA, R-837-fond, 6-ro'yxat, 133-yig'majild, 32-varaq.
12. O'zMA, R-837-fond, 5-ro'yxat, 183-yig'majild, 45-varaq.
13. O'zMA, R-93-fond, 1-ro'yxat, 457-yig'majild, 372-varaq.
14. O'zMA, R-93-fond, 1-ro'yxat, 216-yig'majild, 10-11-varaqlar.
15. O'zMA, R-837-fond, 8-ro'yxat, 150-yig'majild, 6a-varaq.
16. O'zMA, R-837-fond, 8-ro'yxat, 150-yig'majild, 7-varaq.
17. O'zMA, R-837-fond, 8-ro'yxat, 145-yig'majild, 90-91-varaqlar.
18. O'zMA, R-837-fond, 8-ro'yxat, 145-yig'majild, 116-varaq.



Shahnoza YESHIMBETOVA,

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: yeshimbetovashahnoza@gmail.com

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, PhD N.Narziyev taqrizi asosida

OROLBO‘YI QORAQALPOQLARIDA BALIQCHILIK BILAN BOG‘LIQ TAOMLAR TARIXI VA ETNOLOGIYASIGA DOIR MULOHAZALAR

Аннотация

Ushbu maqolada Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq iqtisodiy inqirozga qaramay, Qoraqalpog‘iston mahalliy oshxonasining o‘zbek oshxonasi an‘analari ta‘sirida migratsiyasiga, xususan baliq ovlash mavsumida baliq taomlarini tayyorlashga oid masalalar ko‘tarilgan. Orolbo‘yida yashovchi o‘zbeklar va qoraqalpoqlar baliqdan turli xil taomlarni qanday tayyorlaganliklari, bu inqiroz davrida an‘anaviy taomlar soni qanday kamaygani haqida ma‘lumotlar berilgan

Kalit so‘zlar: qoraqalpoq, xalq, baliqchilik, taom, xilt, Orol bo‘yi, sazan, laqqa, ilon baliq, baliq dimlama, jugari kurtuk, baliq qavurdaq, baliq qarma, qaq baliq, marosim, “ibe saqlay”.

РАССУЖДЕНИЯ В ОБЛАСТИ ЭТНОЛОГИИ И ИСТОРИЯ РЫБНЫХ БЛЮД КАРАКАЛПАКСКИХ РЫБОЛОВОВ В ПРИБРЕЖНЫХ РАЙОНАХ

Аннотация

В данной статье были затронуты вопросы, касающиеся перелетения местной кухни Каракалпакстан под влиянием традиций узбекской кухни, в частности приготовления блюд из рыбы в сезон улова, несмотря на экономический кризис, связанный с высыханием Аральского моря, как узбеки и каракалпаки, проживающие на территории Приаралья готовили разнообразные блюда из рыбы, и как уменьшалось количество традиционных блюд во время этого кризиса.

Ключевые слова: каракалпак, народ, рыболовство, блюдо, хилт, Приаралье, сазан, сом, змееголов, тушение рыбы, блюдо жувары курдук, жареная рыба, суп из рыбы с клецками, копченая рыба, церемония, культура поведения за столом

CONSIDERATIONS ON THE HISTORY OF DISHES ASSOCIATED WITH FISHING AMONG THE KARAKALPAKS ALONG THE ISLAND AND THEIR ETHNOLOGY

Annotation

This article raised issues related to the migration of the local cuisine of Karakalpakstan under the influence of the traditions of Uzbek cuisine, in particular the preparation of fish dishes during the catch season, despite the economic crisis associated with the drying up of the Aral Sea, how the Uzbeks and Karakalpaks living in the Aral Sea region prepared a variety of fish dishes, and how the number of traditional dishes has decreased during this crisis.

Key words: Karakalpak, people, fishing, dish, hilt, Aral region, carp, catfish, snakehead, fish stew, zhuvary kurduk dish, fried fish, fish soup with dumplings, smoked fish, ceremony, table manners.

Kirish. Keyingi yillarda respublikada aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, jumladan, sifatli baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish, suv omborlarida hamda sun‘iy ravishda baliqchilik hovuzlarini tashkil qilish, Qoraqalpog‘iston Respublikasida gastronomik turizm salohiyatini rivojlantirish maqsadida bir qancha dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 18 avgustdagi PQ-281sonli “Baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo‘yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasida tabiiy suv havzalarini, shuningdek, 2023-2024 yillarda baliq ovlash va suv bo‘yi turizmi maskanlarini Beruniy va Amudaryo tumanlarida tashkil etish, baliq yetishtirishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha jadal ishlar olib borilmoqda. Bu esa respublikamizda gastroturizmni rivojlantirishda baliq taomlari bo‘yicha takliflarni oshirishni talab etadi. Shuning uchun, baliq taomlari tarixi, turlari va etnografiyasining ilmiy o‘rganilishining amaliy ahamiyati kattadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qoraqalpoqlarning milliy taomlari va ular bilan bog‘liq udumlar olimlar nazaridan chetda qolmagan. Sovet davri etnograflari orasida A. Morozova qoraqalpoq xalqi taomlarini o‘rgangan. Qoraqalpoq taomlari haqidagi ma‘lumotlarni 1920-1980 yillardagi boshqa qator tadqiqotchilarning, jumladan, S. Kamalov, R. Kosbergenov, T.

Jdanko, U. Shalekenov va boshqa olimlarning asarlarida ham uchratish mumkin.

XX asrning 70-yillarida O‘zbekiston FA Qoraqalpog‘iston filialining tarixiy-etnografiya ekspeditsiyasi dala tadqiqotlari olib borib, ayni vaqtda qoraqalpoq taomlarini ham o‘rgangan. Bu mavzu 1980 yilda nashr qilingan ” Qoraqalpoqlar etnografiyasi” ocherkida izchil yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola etnografik dala tadqiqotlari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy, Amudaryo tumanlarida istiqomat qiluvchi qoraqalpoq, o‘zbek millatlariga mansub axborotchilar tomonidan olingan anketa so‘rovlari natijalari va ilmiy adabiyotlar bilan umumlashtirilib tarixiy izchillik va qiyoslash taqqoslash metodlari orqali tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Orolbo‘yi mintaqasida yashovchi qoraqalpoq aholisining baliqchilik madaniyati va an‘analari, taomlari etnologiya fani uchun qiziqarli bo‘lib, ularni o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Milliy taomlar va ular bilan bog‘liq udumlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, etnik qarodoshlik yoki madaniy aloqalar va o‘zaro ta‘sir natijasida yuzaga kelgan boshqa xalqlar madaniyati bilan yaqinlik yoki o‘xshashlik jihatlari aniqlash muhim o‘rin tutadi. Taom tayyorlash har bir etnik guruhning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, odamlarning iqtisodiy faoliyati, ularning yashash joylarining tabiiy-geografik sharoitlari va etnik-madaniy an‘analari bilan belgilanadi.

Qishloq xo‘jaligi yetakchi sanoat bo‘lmagan hududlarda ya‘ni Orol dengizi qirg‘og‘i va Amudaryo deltasiga tutash

hududlarda yashovchi aholining asosiy oziq-ovqat mahsuloti baliq bo'lgan va baliq ovlash o'sha xalq iqtisodiy faoliyatining mustaqil turlaridan biri ekanligi qadim zamonlardan beri ma'lum.

Baliqchilik qoraqalpoq xo'jaligining muhim sohalariidan biri hisoblanib, XIX asrning I yarmidayoq baliqchi aholilar Terbenbes Mergenotov, Tozbesqum, Oqbetkey, Toyloqjegen, Qoraboyli, Erjoyotov, Oqqal'a, Urga, Qorojor, Oyirsho, Duzli, Qo'yberen, Jumoloq, To'qmoq-oto mavzalarida joylashgan edila, aholi uchun baliqning markaziy manbai Orol dengizi, Amudaryo, Quvonish-Djarma va Dovqora, Qo'ng'iro't va Qoro-Teren edi.

Qoraqalpoqlar xo'jaligida baliqchilik, ayniqsa, Amudaryoning o'ng tomoni Rossiyaga qo'shilib Amudaryo bo'limi tashkil topganidan so'ng keng rivojlangan va baliq mahsuloti tovarlik darajasiga ko'tarilgan. Bo'lim baliqchilari Mo'ynoq tumani hududlariga o'rnashib qolishadi.

XIX asr sayyohlari manbalarida Xiva xonligining shimoliy hududlarida yashovchi qoraqalpoqlar baliqni ko'p iste'mol qilganliklari, shuningdek, rus mahbuslari ham qoraqalpoqlarning baliq iste'mol qilishi, shuning uchun ular kasal bo'lmasliklarini keltirib o'tgan ma'lumotlar mavjud.

Oziq-ovqat muammosi ma'lum bir mintaqaning taomlanish an'analari bilan uzviy bog'liqdir. Qoraqalpoqlarning oziq-ovqat tizimi aholining xo'jalik faoliyati, ular yashaydigan hududlarning tabiiy-geografik sharoitlari va etnik madaniy an'analari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Shu munosabat bilan qoraqalpoqlarning an'anaviy taomlari o'simlik(don) va hayvonot(go'sht va sut) mahsulotlarining uyg'unligi uzoq vaqt saqlanib qolgan.

Mualliflarning ta'kidlashicha, "yarim o'troq turmush tarzi bilan uyg'unlashgan kompleks chorvachilik-dehqonchilik va baliq-ovchilik xo'jaligi qoraqalpoq xalqi uchun xos" bo'lgan. "Bu barqaror dehqonchilik rivojlana olmaydigan Sirdaryo va Amudaryo deltalari hayot kechirish va xo'jalik yuritishning mushkulliklari bilan bog'liq bo'lgan qoraqalpoq xalqiga xos xususiyatlardan biridir. Taom xususiyatlari xalqning xo'jalik faoliyati, ular yashayotgan mintaqalardagi tabiiy va geografik sharoitlar, milliy-madaniy an'analar bilan belgilanadi...qoraqalpoqlar oziq-ovqatida yil fasllariga bog'liq holda ziroatchilik, chorvachilik yoki baliqchilik mahsulotlari ko'proq bo'lgan", deb xulosa chiqaradi mualliflar.

U. Shalekenov "Uch oy sut, uch oy qovun, uch oy oshqovoq, uch oy baliq" degan qoraqalpoq xalq matalini keltirish asnosida ta'kidlaganidek, bu matalda o'ziga to'q oilalar uchun go'sht shunchaki kundalik ovqat hisoblangan bo'lsa, ayni paytda go'sht topib yeyish imkoni bo'lmagan mehnatkash oilalarning ovqatlanish tartibi yaqqol aks ettirilgan. Badavlat oilalar kuniga uch-to'rt marta go'shtli va boshqa taomlarni iste'mol qilishgan. Kambag'allar esa kuniga nari borsa bir mahal issiq ovqat bilan cheklanishgan. Tadqiqotchilar yozma va tarixiy manbalar, arxeologik ma'lumotlar, shuningdek, dala etnografik tadqiqotlar va shaxsiy kuzatishlar asosida qoraqalpoq taomlarining aksariyati ziroat mahsulotlari: bug'doy, tariq, jo'xori, guruchdan tayyorlangan degan xulosa chiqarishgan. Shu bilan birga o'simlikdan tayyorlanadigan taomlardan tashqari, etnografik sut, go'sht, baliqdan tayyorlangan taomlarni, shuningdek, ularning turlicha uyg'unlashuvi aks etgan taomlarni ham o'rganishgan.

Shuningdek, arxiv ma'lumotlarida, Orol dengizining janubi-sharqiy qismida joylashgan, Qoraqalpog'iston baliqchilik kolxoz uyushmasi tarkibiga kiruvchi "Qizil baliqchi" kolxozi a'zolarining umumiy sonidan mehnatga layoqatli erkaklar (16 yoshdan 60 yoshgacha)-113 kishini, shundan baliq yetishtirishda band (o'rtacha) bo'lgan 69 kishi bo'lib, ular reja bo'yicha 1966 yilda 7600 sentner o'rniga 7643 sentner baliq tutishgan va baliq ishlab chiqarishdan olingan daromad esa 159,6 ming rublni tashkil qilgan. Yil davomida baliqchining o'rtacha daromadi 893 rublni tashkil etgan, baliqchilikdan tashqari kichik yordamchi dehqonchilik ham bo'lgan. Kolxoz xo'jalik-moliyaviy faoliyatini 1966 yilda 42,1 ming so'm zarar bilan yakunlagan, hamda Orol havzasida baliq zahiralarning umumiy yomonlashuvi tufayli baliq yetishtirish keskin kamaygan va shunga mos ravishda kolxoz va kolxozchilarning daromadlari ham kamaygan. Masalan, 1965 yilda kolxozning baliqchilikdan olgan umumiy daromadi 219

ming rublni, baliqchining daromadi esa 1268 rublni tashkil etgan, bu umumiy daromad bo'yicha 1966 yilga nisbatan 69 ming rublga, baliqchining daromadi esa 365 rublga ko'p bo'lgan. Kolxoz balansida 1967 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 155 ming rubllik baliq ovlash vositalari mavjud bo'lganligini va qoraqalpoqlar oziq-ovqatida baliqdan tayyorlanadigan taomlarning soni va turi kamayganligini keltirib o'tish o'rindir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, "O'zbekbaliq" O'zbekiston baliq zahiralari muhofaza qilish va ishlab chiqarish, baliqchilikni tartibga solish havzasi boshqarmasi boshlig'ining 1970 yil 7 iyulda chiqargan buyrug'ida: "butun sovet xalqi har yili "Baliqchilar kuni" bayramini katta quvonch bilan nishonlaydilar. "O'zbekbaliq" boshqaruvi jamoasi va inspeksiyalari joriy yilda 1969 yilning birinchi yarmiga nisbatan yuqori natijalarga erishgan. Ular "Baliqchilar kuni" bayramini munosib nishonlash uchun kurashib, baliqchilikni muhofaza qilish va ko'paytirishning barcha yo'nalishlari bo'yicha ko'rsatkichlarni yaxshiladi, shuning uchun ular pul mukofoti(15-25 rubl) va faxriy yorliqlar bilan taqdirlansin" deb arxiv hujjatlarida keltirilgan.

Orol dengizining qurishi respublikaning butun xalq xo'jaligi kompleksiga salbiy ta'sirini o'tkazgan. Masalan, 1973 yil 1 yanvar holatiga ko'ra sanoatda asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati baliq bo'lib, baliqchilik sanoati asosan Orol dengiziga bog'liq edi. Orol dengizining qurishi nafaqat baliqning yo'qolib ketishiga, hamda baliqchilik sanoati ahamiyati pasayishiga va an'anaviy oziq-ovqat tizimida ham o'zgarishlarga olib kelgan. Masalan, an'anaviy taom "baliq qarma"ning tayyorlanishi kamayib borgan.

Qoraqalpoqlarning ratsionida tarixan yashab o'tgan xalqlarning turli xil taomlarining ushbu hududda mavjudligini ko'rishimiz mumkin. 1970-1980 yillarda qoraqalpoqlar taomnomasi koreys, rus va yevropa oshxonalarining turli xil taomlari bilan to'ldirilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, qoraqalpoqlarning oziq-ovqat tizimi boshqa elatlarning madaniyati ta'sirida o'zgarib borgan, ammo ayni paytda murakkab xo'jalik yuritish turidan shakllangan an'anaviy xususiyatlarni saqlab qolgan.

Qoraqalpog'iston o'zbeklari orasida baliqdan tayyorlangan taomlardan asosan "baliq dimlama" keng tarqalgan bo'lib, axborotchi Jumaniyazova M. taomning sazan baliq yoki laqqa baliq turidan, hamda vitaminlarga boy sabzavotlar bilan dimlab pishirilishi haqida ma'lumot berib o'tdi.

Shuningdek, qoraqalpoq va o'zbeklar odatda sazan, uchar, laqqa ilon baliqlaridan "baliq qovurdaq" tayyorlagan, uni tozalab, ikki tomoniga tuz va un sepib, qovurilgan holda iste'mol qilishgan.

Qoraqalpoqlarda baliqdan tayyorlanadigan "jugari kurtuk" mashhur bo'lib, ushbu taomni tayyorlash uchun jo'xori unini sirli idishga solib, uning ustiga baliq sho'rvasidan qilingan namakopni quyib sekin qoshiq bilan aralashtirib issiq xamir qilinadi va kichkina doiracha tayyorlab qaynab turgan sho'rva ustiga solib yarim soat atrofida qaynatiladi, keyin xamirni laganga suzib olib barcha pishgan sabzavotlarni chiroyli bezab dasturxoniga tortilishi haqida qoraqalpoq millatiga mansub, qipchoqli urug'idan bo'lgan axborotchi Qurbanova G. ta'kidlab o'tdi.

Qoraqalpoqlar orasida noyob baliq taomi "uyildiriq nan" (ikradan tayyorlangan non) bo'lib, unga tuz, un sepib qovurib tayyorlangan.

Shu bilan birga baliq serob hududlarda qoraqalpoq xalqining eng ko'p tarqalgan milliy taomi "baliq qarma" bo'lib, axborotchi Rajabova Tilla uning jo'xori va bug'doy unidan xamir tayyorlab baliq sho'rva ichiga solib qaynatilishi va suzib olinib, xamir, baliq go'shti va barcha masalliqar mayda qilib to'g'ralib iste'mol qilinishi haqida ma'lumot berib o'tdi.

Yana bir turdagi taom "uxa" (baliq sho'rva) juda keng tarqalgan bo'lib, asosan sazan baliq turidan tayyorlangan.

Bundan tashqari qoraqalpoqlar baliqni issiq kulga ko'mish (o'tqa ko'mip jeu) orqali pishirilgan.

Shuningdek, o'zbek taomnomasiga rus pazandaligi ta'sirida kirib kelgan baliq tamaddi bo'lib, u sho'r baliqdan tayyorlanadi. Yuqorida keltirib o'tganimizdek, Ibn Sino ham

tuzlangan baliqni yaxshi taomlar qatoriga kiritgan. Darhaqiqat, sho'r baliq g'oyatda ishtahabaxsh, mehmon dasturxoniga qo'ysa ham arzigulikdir. Ushbu dudlangan baliqdan tayyorlanadigan tansiq taom ham pazandachiligimizda yangi urf bo'lgan. Eng yaxshisi sazan va zog'ora baliqdan qilingan. Respublikamizda dudlama baliqni xonadonda tayyorlab bozorga olib chiqadigan hududlar Orol bo'yida, Mo'ynoq, Amudaryo sohilida, Termiz va Sirdaryo sohillarida tayyorlangan. "qaqpash", "qaq baliq" qoraqalpoqlar orasida mashhur bo'lib, uni tayyorlash sirlarini axborotchi O'razaliyeva Halima ta'kidlashicha, o'zining otasi O'razaliyev R. dan 70-80 yillarda baliq ovlash bilan shug'ullangani va ovlangan baliqni tozalab, yupqa qilib kesilgani va tuzga ko'mib qo'yilgani, keyin arqonga bog'langan holda ochiq havoda quritilgani to'g'risida ma'lumot berib o'tdi.

Shu o'rinda "qaq baliq" ning tayyorlanishi haqida qoraqalpoq millatiga mansub Xusenov S. ag'a, asosan "uchar" baliq turidan foydalanishi, ya'ni baliqni tozalab, ikki kun davomida tuzga ko'mib idishda saqlab, sovuq suvga yuvib, mix yoki ipga osib ustidan doka yopib yana ikki kun tashqarida qoldirilishi, keyin yog'och qirindisini suv bilan aralastirib katta chuqur, ichiga sim tortilgan temir idishga solib tagiga olov yoqib tutun chiqarib shu mahalda baliqlarni simlarga tortib, ustidan qattiq bo'zni namlab besh soat davomida yopib qo'yiladi, keyin baliqlar ochiq havoda qoldiriladi, uni dudlashdan maqsad esa baliq rangini chiroyli qilish uchun, deb o'zining oilaviy mashg'uloti to'g'risida aytib o'tdi.

Janubiy Orolbo'yi mintaqasidagi qoraqalpoqlar tarixiy sabablarga ko'ra yaqin vaqtgacha boshqa xalqlar tomonidan yo'q bo'lib ketgan yoki unitilgan qadimiy urf-odatlar va e'tiqodlarini saqlab qolishgan. Xususan, bugungi kungacha baliq ovlash e'tiqodi mavjud bo'lib, qoraqalpoqlarda baliqchilik azaldan an'anaviy kasb bo'lgan. Qadimgi va o'rta asr yozma manbalari, mualliflarining fikriga ko'ra, o'sha davr hukmdorlari, hamda Markaziy Osiyoda baliqlarni muqaddas hayvonlar deb hisoblab oltin baliq tasviri tushirilgan dubulg'a kiyganliklari haqida ma'lumotlar saqlab qolingan.

Xulosa va takliflar. Qoraqalpoq xalqining baliqchilik bilan bog'liq taomlari va marosimlarini o'rganish xalq madaniyati tarixini boyitishda muhim mamba bo'lib xizmat qiladi, chunki ularsiz butun tarixni qayta tiklash va o'ziga xosligini to'liq ochib berish mumkin emas. Tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida taomlar xalqlar o'rtasidagi kundalik muloqotning eng muhim shakllaridan biri bo'lib kelgan, hamda insonlar o'rtasidagi do'stlik yoki qarindoshlik aloqalarining ajralmas qismidir.

Qoraqalpoq xalqida chorvachilik, dehqonchilik va baliqchilik bilan uyg'unlashgan taom turlari saqlanib qolingan.

Qoraqalpoq oilalarida turmush madaniyati yuksalishi tufayli xilma-xil taom tayyorlashga imkoniyatlar yaratilganligini, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida madaniy aloqalarni rivojlantirishda taom madaniyatining o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatib berish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII-XIX вв. Т., 1968. 327 с.; Жданко Т.А. Каракалпаки...-566 с.; Шалекенов У. Х. Быт каракалпакского крестьянства. 370 с.
2. Жданко Т.А., Камалов С.К. Этнография каракалпаков. XIX- начало XX века (Материалы и исследования) Т.; 1980. 202 с.
3. Ўзбекистон Миллий Архиви: Ф.837.О.41.д.1010. л.28
4. Ўзбекистон Миллий Архиви: Ф.2816.О.1.д.29. л.140
5. Сейдемадова Г.У., Курбанова З.И., Акимниязова Г.А. Традиционное питание в повседневных практиках жителей Каракалпакстана в 1960-1970 гг. // Вопросы истории. 5(2).2022. с.108
6. Dala yozuvi: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani, O'. Jumaniyazov OFY, 2024 yil
7. Dala yozuvi: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani, Maxtumquli OFY, 2024 yil
8. Dala yozuvi: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani, Beruniy shahri, Imkon MFY, 2024 yil
9. Dala yozuvi: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Amudaryo tumani, Berdaq OFY, 2024 yil
10. Есбергенова С.Х. Веравания и обряды каракалпаков, связанные с рыболовством. Вестник антропологии, 2020. № 2 (50) с.125
11. <https://lex.uz/uz/docs/-6575092>



Jaxongir INAYATOV,
Tashkent Perfect universiteti dotsenti v.b., PhD

O'zMU professori. O'.Movlonov taqrizi asosida

TURKISTON O'LKASIDAN CHIQQAN DASTLABKI MAHALLIY FOTOGRAFLAR VA ULARNING FAOLIYATI
Annotatsiya

Maqolada fotografiya san'atining rivojlanishi bilan dunyo hamjamiyatida juda katta qiziqishlar uyg'otganligi ochib berilgan. Bu yangiliklar Turkiston o'lkasiga ham katta imkoniyatlar olib kelganligi, o'lkadan chiqqan mahalliy fotograflarning rasmga olgan foto manbalari o'lkaning turli jabhalarini, etnologiyasini, madaniyatini, ijtimoiy iqtisodiy hayotini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qilishi tahlil qilingan. Turkiston o'lkasiga kirib kelgan bu yangilikga dastlab mahalliy aholi keskin munosabatda bo'lganligi haqida to'xtalangan.

Kalit so'zlar: Turkiston, fotograflar, Marsel, D.Nazarov, Toshkent, Xudoybergan Devonov, Berdiqu, Vilgelm Panner, o'lka, Qo'qon xonligi.

ПЕРВЫЕ МЕСТНЫЕ ФОТОГРАФЫ ТУРКЕСТАНА И ИХ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ
Аннотация

В статье показано, что с развитием искусства фотографии оно вызвало большой интерес у мирового сообщества. Проанализировано, что эти новости открыли большие возможности для Туркестанской области, а фотоисточники, сделанные местными фотографами региона, служат основным источником для изучения различных аспектов этнологии, культуры и социально-экономической жизни региона. Отмечалось, что поначалу местные жители резко отреагировали на это известие, дошедшее до Туркестанской области.

Ключевые слова: Туркестан, фотографы, Марсель, Д. Назаров, Ташкент, Худойберган Девонов, Бердикул, Вильгельм Паннер, страна, Коканское ханство.

THE FIRST LOCAL PHOTOGRAPHERS FROM TURKESTAN AND THEIR ACTIVITIES
Annotation

The article reveals that with the development of the art of photography, it has aroused great interest in the world community. It was analyzed that these news brought great opportunities to the Turkestan region, and that the photo sources taken by local photographers from the region serve as the main source for studying various aspects, ethnology, culture, and social economic life of the region. It was mentioned that at first the locals had a strong reaction to this news that entered the Turkestan region.

Key words: Turkestan, photographers, Marcel, D. Nazarov, Tashkent, Khudoibergan Devonov, Berdikul, Wilhelm Panner, country, Kokan Khanate.

Kirish. Turkiston o'lkasida ham fotografiya sohasi asta-sekinlik bilan rivojlana boshlaydi. N.Nexoroshev, K.Ssiborovskiy, D.Nazarov va S.Nikoloyai Turkiston o'lkasidagi birinchi fotograflar hisoblanadi[7].

Toshkent gimnaziyasining rasm o'qituvchisi Dmitriy Nazarov o'lkadagi dastlabki havaskor mahalliy fotograflardan biri edi. U Toshkentning Moskva va Xiva ko'chalari tutashgan joyda o'z fotoatlyesini ochgan edi. D.Nazarov Straganov bilim yurtida o'qib yurgan paytlaridan boshlab fotografiya ishlari bilan shug'ullangan. U tomonidan ishlangan suratlar muallifning yuksak mahorati va o'ziga xos uslubi borligini ko'rsatadi. Bu fikrni uning 1908-yil Marselda bo'lib o'tgan xalqaro fotoko'rgazmada Gran-pri mukofotiga sazovor bo'lganligi ham isbotlaydi. Marseldagi fotoko'rgazmada Uning 14 ta surati namoyish etilgan[6].

O'lka tub mahalliy aholisining ushbu sohaga qiziqishi ortib borgan. Xususan, 1889-yilda shoir Furqat Toshkentga kelganida D.Nazarov faoliyatigaqiziqadi. Furqat uning fotografiya atelyesida fotoapparat tuzilishi, suratga olish jarayoni va uning vizit-portret tayyorlash usullari bilan tanishadi.

Furqat o'z taassurotlarini "Turkiston viloyatining gazet"ida o'zbek tilida e'lon qiladi[8]. Turkiston o'lkasiga general-gubernator K.P.Kaufmannning buyrug'iga asosan 1872-yil yoz oylarida Qo'qon xonligiga fototasvirchi G.Krivsov tashrif buyurgan. Uning tashrifi shundan iboratki, "Turkiston albomi"ni yaratish uchun Turkiston o'lkasiga tasvirlarni muhrlash uchun kelgan. Xudoyorxon bunga dastlab rozi bo'lmaydi. U, ya'ni G.Krivsov fotoapparat unchalik xavfli narsa emasligini, bu uskuna bilan yaqindan tanib chiqishni iltimos qiladi. 1872-yil 6-iyulda

Qo'qon xonligida tarixiy hodisa yuz beradi. Ya'ni, butun Qo'qon xonligida musulmonlar birinchi marta fotosuratga olinganligining guvohi bo'ladi. G.Krivsov dastlab Xudoyorxon ruxsati bilan sarbozlar fototasvirlarini olganini tarixiy tadqiqotlarda guvohi bo'ldik. Vaqt o'tishi bilan bu yangilikka Xudoyorxon katta qiziqish uyg'onadi. Shu bilan birga, u bir qancha amaldorlarni, mehmonxonalar hamda Qo'qon o'rdasini fototasvirlarga olishga ko'rsatma beradi.

G.Krivsov ma'lumotlariga qaraganda, shunday amaldorlar uchraganki, rasmga tushishni xohlamagan. Hattoki, rasmga tushmaslik uchun yig'lashgan ham, Xudoyorxon bunday gunoh qilmaslik uchun astoydil iltimos qilishgan. Lekin xon buyrug'ini qabul qilishga majbur bo'lishgan. Bular shu kungacha xalqimiz tarixini yoritishda qimmatli etnografik fotohujjatlar sifatida xizmat qilmoqda. G.Krivsovning olib borgan bu ishidan hayratlangan Qo'qon xoni Xudoyorxon va uning o'g'li G.Krivsovga iltimos qilib, fotosuratlar olish uchun fotoapparat va rasmlarni chiqarish uchun ximikatlarni berishni iltimos qilishadi. Shu sababli rus fotografi bilan birga qo'qonlik Berdiqu degan yigitni Toshkentga rasmga olish ishlari o'rganish uchun jo'natishadi, fotoapparat va kerakli ximikatlarni olib kelish uchun alohida topshiriq beriladi. G.Krivsovning Toshkentda qolishga imkoni kam edi, u Sankt-Peturburrga ketish oldidan Berdiqu rasmga olish va uni ishlab chiqarishning soddaga yo'lini o'rgatadi. G.Krivsov Toshkentga yana qayta tashrif buyurgan payti suratga olishni yanada mukammalroq jihatlarini qaytadan o'rgatishga va'da berdi. Ammo Berdiqu sa'y-harakati, mashaqqatli mehnati evaziga Qo'qon xonligiga 2 ta fotoapparat olib kelganligini ko'rishimiz mumkin. "Turkistanskiye

vedomosti”, gazetasining guvohlik berishicha, “O’rta Osiyoning musulmonlar ilamida, jumladan, Qo’qon xonligida 2 ta fotoapparat ishlatilgan”[10]. Bu fotoapparatlarning bittasi Qo’qon shahrida, ikkinchisi Andijon shahrida bo’lgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Qo’qon xonligi tarixida ilk bor fotografiya ishlarini olib borish uchun Berdiqul ismli o’zbek o’g’loni alohida iz qoldirgan. U nafaqat Qo’qon xonligida, balki butun Turkistonda ilk fotograf sanaladi. Chunki, 1872-yilda hech qayerda, hatto, Toshkent shahrida ham mahalliy aholi orasida fotograf faoliyat yuritmagani tarixiy tadqiqotlarimiz davomida guvoh bo’ldik.

Ilhomjon Inog’omjon o’g’li Hojiyev o’lkadagi dastlabki tub mahalliy havaskor fotograflardan hisoblanadi. U 1902-yilda Sirdaryo viloyati rayosatiga fotograflik qilishga ruxsatnoma olish uchun yozma murojaat qiladi. Uning mazmuni quyidagicha: “Fotoapparatimda turli ko’rinishlar va kishilarni suratga olish bilan shug’ullanib, eski Toshkentning mahalliy aholisini shunchalik qiziqtirib qo’ydimki, ko’pgina o’zbeklar ham endi suratga buyurtma bera boshladilar, ammo buning uchun maxsus ruxsatnoma bo’lmaganligi va boshliqlar e’tiroziga yo’liqmaslik uchun o’zimga zarar bo’lsa-da ularning iltimosini rad etishga majburman. Rus fotograflaridan eshitdimki, hozirgi paytda bunday ishlar bilan shug’ullanish uchun boshliqlardan ruxsatnoma olish kerak ekan. Shu sababdan fotografiya bilan shug’ullanishim uchun ruxsatnoma berishingizni iltimos qilardim”[9]. O’lkadagi imperiya ma’muriyati tomonidan Ilhomjon Inog’omjon o’g’li Hojiyevga 1902-yil 24-aprelda 739/6249-sonli ruxsatnoma berildi. Natijada 1902-yildan Shayxontohur dahasining Hovuzbog’ mahallasida Ilhomjon Inog’omjon o’g’li Hojiyevning “Musulmon fotografiyasi” atelyesi o’z faoliyatini boshlagan.

Mahalliy aholi orasidan yetishib chiqqan fotograflar orasida Xudoybergan Devonov alohida o’ringa ega. Uning tug’ilgan vaqti ayrim manbalarda 1878-yil, boshqalarida esa 1879-yil sifatida qayd etiladi. Uning shu ikki sana oralig’ida tug’ilgani aniq. Sababi fotograf tug’ilgan davrda milodiy yillar tizimiga asoslangan yil hisobi amalda bo’lib, o’sha davrlarda hijriy yil hisobi bo’yicha ayrim o’zgarishlarni hisobga olsak bir yil, yarim yil farqi bo’lganini kuzatamiz. Balki shu bois fotografning dunyoga kelgan sanasi qator manbalarda turlicha keltirilgan.

Uning otasi, xon saroyida kotib hamda tabobat bo’yicha faoliyat olib borganini ko’rishimiz mumkin. Xudoybergan Devonovning jiyani Abdulla Yusupovning yozishicha, Nurmuhammad Xo’jayli tumanida yer-suv bo’limining boshqaruvchisi bo’lgan[2].

Salimjon Hasanov ismli muallif “Birinci o’zbek kinooperatori” degan maqolasida birinchi o’zbek fotografi hayotining xuddi shu davri to’g’risida bunday ma’lumot bergan: “Xudoybergan Devonov juda aqlli, tirishqoq, esini taniy boshlagach ko’plab tillarni o’rganishga kirishadi, jumladan, rus tili, fors hamda arab tillarini mukammal o’rganishga kirishadi.

Xudoybergan Devonov yoshlik chog’larida nemis tiliga qiziqishi katta bo’lgan, bu kelajak hayotida katta burilish yasashga sabab bo’lgan. O’sha vaqtlarda Xiva xonligida Muhammad

Rahimxon Feruz bir qancha oilalarni Xorazmda istiqomat qilishiga rozi bo’ldi. Bular ichida nemis-mennonetlarining oilasi ham bor edi. Bulardan ulug’ yoshlisi Vilgelm Panner edi, uni Paner bobo deyishgan. Xudoybergan Devonov dastlab Paner boboda fotoapparatni ko’rgan va qiziqib qolgan, u fotoapparatda rasmga olish uchun ijozat so’ragan. Vaqt o’tishi bilan Paner bobo shogirdining yutuqlaridan mamnun bo’lib, unga chiroyli fotoapparat tuhfa qilgan[5].

Uning dastlab o’zbek fotografi sifatida tan olinishi Vilgelm Panner nomi bilan bevosita bog’liq.

X.Devonov Velgilm Paner bilan ko’rishib, undan 1900-1901-yillar fotograflik ishlarini o’zlashtira boshladi[3].

Biroq birinchi o’zbek fotografning keyingi faoliyati oson kechmadi. Devonovning fotografiya bilan shug’ullanishi tevarak-atrofga tezda yoyildi. Devonovning do’stlari uning bu xatti-harakatlarini katta qiziqish va hayrat ila kuzatib, uni ortidan ergashganlar, ammo ayrim insonlar uning bu xatti-harakatini, yangilikni to’g’ri qabul qilishmagan. Ya’ni, suratga olish shariat ahkomlariga to’g’ri kelmasligini aytib, rasmga olish “gunoh” ekanligi hamda fotograflik kasbini tashlashga chaqiradi. Hattoki, sen rasmga olgan insonlar qiyomatda qayta tirilib, sendan berishni so’raydi, o’zing ham jahannamga borasan, gunohlaring uchun jahannam azobini tortasan!”,[1] deb ko’rqitishadi Biroq fotograf e’tirozlarga qaramay, o’z qarorida qat’iy turdi. Agar o’sha yillarda Xiva boshqaruvini Muhammad Rahimxon II emas, balki boshqa hukmdor egallaganida fotograf, uning oila a’zolarining taqdiri, tamomila o’zgacha kechgan bo’lishi mumkin edi.

X.Devonovning hayot faoliyatini tahlil qilib aytish mumkin, u 1901-yildan fotograflik sohasiga chuqur o’rganishga kirishgan. Bu sohani mukammal o’rganish uchun unga kerakli bo’lgan fotografiya anjomlarini va ximikatlarni sotib olish maqsadida dastlab, 1903-yilda Moskva shahriga tashrif buyurgan[4]. X.Devonov fotograf sifatida XX asr 10-yillarida shakllanib, el-yurt o’rtasida shuhrat qozona boshladi. Uning 1913-yilda Turkiston shaharlari bo’ylab ilk bor ijodiy safarga chiqishi tasodifiy emas. Xiva xonligining X.Devonov yashagan davri haqida to’xtaladigan bo’lsak, bu davr nihoyatda o’zining alohida muhim taraflari bilan ajralib turadi.

Xudoybergan Devonov 35 yillik fotografiya sohasida ishlashi bilan birga bu san’atni nafaqat Xiva xonligi, balki butun O’rta Osiyoda yuksak darajaga olib chiqa oldi. Afsuski 1938-yil 5-sentabr kuni u Angliyaga josuslik qilishda, Xorazmda bosmachilik harakatiga rahnomolik qilganlikda ayblab, qatl qilinadi.

Xulosa. Umuman olganda, olimlar tomonidan fotografiyani kirib kelishi borasida bir qancha jiddiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Turkiston o’lkasidan chiqqan dastlabki mahalliy fotograflarning say’-harakati bilan fotografiya sohasida biroz bo’lsada yutuqlarga erisha boshlashgan. Dastlab Turkiston o’lkasiga bu yangilikni Berduqul ismli Qo’qonlik yigit tomonidan o’rganilishi alohida e’tirofqa sababchi bo’ldi. Fotografiya sohasida mukammal darajaga erishishda eng katta yutuq, albatta Xudoybergan Devonov faoliyati bilan bog’liq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Golender B. Birinchi o’zbek fotografi (Xudoybergan Devonov o’zbek milliy fotosan’ati va xujjatli kino asoschisi) // San’at. 2009. – № 4. – B. 25.
2. Karimov N. Birinchi o’zbek fotografi va kinooperatori Xudoybergan Devonov / Kitob-albom. – Toshkent: San’at, 2019. – S. 57.
3. Karimov N. Birinchi o’zbek fotografi va kinooperatori Xudoybergan Devonov / Kitob-albom. – Toshkent: San’at, 2019. – S. 59-67.
4. Polvon xoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi. – Urganch, 1999. –B. 72.
5. Xudoybergan Devonov – birinchi o’zbek foto suratchisi va kino tasvirchisi (xorazmiy.uz) (murojaat qilingan sana 06.03.2021.).
6. Беньямин В. Краткая история фотографии / Сергей Ромашко. – М.: Ад Маргинем Пресс, 2015. – С. 94.
7. Голвина О. Русская фотографическая периодика (1858 – 1918 гг.) // Фотография. Изображение. Документ. Вып. 1 (1). – СПб.: РОСФОТО, 2010. – С. 61.
8. Горшенина С.М. Фотография и царская колониальная администрация Туркестана: конструируя историю и место между прошлым и будущим // Вестник международного института центральноазиатских исследований. – Самарканд, 2021. – С. 47.
9. Справочная книжка Самаркандской области. 1907 / Под ред. секретаря статистического комитета М.Вирского. Вып. 9. – Самарканд: Типо-литография Г.И. Демурова, 1907. – 192.
10. Туркестанские ведомости, 1872, № 29-31; 1873, № 9.



Abbosbek ISRAILOV,
Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi, PhD
E-mail: israilovabbosbek@mail.ru

Tarix fanlari doktori, professor Y.Alimova taqrizi asosida

FOREIGN POLICY OF UZBEKISTAN IN AFGHANISTAN SOCIAL AND GEOPOLITICAL ASPECTS

Annotation

This article describes the relations of socio-economic cooperation between Uzbekistan and Afghanistan, priorities and prevention of a humanitarian catastrophe in Afghanistan.

Key words: Socio-economic cooperation, "One way, one place", peacekeeping, humanitarian disaster, stability.

ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА В АФГАНИСТАНЕ СОЦИАЛЬНЫЕ И ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ Аннотация

В данной статье описаны отношения социально-экономического сотрудничества между Узбекистаном и Афганистаном, приоритеты и предотвращение гуманитарной катастрофы на территории Афганистана.

Ключевые слова: Социально-экономическое сотрудничество, «Один путь, одно место», миротворчество, гуманитарная катастрофа, стабильность.

O'ZBEKISTONNING AFG'ONISTONDAGI TASHQI SIYOSATINING IJTIMOYIY VA GEOSIYOSIY JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston va Afg'oniston davlatlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik aloqalari, ustuvor yo'nalishlari va Afg'oniston hududida gumanitar halokatning oldini olish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik, "Bir yo'l, bir makon", tinchlikparvarlik, gumanitar halokat, barqarorlik.

O'zbekistonning Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosati tarixiy bog'lanishlar, ijtimoiy dinamika va geosiyosiy mulohazalar murakkab o'zaro ta'siriga asoslangan kengroq mintaqaviy strategiyasining muhim jihati hisoblanadi. Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston Afg'oniston bilan chuqur madaniy, etnik va tarixiy aloqalarga ega bo'lib, uning Afg'oniston ishlaridagi ishtirokini tabiiy va ahamiyatli qiladi. O'tgan yillar davomida O'zbekiston iqtisodiy hamkorlik va mintaqaviy barqarorlik imkoniyatlaridan foydalangan holda Afg'onistondagi vaziyat yuzaga kelgan ko'p sonli muammolarni hal qilishga qaratilgan nozik yondashuvni ishlab chiqdi.

O'zbekistonning Afg'onistondagi tashqi siyosati tinchlik, xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyotni mustahkamlashga qaratilgan faol sa'y-harakatlari bilan ajralib turadi. Afg'oniston shimolida muhim o'zbek etnik ozchiligining mavjudligi va umumiy madaniy meros bu munosabatlarning ijtimoiy jihatini yana bir bor ta'kidlaydi. Shu bilan birga, xavfsizlik, iqtisodiy manfaatlar va strategik ittifoqlar bilan ajralib turadigan geosiyosiy manzara O'zbekistonning Afg'onistondagi siyosati va tashabbuslariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston diplomatik aloqalar, iqtisodiy sarmoyalar va tinchlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga hissa qo'shishga intiladi. Bu yondashuv nafaqat tinch va farovon qo'shnini mustahkamlashga qaratilgan, balki O'zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy integratsiyani mustahkamlashga qaratilgan kengroq maqsadlariga ham mos keladi. O'zbekistonning Afg'onistondagi tashqi siyosatining ko'p qirraliligi uning mintaqada konstruktiv rol o'ynash, xavfsizlikka oid tashvishlarni uzoq muddatli rivojlanish maqsadlari bilan muvozanatlashtirishga sodiqligini aks ettiradi.

Bugungi kundagi real haqiqat va vaziyat shundan iboratki, Markaziy Osiyo mintaqasi "kontinental darajada yopiqlik" maqomidan chiqmoqda, barcha sohalar uchun "yashil makon"ga aylanmoqda, shu bilan birga tashqi kuchlarning faol raqobat maydoni sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Xususan, bu yerda bir-biriga mos bo'lmagan va ba'zida qarama-qarshi bo'lgan, YeOII, Xitoyning tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Bir

yo'l, bir makon" loyihasi, AQShning "S5+1", Ye'ning kengaytirilgan hamkorligi, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi kabi strategik yo'nalish va loyihalarni alohida qayd etish zarur[1]. Bunday reallikning vujudga kelishi bir qancha muammo va ziddiyatlar bilan bir qatorda qulay geografik o'ringa va muayyan resurslarga boy bo'lgan, oqilona siyosat yurita oladigan davlatlar uchun aksincha, keng imkoniyatlar yaratmoqda.

O'zbekiston tashqi siyosati bir-birini to'ldirib turuvchi ustuvor yo'nalishlar va yondashuvlarga ega, jumladan:

– geosiyosiy: davlatlar o'rtasida geosiyosiy kurashlarni oldini olish va yangi "global muammo"ni boshlanishiga yo'l qo'ymaslik, afg'on diyoridagi beqarorlikni barqarorlashishini bartaraf etish;

– xavfsizlik va siyosat: Afg'oniston fuqarolarining, jumladan, o'zbek millatiga mansub aholining xavfsizligi va siyosiy huquqlarini ta'minlash (mamlakat aholisining 9% dan ortig'i)[2];

– ijtimoiy: mintaqada va Afg'oniston hududida gumanitar halokatning oldini olish;

– iqtisodiy: Afg'oniston davlati, O'zbekiston va Markaziy Osiyo Janubiy Osiyo bilan bog'lab turuvchi "iqtisodiy ko'priq" vazifasini bajarishini ta'minlashga erishish.

Afg'oniston muammolarini harbiy kuch asosida yechish muvaffaqiyatsiz yakunlandi va asosga ega emas. Shu bilan birga mintaqada "yumshoqlik" bilan olib borilayotgan konstruktiv muzokaralar (O'zbekiston misolida) Afg'oniston aholisining hayoti xavfsizligi va fuqarolik huquqlarini ta'minlash imkonini yaratmoqda.

Mamlakatdagi bugungi vaziyatdan kelib chiqqan holda barcha davlatlar va jahon hamjamiyatining asosiy vazifasi hududda gumanitar halokatning oldini olishga qaratilishi lozim. O'zbekiston Afg'onistondagi vaziyatga nisbatan yuritayotgan siyosati va geografik o'rnidan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy yordam harakatlarining muvofiqlashtiruvchisi va yetakchisiga aylanmoqda.

Tizimli ravishda bunday siyosatning olib borilishi bir nechta dolzarb masalalarni hal qilish imkonini yaratadi:

– Afg'onistondagi tinch aholi ocharchilik va kasalliklardan halok bo'lishining oldini olish;

– Afg'onistonda tinchlik o'rnatish orqali xalqaro mavqeiini tiklash;

– tayyor va qadoqlangan oziq-ovqat to'plamlarini yetkazish orqali mamlakatimizda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish;

– Afg'oniston hududidan o'tadigan, Markaziy Osiyo davlatlarini Janubiy Osiyo bilan bog'lovchi Trans-Osiyo strategik temir yo'li qurilishini davom ettirish, "Surxon-Puli-Xumri" ETL kabi infratuzilmaviy loyihalarni yakuniga yetkazish.

Avvalo, O'zbekistonning Afg'oniston bo'yicha pozitsiyasi tinchlikparvarlikka tayangani, mamlakat ichidagi barcha masalalarni o'zaro izchil muloqot orqali bartaraf etishga, shuningdek, jafokash afg'on xalqining kundalik turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgani bilan jahon hamjamiyati e'tiboriga sazovor bo'lmoqda.

O'zbekistonning Afg'onistondagi ustuvor yo'nalishlaridan biri – Afg'onistonda mahalliy mahsulotlar savdosini saqlab qolish va Markaziy Osiyoning transport-logistika markaziga aylantirishdan iborat. O'zbekiston jahondagi global iqtisodiy muammolarni salbiy ta'siriga qaramasdan iqtisodiyotda o'sish sur'atlarini saqlab qolgan sanoqli mamlakatlardan biri bo'lib, aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirish har qanday geosiyosiy sharoitlarda ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz Prezidentining yillar davomida Birlashgan Millatlar Tashkilotidan tortib, qator xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar faoliyatida Afg'onistonga doir istiqbolli taklif va tashabbuslarni ilgari surayotgani hamda ularning bevosita hayotga tatbiq etilishida amaliy qadamlar qo'yayotgani barchaning diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyalari yig'ilishida to'rt marotaba, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari sammitlarida olti marotaba, shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarida bildirgan fikr-mulohazalari, taklif va tashabbuslarini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Shu bilan birga, 2018 yilning 26-27 mart kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Afg'oniston bo'yicha oliy darajadagi "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusidagi xalqaro konferensiya hamda 2021 yilning 15-16 iyul kunlari Toshkentda o'tkazilgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiya shular jumlasidandir.

O'zbekiston Afg'onistonga katta muammo va xavf-xatar o'chog'i sifatida qarashdan tamomila voz kechib, ushbu zamin istiqbolda butun Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishda muhim

ko'prik vazifasini bajarishi mumkinligi borasidagi yondashuvda namoyon bo'ldi.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bizning mintaqalarimiz tashabbuskor bo'lib, katta-katta minbarlardan Afg'oniston muammolariga butun dunyo e'tiborini jalb etishimiz, afg'on xalqining hayotini yengil qilishga munosib hissa qo'shishimiz kerak"[2]. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tashabbusi bilan 2021 yil 14 sentyabr kuni 1.3 tonna, 2022 yil 25 iyunda Afg'onistonda bo'lib o'tgan zilzila oqibatida jabr ko'rgan afg'on xalqiga 74 tonna, bundan tashqari, 2023 yil 19 aprel kuni zarur oziq-ovqat mahsulotlaridan iborat 185 tonna, 2024 yil 28 aprel kuni 169 tonnalik insonparvarlik yordamini jo'natilgani qo'shni afg'on xalqiga nisbatan yuritayotgan oqilona siyosatning amaliy ifodasidir. Prezidentimizning "Bizga qo'shni bilan ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikda faol ishtirok etadigan, tinch va barqaror Afg'oniston kerak"[3], deya ta'kidlagan iborasidan kelib chiqib, Afg'oniston hamisha O'zbekistonning strategik hamkori bo'lishiga shubxa yo'qdir.

Xulosa. O'zbekistonning Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosatiga boy tarixiy sharoit va ijtimoiy va geosiyosiy omillarning murakkab o'zaro ta'siri chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'p asrlik umumiy tarixga asoslangan mustahkam madaniy va etnik aloqalar bu munosabatlar uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Sobiq sovet davrida O'zbekistonning Afg'onistonga munosabati iqtisodiy hamkorlik va mintaqaviy barqarorlikni rag'batlantirishga intilib, xavfsizlik bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratib, ehtiyotkorlik bilan harakat qilgani bilan ajralib turardi. Tolibon harakatining kuchayishi, terrorizm tahdidi va Afg'onistonda davom etayotgan beqarorlik tufayli yuzaga kelgan muammolar ehtiyotkor, ammo faol tashqi siyosat yuritishni taqozo etdi.

O'zbekistonning Afg'onistondagi tashabbuslari, jumladan, iqtisodiy sarmoyalar, infratuzilma loyihalari va diplomatik aloqalar mintaqada tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan strategik qarashlarni aks ettiradi. Xalqaro tinchlik sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish orqali O'zbekiston barqaror va farovon Afg'onistonga hissa qo'shishni maqsad qilgan, bu esa o'z navbatida o'z xavfsizligi va iqtisodiy istiqbollarni oshiradi.

Umuman olganda, O'zbekistonning Afg'onistondagi tashqi siyosati tarixiy meros va zamonaviy voqealarni muvozanatlashtirgan pragmatik yondashuv namunasidir. Madaniy diplomatiya, iqtisodiy hamkorlik va strategik ittifoqlar uyg'unligi orqali O'zbekiston Afg'oniston kelajagini shakllantirish va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynashda davom etmoqda. Ushbu ko'p qirrali strategiya O'zbekistonning Markaziy Osiyo geosiyosatida konstruktiv va nufuzli o'yinchi bo'lishga intilishi, tinch va o'zaro bog'langan mintaqani mustahkamlashga alohida e'tibor qaratishini ta'kidlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тарақиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. 1 том. Т., "Ўзбекистон" 2017 йил.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Стратегияси. Т., "O'zbekiston". 2021 йил.
3. Туляков Э., Накимов Ф. Марказий Осиё давлатлари билан дўстона ҳамкорлик – Ўзбекистон ташқи сиёсий фаолиятининг устувор йўналиши. Ўзбекистон Стратегияси №04 (2020) / ISSN 2181-2535 Журнал уй варақаси <https://journal.strategy.uz>
4. Сайбназаров А. Ўзбекистон минтақа дипломатиясининг етакчисига айланиб бормоқда. "Шарқ". 2020 7-14 бет.
5. Маннонов А. Дўстлик ришталари янада мустаҳкамланмоқда. Халқ сўзи. 2021 йил. 22 январ



UDK: 94 (575.1):32("1867/1917")

Muxlisa KAMOLOVA,
O‘zMU, Tarix fakulteti, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida tayanch doktoranti
E-mail: kamolova.muxlisa7@mail.ru

PhD U.Usarov taqrizi asosida

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON GENERAL-GUBERNATORI N.A. IVANOVNING O‘LKA BOSHQARUV SIYOSATIDAGI FAOLIYATI VA MADANIY JARAYONLARDAGI ISHTIROKI (1901–1904-YILLAR)

Аннотация

Ushbu maqolada 1901–1904-yillarda Turkiston general-gubernatori va Turkiston harbiy okrugi boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritgan Nikolay Aleksandrovich Ivanovning harbiy-ma‘muriy faoliyatining boshlanishi va qanday qilib Turkiston general-gubernatori lavozimigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgan, Turkiston oliy hokimiyati boshlig‘i bo‘lgan davrda amalga oshirgan islohotlari haqida ma‘lumot berilgan. Shuningdek, maqolada XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatori N.A.Ivanovning o‘lkada madaniy sohada amalga oshirgan islohotlari, mahalliy xalq ta‘lim tizimi ahvoli xususida ta‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: General-gubernator, nizom, Abramov, harbiy gubernator, Toshkent, ofitserlar maktabi, devonxona, Toshkent–Orenburg temir yo‘li, harbiy vazir, ta‘lim tizimi.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ГЕНЕРАЛА-ГУБЕРНАТОРА ТУРКЕСТАНА Н.А.ИВАНОВА В ГОСУДАРСТВЕННО- АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПОЛИТИКЕ КРАЯ И ЕГО УЧАСТИЕ В КУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССАХ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация

В данной статье рассматривается начало военно-управленческой карьеры Николая Александровича Иванова, занимавшего в 1901-1904 годах должность генерал-губернатора Туркестана и начальника Туркестанского военного округа, и путь его к должности генерал-губернатора Туркестана. Также были даны сведения о реформах, которые он осуществил за время своего пребывания на посту главы высшей власти Туркестана. В статье обсуждается реформа генерал-губернатора Туркестана Н.А. Иванова в культурной сфере страны, а также состояние местной системы образования в начале XX века.

Ключевые слова: Генерал-губернатор, устав, Абрамов, военный губернатор, Ташкент, офицерская школа, диваны, Ташкентско-Оренбургская железная дорога, военный министр, система образования.

AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY THE GOVERNOR-GENERAL OF TURKESTAN N.A. IVANOV'S ACTIVITY IN ADMINISTRATIVE POLICY AND PARTICIPATION IN CULTURAL PROCESSES (1901-1904)

Annotation

In this article, the beginning of the military-administrative career of Nikolay Aleksandrovich Ivanov, who served as the governor-general of Turkestan and the head of the military district of Turkestan in 1901-1904, and how he made his way to the position of governor-general of Turkestan, in article was given about the reforms he implemented during his tenure as the head of the supreme authority of Turkestan. Also, in the article, at the beginning of the 20th century, the governor general of Turkestan N.A.Ivanov's reforms carried out in the cultural sphere in the country, the state of the local education system were discussed in detail.

Keywords. Governor-General, regulations, Abramov, military governor, Tashkent, officers' school, cabinet, Tashkent-Orenburg railway, military minister, education system.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligida oliy hokimiyat vakillari hisoblangan general-gubernatorlar, jumladan N.A.Ivanovning o‘lkadagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi ishtiroki haqida tadqiqotchilardan N.Abdurahimova, F.Ergashev (2002), M.E.Shushkova (2015), Sh.B.Muxamedov (2020), V.Fetisov (2023) asarlarida hamda shu davr manbalaridan biri bo‘lgan ish bo‘yicha safarlar hisoboti (Отчет о служебной поездке военного министра в Туркестанский край в 1901 году. СПб, Военная типография. 1902 г.) da, G.Fedorov esdaliklarida (1913), xorijiy tadqiqotchilardan Jeff Sahadeo (2007) ilmiy tadqiqotida ma‘lumotlar olishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda ma‘lumotlarni siyosiy tahlil, muammoviy va miqdoriy tahlil, tizimlilik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgandan so‘ng, Turkiston o‘lkasi ma‘muriy-hududiy birliklariga rahbar etib tayinlanadigan harbiy gubernatorlar odatda o‘z viloyatini yaxshi bilmagan, hudud aholisining hayoti bilan qiziqmagan, natijada viloyat gubernatorlari ko‘z o‘ngida g‘alayonlar, qo‘zg‘olonlar tayyorlangan va sodir bo‘lib turgan. Afsuski, Turkistonda “o‘lkaning haqiqiy xo‘jayinlari” kam edi. Ya‘ni Turkiston o‘lkasini avvaldan yaxshi bilgan, bu hududning

shart-sharoitlari, mahalliy xalqning aholidan voqif bo‘lgan rahbarlar kam edi. Shunday kam sonli rahbarlardan eng mashhurlari: G.A.Kolpakovskiy, A.N.Kuropatkin, N.I.Grodekov, A.K.Abramov va N.A.Ivanov edi [4].

General-leytenant N.A.Ivanov o‘z harbiy faoliyatini 1864-yil bahorida general M.G.Chernyayev qo‘l ostida boshlagan. Rossiya imperiyasining Buxoro amirlikiga qarshi Erjar, O‘ratepa, Xo‘jand (1866–1867-yillar) janglarida qatnashgan. Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman hokimiyat tepasiga kelgandan so‘ng ham O‘rta Osiyo xonliklariga nisbatan urush harakatlarida qatnashdi, jumladan, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Zirabuloq (1868-yil) janglarida qatnashgan va bu yurishlar davrida Turkistonga qarshi yurishlar qatnashchisi, general-leytenant A.K.Abramov bilan yaqindan tanishadi. A.K.Abramov 1868-yilda Zarafshon okrugi boshlig‘i bo‘lgandan so‘ng okrug boshqaruv devoniga N.A.Ivanovni taklif qildi. N.A.Ivanov 5 yil davomida 1868-yildan 1873-yilgacha general A.K.Abramov devonining boshqaruvchisi bo‘ldi, aynan mana shu davr oralig‘ida mahalliy tilni o‘rgandi va mahalliy aholi hayoti bilan yaqindan tanishdi [7]. N.A.Ivanovning keying xizmat vazifasini Farg‘ona viloyati gubernatori lavozimida davom ettirdi (1884-yil).

Turkiston o‘lkasining Farg‘ona viloyatida yuz bergan 1898-yilgi Andijon qo‘zg‘olonidan so‘ng, o‘sha paytda ta‘tilda

bo'lgan Turkiston general-gubernatori A.V.Vrevskiy lavozimidan ayrildi va uning o'rnini ilgari Amurbo'yi general-gubernatori bo'lgan general-leytenant S.M.Duxovskoy egalladi. Rossiya imperiyasi harbiy vaziri (1898-1904) A.N.Kuropatkin shu paytdayoq N.A.Ivanovni Turkiston general-gubernatori etib tayinlashni maqsad qilgan, ammo A.N.Kuropatkinning ushbu maqsadi amalga oshmagan edi. Yangi harbiy vazir A.N.Kuropatkin S.M.Duxovskoy o'ziga yuklatilgan vazifani bajarishga qodir emas deb hisoblagan, shuning uchun ham A.N.Kuropatkin N.A.Ivanovga general-gubernator yordamchisi lavozimini taklif qildi. Keyinroq N.A.Ivanov amaldagi general-gubernator S.M.Duxovskoyning o'rnini egallashi kerak edi [6].

Turkistonga tayinlangan S.M. Duxovskoy allaqachon "ruhan va jismonan halokatga uchragan, hech qanday ishga qodir emas, butun boshqaruv og'irligini o'zining yordamchisi general Ivanovga yuklagan" [6]. Shunday qilib, amalda N.A. Ivanov Turkiston o'lkasi oliy hokimiyat boshqaruviga keldi.

1901-yilda esa, rasman Turkiston general-gubernatori general infanteriya S.M.Duxovskoy (bu lavozimda 1898-yildan – 1900-yil dekabrgacha faoliyat yuritgan) o'rnini general-leytenant N.I.Ivanov egalladi. Uning zimmasiga general-gubernatorligining dastlabki vaqtlaridan "Turkiston general-gubernatorligi birlashgan viloyatlarini umumiy boshqarish bo'yicha" qonun loyihasi tayyorlashdek qiyin vazifa qo'yilgan [8]. O'z faoliyatida davomida N.I.Ivanov uyezd boshlig'i martabasidan to general-gubernator martabasigacha erishdi. U o'zini chinakam "Turkistonlik" deb hisoblar edi. O'lkani boshqarish tizimi mukammal emasligi 35 yillik ish tajribasiga ega N.I. Ivanovga ma'lum edi, shuning uchun ham u o'z faoliyati davomida Turkiston o'lkasini boshqarish uchun qonunlar ishlab chiqdi.

Bungacha bo'lgan davrda Turkiston o'lkasida bir vaqtning o'zida 3 ta Nizom amalda bo'lgan: 3 ta viloyat (Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand) 1886-yilgi Turkiston o'lkasini boshqarish bo'yicha Nizomga ko'ra boshqarilgan. Yettisuv viloyati esa 1891-yilgi "Oqmola, Semipalatinsk, Yettisuv, Ural va To'rg'ay viloyatlarini boshqarish bo'yicha Nizom"ga ko'ra boshqarilgan. Kaspiyorti viloyati esa, 1890-yilgi "Kaspiyorti viloyatini boshqarish bo'yicha vaqtinchalik Nizom"ga ko'ra boshqarilgan. Shu sabablarga ko'ra, yangi Turkiston o'lkasini boshqarish bo'yicha umumiy Nizom loyihasini ishlab chiqishga kirishildi. General-gubernator N.I.Ivanov buyrug'iga ko'ra, 1902-yil 27-aprelda Toshkentda Konstantin Aleksandrovich Nestorovskiy boshchiligidagi Umumo'lka nizom loyihasini ishlab chiqish bo'yicha Asosiy Komissiya ish boshladi. Komissiya a'zolari etib bor yo'g'i 3 kishi tayinlangan. Ular: 1) Boshqaruv devonxonasi yordamchisi S.A.Koishevskiy; 2) Turkiston general-gubernatorining alohida topshiriqlar bo'yicha yuqori shtab ofitseri kapitan S.A.Geppener va 3) Devonxona ish yurituvchisi, kotib B.N.Kaplunlar tashkil etgan.

Shubhasiz, yuqorida nomlari tilga olingan hokimiyat vakillari favqulodda o'ta murakkab vazifalarni bajara oladigan professional fazilatlariga ega bo'lishi kerak edi. Polkovnik S.A.Koishevskiy birmuncha tanilgan edi. U G.P.Fedorov xotiralarida "Farg'ona viloyati uyezdlaridan birining boshlig'i, ajoyib benuqson qobiliyat va obro'ga ega bo'lgan" deya ta'riflanadi. S.A.Geppener o'zining butun xizmatini Turkistonga bag'ishlagan. U sharq tillari kursini bitirgan, o'lkaga 1890-yilda kelgan, Turkiston general-gubernatorligida turli lavozimlarni doimiy ravishda egallab polkovnik darajasigacha ko'tarilgan, 1908-yilda Sirdaryo viloyati boshqarmasi raisi, shuningdek, viloyat harbiy gubernatori yordamchisi lavozimini ham egallagan. "Turkiston o'lkasini boshqarish bo'yicha" yangi qonun loyihasini ishlab chiqishga bag'ishlangan qator yig'ilishlarda bir necha bor Turkiston general-gubernatorligi vakili bo'lgan. B.N.Kaplun "Turkiston o'lkasini boshqarish bo'yicha 1886-yilgi Nizom"ning norasmiy nashri asoschisi sifatida ko'proq tanilgan edi [8].

Komissiya ishi, bir tomondan 1886-yilgi Nizom moddalarini sinchiklab ko'rib chiqishdan iborat bo'lsa, boshqa tomondan 1891-yilgi Nizomni tahlil qilish kerak edi. Qonun loyihasini tayyorlashda yana bir qiziqarli faktni ko'rishimiz mumkin: Komissiya o'zining faoliyati davomida Kaspiyorti

viloyatini inobatga olmadi. Bu hudud o'zining asosiy nizomini saqlab qoldi. Bu holat hududning yetarlicha o'rganilmaganligi, mahalliy o'ziga xosliklarni hisobga olmaganligidan kelib chiqdi. General-adyutant A.N.Kuropatkin 1901-yilda, harbiy vazir lavozimini egallab turgan paytda imperatordan "Kaspiyorti viloyatini boshqarish bo'yicha vaqtinchalik Nizom"ni 5 yilga 1906-yil 18-dekabrgacha o'zgarishsiz qoldirishga ijizat so'radi.

Faraz qilish mumkinki, bu davr mobaynida Toshkent Komissiyasi Turkiston o'lkasini boshqarish bo'yicha yangi Nizomni Kaspiyorti viloyatiga tadbiiq qilish bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar to'pladi. Ammo "Kaspiyorti viloyatini boshqarish bo'yicha vaqtinchalik Nizom"ning oxirgi muddati tugashi bilan, nizomning amal qilish muddati yana 1908-yil yanvargacha uzaytirildi, keyin esa yanada soddalashtirilgan tahrirga o'zgartirildi ("Hududni boshqarish to'g'risidagi yangi Nizomga qadar" [8]).

Shunday qilib, noaniq vaziyat yuzaga keldi: bir tomondan, komissiya Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizomning umumiy mintaqaviy loyihasini ishlab chiqishga chaqirildi va boshqa tomondan, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiy viloyatlaridan biri o'z ishidan tashqarida qoldi.

Komissiya 1902-yil 30-maydan –1903-yil 27-sentabrgacha ishladi. Uning ishinin natijasi 2 ta katta bosma jildni tashkil etgan juda ko'p materillar bo'lib, unda Turkiston o'lkasi ma'muriyatining Nizomi batafsil tahlil qilingan va tavsiyalar ishlab chiqilgan [8]. Bu ishlarning barchasi uch yarim yil, ya'ni 1903-yil sentabriga qadar davom etsa-da, hech bir jiddiy natija bermadi. Nesterovskiy loyihasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va ma'muriy masalalar bo'yicha huquqiy va ma'muriy qarorlar xuddi ilgariidek Turkiston jamiyatining biror-bir ishtirokisiz byurokratiyaga mo'ljallangan edi. Aynan ana shu sababga ko'ra loyiha peshonasiga, faqat, Turkiston general-gubernatori mahkamasi arxivini to'ldirish yozilgan ekan [3].

Turkiston general-gubernatori N.A.Ivanov hududning rivojlanishi va o'sishining eng katta ikkita omilini ta'lim va ilm-fanga beriladigan e'tibor sifatida baholagan. N.A.Ivanov o'lka rahbari sifatida hududda ta'lim masalasiga e'tibor qaratganda mahalliy aholining ta'limi masalasidan ko'ra hududdagi rus millatiga mansub aholining manfaatlarini inobatga oldi va uning yechimi bilan shug'ullana boshladi. Jumladan, N.A.Ivanov Turkiston o'lkasining oliy mansabiga tayinlangan yili, ya'ni Turkiston general-gubernatori lavozimini egallagandan so'ng, 1899-yili Toshkent erkaklar gimnaziyasi binosida "Ilmning ne'matlari to'g'risida" 1-umumxalq o'qishi bo'lib o'tdi, unga musulmonlarning oliy martabali vakillari ham taklif qilindi. Ushbu umumxalq o'qishida general-gubernator N.A.Ivanovning o'zi, maktablar bosh inspektori F.M.Kerenskiy, Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.I.Korolkov, Xalq o'qishlari komissiyasi raisi A.I.Nikolayenko va boshqalar qatnashdi.

Turkiston general-gubernatori N.A.Ivanov Turkiston o'lkasida yashayotgan rus harbiy xizmatchilarining farzandlarining ta'limi bilan shug'ullana boshladi. Toshkentda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning farzandlari kadetlar korpusida va Orenburgda joylashgan harbiy ta'lim muassasasida tahsil olgan, bu davrda Toshkentdan Orenburgga olib boruvchi temir yo'l hali qurilmagan edi. Talabalar ta'lim olayotgan o'quv yurtlariga Kavkaz orqali borishgan va ushbu holat talabalardan deyarli bir hafta vaqtini olgan. Turkiston general-gubernatori N.A.Ivanov 1901-yil 2-sentabrda ular uchun yangi binoni foydalanishga topshirdi [7].

Toshkent-Orenburg temir yo'lining qurilishini tezlashtirilishidan yana bir maqsad temir yo'llarda avj olayotgan ishchilar harakati bilan kurashish edi [2].

1901-yil kuzida Turkiston o'lkasiga general-gubernator N.A.Ivanovning uzoq yillik quroldoshi va yni vaqtda Rossiya imperiyasi harbiy vaziri A.N.Kuropatkin xizmat tekshiruvchi bilan keldi. U Toshkentda bir hafta turdi va N.A.Ivanov juda katta e'tibor qaratgan kadetlar korpusida bo'ldi.

N.Kuropatkin mahalliy xalq ta'limi muassasalarini ham e'tibordan chetda qoldirmadi va rus-tuzem maktablarida biriga bordi va shunday yozadi: "Men ko'rgan maktablardan biri menda yaxshi taassurot qoldirdi. Maktab rahbari 18 yildan beri shu soha

bilan shug'ullanar ekan va ko'rinishidan ishini yaxshi ko'radi. O'quvchilar yaxshi ko'rinishda, rus tilini tushunadi, o'quvchilardan biri (afg'on) rus tilida yaxshi tallaffuz qilayotganiga guvoh bo'ldim. Maktabni shu paytgacha 20 ga yaqin o'quvchilar bitirgan va turli sohalarda ishlashadi: savdogarlik, kotiblik, bosmaxona va boshq [5]."

Toshkent ofitserlar maktabi o'ziga xos harbiy ta'lim muassasasi bo'lgan. Unda dars berishga nafaqat ofitserlar, balki mahalliy fuqarolardan ham mutaxassislar jalb qilingan. Avvalo, bular o'sha davrda Toshkentda faoliyat yuritgan mashhur sharqshunos olimlar edi. Maktabda islom huquqidan Qozon diniy akademiyasining bitiruvchisi Nikolay Petrovich Ostroumov dars bergan, u o'sha paytda "Turkistonshunoslik patriarxi" degan nomga sazovor bo'lgan. "Markaziy Osiyo va qo'shni mamlakatlar tarixi" fanidan 1910-yildan mashhur tarixchi va tilshunos olim, bo'lajak ijodkor va Tojikiston Fanlar akademiyasi Tarix, arxeologiya va etnografiya institutining birinchi direktori Aleksandr Aleksandrovich Semenov dars bergan. Mahalliy til o'qituvchisi general-gubernator N.A.Ivanov ma'muriyati xodimi Tairbek Kiyazbekov edi [7].

1904-yilda Turkiston general-gubernatori N.A.Ivanov vafot etdi. Turkistonni ichkaridan ham tashqaridan ham yaxshi bilgan N.A.Ivanov o'lkani xotirjam boshqarib, nihoyat uni begona dunyodan Rossiyaning "viloyati" ga aylantirdi [1]. O'limidan

avval so'nggi bora Turkiston o'lkasini ko'zdan kechirdi. 1903-yil kuzida Kushkadan boshlangan tashrif Amudaryo orqali Chorjo'y, Karki, Termiz kabi hududlarda davom etib, Toshkentda yakunlandi. General-gubernator vafoti munosabati bilan ommaviy axborot vositalarida uning shaxsi ajoyib shaxs, tajribali boshqaruvchi, Turkiston o'lkais bo'yicha mutaxassis, yirik siyosiy kuch, yetakchi, eng dono va tinimsiz mehnatkashlardan biri deya sifatlandi. N.A.Ivanov vafotidan so'ng 1917-yilgacha 7 ta general-gubernator almashdi.

Xulosa va takliflar. Ayrim rus tarixchilari Turkiston general-gubernatori N.A.Ivanov davrida Turkiston o'lkasi tarixida nihoyatda muhim bo'lgan Turkiston ma'muriy tuzilishi masalasida islohotlar tomon harakat boshlanganligi, iqtisod yuksala boshlanganligi va shu bilan bir qatorda hududda musulmonlar bilan munosabatlarni normallashtirish g'oyalari boshlanganligini ta'kidlashadi. Turkiston general-gubernatori N.A.Ivanovni Turkistonda olib borgan faoliyatining tarixiy va ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra, K.P.fon Kaufmandan keyingi ikkinchi general-gubernator deya ta'rif berishadi. Ammo butun faoliyati Turksitonda o'tgan, mahalliy shart-sharoit bilan yaxshi tanish bo'lgan rahbar sifatida N.A.Ivanov Turkiston uchun ko'proq manfaat keltiradigan muhim qarorlar qabul qilishga qodir edi va uning siyosiy faoliyati davomida bunday sezilarli islohotlar qilinmagan.

ADABIYOTLAR

1. <https://mytashkent.uz/2020/09/25/general-gubernator-turkestana-nikolaj-aleksandrovich-ivanov/>
2. Jeff Sahadeo. Russian colonial society in Tashkent, 1865-1923. Indiana university press. 2007.
3. Абдурахимова Н.А, Эргашев Ф.Р.Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – 118 Complex Print.2023.
4. Мухамедов Ш. Россия И Средняя Азия: страницы истории, личности, мнения. – Ташкент.: Baktria Press.2020.
5. Отчет о служебной поездке военного министра в Туркестанский край в 1901 году. СПб, Военная типография. 1902 г.
6. Фёдоров Г. Моя служба в Туркестанском крае. (1870-1910 года) // Исторический вестник. 1913 г. <https://turkestan-xix.livejournal.com/5240.html>
7. Фетисов В. Устроители Туркестана. Повествования о туркестанских генерал-губернаторах. – Ташкент.: Complex Print.2023.
8. Шушкова М.Э. Организация управления Туркестаном в начале XX века. – М.2015.



Maftuna LAPASOVA,
Guliston Davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: maftuna.lapasova.1991@inbox.uz

Tarix fanlari nomzodi, dotsent A.Pardayev taqrizi asosida

ANTHROPOLOGY AND ETHNIC LIFE OF THE POPULATION OF CENTRAL ASIA (INFLUENCE OF MELON CULTURE)

Annotation

The anthropological description of Central Asia and the processes of historical periodization, the migration process of a large wave of settlers from the steppes of the northern part of Central Asia to the south, and first of all the Sarmatian tribes who entered the Syr Darya river. Yuechji, usun and Hun tribes entered, and some of them settled down, mixed with local Sak-Massaget tribes and other peoples, their place in the ethnogenesis of the peoples of Central Asia, and later this had a stronger influence on the ethnic history and anthropology of the people, since the Bronze Age, farming and the beginning of the assimilation of the population engaged in animal husbandry, the emergence and development of a new anthropological type close to the two-river type are analyzed.

Key words: Anthropological, people (ethnos), ethno-territorial, brachycephalic, Melon, Bronze Age, Central Asia, ethnographic

АНТРОПОЛОГИЯ И ЭТНИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ НАСЕЛЕНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (ВЛИЯНИЕ ДЫННОЙ КУЛЬТУРЫ)

Аннотация

Антропологическое описание Центральной Азии и процессы исторической периодизации, процесс миграции большой волны переселенцев из степей северной части Центральной Азии на юг, и в первую очередь сарматских племен, вошедших в Сырдарью. р. Юеччи, усунские и гуннские племена вошли, а некоторые из них расселились, смешавшись с местными сак-массагетскими племенами и другими народами, свое место в этногенезе народов Средней Азии, и в дальнейшем это оказало более сильное влияние на этнический. анализируются история и антропология народа, начиная с бронзового века, земледелия и начала ассимиляции населения, занимающегося животноводством, возникновение и развитие нового антропологического типа, близкого к двуречному типу.

Ключевые слова: Антропологический, народ (этнос), этнотерриториальный, брахицефальный, Дыня, бронзовый век, Средняя Азия, этнографический.

O‘RTA OSIYO AHOLISI ANTROPOLOGIYASI VA ETNIK HAYOTI (QOVUNCHI MADANIYATI TA’SIRI)

Annotasiya

O‘rta Osiyo antropologik tavsifi va tarixiy davrlashish jarayonlarini, O‘rta Osiyoning shimoliy taraf dashtlardan janubga tomon ko‘chmanchilarning yirik to‘lqini ko‘chib jarayoni hamda eng avvalo Sirdaryo bo‘ylab kirib kelgan sarmat qabilalari boshlab berishi. Yuechji, usun va xun qabilalari kirib kelgan va ularning bir qismi o‘troqlashib, mahalliy sak-massaget qabilalari va boshqa elatlar bilan aralashib O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezidagi o‘rni keyinchalik bu esa xalqning etnik tarixi va antropologiyasiga ta’siri kuchayi, bronza davridan boshlab dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan aholilarning assimilyatsiyasi boshlanishi, ikki daryo oralig‘i tipiga yaqin yangi antropologik tip paydo bo‘lish va rivojlanish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Antropologik, xalq (etnos), etnohududiy, braxikefal, Qovunchi, bronza davri, O‘rta Osiyo, etnografik

Kirish. Davr tarixi yechimini o‘rganish borasida aholining iqtisodiy, madaniy, siyosiy va boshqa jabhalarini umumiylikda o‘rganing, uning qadimiyligini va haqqoniyligini oshiradi. Ma’lum bir xalq (etnos) ikkinchi bir xalqning tilini, urf-odatlarini, udumlarini o‘zlashtirib, unga aralashib (singib) u bilan bir xalq bo‘lib ketishi “qorishish jarayoni” hisoblanadi deb tahlil qilinadi.

Kelib chiqishi boshqa bo‘lgan etnoslar, bir xalq bo‘lib qo‘shilmasdan (qo‘shilishga moyilligi bo‘lmasdan) qo‘ni-qo‘shni bo‘lib doimiy aloqada bo‘lgan jarayonga “etnoslar yaqinlashuvi” iborasi qo‘llanadi [K.Shoniyofov. 83-b]

Har bir xalqning shakllanish jarayoni va antropologik tarixi uning etnogenezi, etnik tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu fan O‘zbekiston xalqlari tarixining tarkibiy qismini tashkil etadi. U tarixiy yozma manbalar, etnografiya, arxeologiya, antropologiya, lingvistika, toponimika, epigrafika, numizmatika kabi fanlar bilan o‘zaro aloqada va uzviy bog‘liq bo‘lib, ularsiz o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik

tarixini mukammal ilmiy o‘rganib bo‘lmaydi. Ayniqsa ushbu muammoning etnogenez qismini o‘rganishda ulardan olingan ma’lumotlar masala yechimiga ko‘p oydinliklar kiritadi [Askarov A.A. 104 b].

Mil.avv.gi III–II asrlarda O‘rta Osiyoning shimoliy qismidagi dashtlardan janubga tomon ko‘chmanchilarning yirik to‘lqini ko‘chib o‘tadi. Uni dastlab Sirdaryo bo‘ylab kirib kelgan sarmat qabilalari boshlab bergan. Keyinchalik, yuechji, usun va xun qabilalari kirib kelgan va ularning bir qismi o‘troqlashib, mahalliy sak-massaget qabilalari va boshqa elatlar bilan aralashib O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezida katta rol o‘ynay boshlaydi [SHoniyofov K.SH. 98b] bu esa O‘rta Osiyo etnik tarixi va antropologiyasiga ta’siri kuchayadi, shu borada tadqiqotchilar o‘rganilishi asr boshidan, jumladan, SSSR tashkil topgan davrdanoq boshlangan. Chunki sun’iy ravishda Turon hududida qadimdan mavjud bo‘lgan davlatlarni tugatib, o‘zining kelgusidagi rejalarini hech qanday to‘siqsiz bajarishi uchun milliy respublikalarga bo‘lib

yuborish va davlatchilik tarixidan uzib qo'yish zarur edi. Milliy hududiy chegaralashdan keyin esa ularni "o'z" tarixini yaratish kerak edi. O'zbek xalqining kelib chiqishi haqida maxsus tadqiqotlar va ular haqida yozilgan asarlar ko'p emas. Ammo bu masalada taniqli sharqshunos va arxeolog olim, professor A.Yu Yakubovskiy, Xorazm tarixining chuqur bilimdoni professor S.P.Tolstov, akademiklar- Ya.G'ulomov va K. Shoniyozovlarning xizmati katta. Sobiq ittifoq davrida O'rta Osiyo xalqlarining etnogenez masalalari bo'yicha maxsus sessiya o'tkazilgan, shulardan biri 1942 yilda Toshkentda tashkil etilgan. Unda taniqli olimlar:

A.D. Udalsev "Etnogenetik tadqiqotlarning nazariy asoslari",

S.P.Tolstov "O'rta Osiyo etnogenezining asosiy muammolari" hamda "Orol etnogenetik jarayonlar maydoni",

L.V.Oshanin "Antropologiya ma'lumotlari O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi haqida",

K.V.Trever "Miloddan avvalgi VI-V asrlarda O'rta Osiyo aholisining etnik tarkibi",

I.I.Umnyakov "Toharlar muammosi",

A.N.Bernshtam "O'rta Osiyo etnogenezida qadimgi turkiy elementlar",-

N.A.Kislyakov "Tojiklarning yuzaga kelishi masalasi haqida",

V.V.Ginzburg "Antropologiya ma'lumotlari tojiklar etnogenezi haqida",

A.Yu.Yakubovskiy "Turkman xalqining VIII-X asrlardagi etnogenezi tarixidan" mavzularida ma'ruzalar qilishib, O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixining asosiy yo'nalishi va ilmiy-metodologik asoslari belgilab olindi [Asqarov A.A.].

Taniqli rus olimi sharq manbalarining bilimdoni, A.Yu. Yakubovskiy 1941 yilda Toshkentda chop etilgan "O'zbek xalqining yuzaga kelishi haqida" nomli asarida o'zbek etnogenezi Turk xoqonligidan boshlanadi, degan edi[Yakubovskiy A.YU. 6-7 betlar.]. Keyinroq, o'zbek etnogenezining boshlang'ich nuqtasi antik davrgacha qadimiylashtirildi. S. P. Tolstov qadimgi Xorazmda olib borgan keng ko'lamli arxeologik, antropologik va etnografik materiallarning yozma manba ma'lumotlari bilan qiyosiy o'rganib, "Qang' davlatining tarkibida va u egallab turgan mintaqalarda o'zbek xalqining ilk ajdodlari yashagan, ularning etnik tarkibi va tili bir xilda bo'lmagan[Tolstov S.P. 1947, str. 303]", degan g'oyani ko'tarib chiqdi.

Hozirgi bu davr qadimiylashtirilgan, ya'ni akademik A.Asqarov tadqiqotlari natijasida o'zbek etnogenezining boshlang'ich nuqtasi so'nggi bronza davri bilan belgilanmoqda. Bunday qarashlarning ilmiy asosida o'zbeklarning o'q tomiri, bosh ildizi ikki tilda so'zlashuvchi etnik qatlamlarning, ya'ni so'g'diy va turkiy tilli elatlarning qorishuv natijasi ekanligi va uning dastlabki sanasi, ularning ilk bor qorisha boshlagan nuqtasi so'nggi bronza davridan boshlanganligi hisobga olingan. O'zbek xalqi etnogenez va etnik tarixi muammolarini o'rganishda akademik K. Shoniyozovning xizmatlari alohida tahsinga sazovordir. U o'zining qariyb yarim asrluk ilmiy faoliyati davomida Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi o'zbek va boshqa qardosh xalqlar etnogenezi va etnik tarixini izchil o'rgandi, qator ilmiy maqolalar va bir necha yirik monografiyalar yaratdi. Uning "O'zbek qarluqlari" (1964 y.), "O'zbek xalqining etnik tarixiga oid" (1974 y.), "O'zbek xalqining moddiy madaniyatidan etnografik lavhalar" (1981 y.), "Qang' davlati va qang'lilar" (1990 y.), kabi asarlari fundamental ilmiy asosga ega.

Arxeologik va antropologik ilmiy tadqiqotlar O'rta Osiyo bir necha ming yillar davomida juda murakkab etnik jarayonlar - katta va kichik irqiy guruhlarning aralashuv makoni bo'lib kelganligini ko'rsatdi. Akdemik A.A. Asqarov

ta'biri bilan aytganda, Qang' davrida, birinchidan, Sirdaryoning o'rta havzasida, Qang', Farg'ona, Ustrushonaning markaziy hududlarida etnohududiy birlik sifatida tarkib topishi, ikkinchidan, ana shu etnohududiy birlik doirasida bir xil rivojlanish darajasidagi iqtisodiy-xo'jalik birligi vujudga kelishi, uchinchidan, tarkib topgan hududiy birlik doirasida deyarli bir xil rivojlanishdagi etnomadaniy birlik maydonni qaror topishi, to'rtinchidan, o'zbek halqiga xos antropologik tip-O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi shakllanishi, beshinchidan, yangi etnos-qang'ar elati atrofida jiplashgan Qang' davlat konfederatsiyasi, ya'ni siyosiy davlat uyushmasi tarkib topishi va bu paytda o'zbek xalqi etnogenezining ikkinchi bosqichida o'zbek elatiga xos qator omillar yuzaga kelishi edi [Asqarov A.A. B.231.]. Antropologik tadqiqotchilar hozirgi kunlarda O'rta Osiyoni uchta yirik antropologik hududga ajratib, har bir hudud aholisining o'ziga xos irqiy xususiyatlarini aniqladilar. Markaziy antropologik hudud o'z tarkibiga Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan xaqلامي qamrab oladi. Bu hududga asosan o'zbeklar va pasttekisliklarda yashovchi tojiklar kiradi. Ular O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i antropologik tipi vakillari hisoblanadilar[Toshboyev F.E, 2021. B.51.].

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham ushbu fikrlarni tasdiqlash imkonini bermoqda. Qang' davrida O'rta Sirdaryo bo'yida shimoli-sharqiy ko'chmanchi qabilalar va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelayotgan etnik guruhlarning aralashmasidan o'ziga xos etnomadaniyat birikmalari yuzaga keladi. Bu holat aholining antik davrdagi etnik qiyofasi va antropologik tuzilishida qurama tiplar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Bu haqida Xitoy manbalarida yozilishicha, saklar yangi kirib kelgan yuechji, usun va xunlardan til, etnik, antropologik va turmush tarzi jihatidan ham kam farq qilgan. Mazkur davlatning "Odamlarining kiyinishi usunlar bilan bir xil, o't o'lanlarni qidirib, ko'chib yurishadi, bular aslida sak (sek)lar edi",-deb eslatiladi[Xo'jaev A. B.196].

Tadqiqotchi F.E. Toshboyevning yozishicha, Quyi Volga oqimi hududida birinchi asrlarga oid sarmat aholisi tarkibida besh xil antropologik tip mavjudligi aniqlangan. Haqiqatdan ham sarmatlar antropologik jihatdan qorishgan va murakkab tarkibga ega. Lekin bu yerda besh antropologik tip mavjudligi bizni ishonitirmayapti. Chunki hozirgi zamon antropologik uslublar antropologik tiplarni bir-biridan ajratib, ularning farqini to'la oydinlashtirish darajasiga hali yetgani yo'q. Shunday bo'lsa-da, sarmatlar tarkibida uchta antropologik tip - O'rta yer dengizi, Pomir-Farg'ona va Old Osiyo antropologik tiplari mavjudligi bizni ko'proq ishonitiradi. Sarmatlar tarkibida mo'g'uliy alomatlarni o'zida mujassamlashtirgan Janubiy Sibir antropologik tipi borligi mutlaqo sezilmaydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, sarmat qabilalari ham mahalliy O'rta Osiyo xalqlari ham yevropoid qiyofaga ega. Ammo keyinchalik O'rta Osiyoning yarim ko'chmanchi aholisi orasida mo'g'uliy alomatlar paydo bo'la boshlagani ma'lum.

Hozirgi kunda O'rta Osiyo hududlarida yashab turgan mahalliy aholining siymosini o'rganish, birinchi navbatda, ularning bosh chanog'ini biologik va antropologik jihatdan o'rganish tufayli ularning antropologik tiplari aniqlagan. O'rta Osiyo antropologiyasi o'rganishda L.V.Oshanin va V.V.Ginzburglar o'z tadqiqotlarida hozirgi zamon o'zbeklari bilan voha tojiklari bir tipni tashkil etishlarini isbotladi va bu tipni "O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi" deb atadilar. Akademik antropolog V.P. Alekseyev "O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi"ni tarkib topishi Janubiy Sibirning bronza davri qabilalari bilan bog'lashni taklif qiladi.

Boshqa bir guruh olimlar bu tipni tarkib topishini O'rta Osiyoga turk xoqonligining kirib kelishi bilan bog'lashga urinib ko'rdilar. Chunki bunday g'oyani

ko'tarilishida A.Yu.Yakubovskiyning o'zbek etnogenezining boshlanishini turk xoqonligi bilan bog'lashi asos bo'lgan edi. Biroq arxeologik tadqiqotlar ko'lamining O'rta Osiyo hududlarida kengayib borishi va shu bilan bog'liq holda yangidan yangi kraniologik (odam bosh suyaklari) materiallar seriyasining ko'payishi, O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipining ildizlari yanada qadimiy ekanligidan guvohlik berar edi.

T.K. Xo'jayov tomonidan Qovunchi madaniyati davrida O'rta Osiyoda keng yoyilgan "O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi" ning asosiy belgilari o'rganilgan. Unga ko'ra, bu tip vakillarining ko'zlari qo'y ko'z, tanasi bug'doy rang, yuz tuzilishi dumaloqroq, yuz chanoqlari biroz bo'rtib chiqqan, iyagi oval shaklida, sochlari qora, bosh chanog'i braxikefal (dumaloqroq), jussasi o'rtacha [A.X. Doniyorov, O.Bo'riev, A.A.Ashirov.B.40.]. Ushbu qiyofa ko'p asrlik qorishuv mahsuli bo'lib, unda qadimdan o'lkada yashagan mahalliy aholi (sak va boshqalar) va antik davrda kirib kelgan xalqlarning ko'pchiligini tashkil etuvchi xun, yuechji va usunlarga xos ko'rinishlar saqlangan. Mil.avv.gi III–II asrlarda O'rta Osiyoning shimoliy qismidagi dashtlardan janubga tomon ko'chmanchilarning yirik to'liqini ko'chib o'tadi. Uni dastlab Sirdaryo bo'ylab kirib kelgan sarmat qabilalari boshlab bergan. Keyinchalik, yuechji, usun va xun qabilalari kirib kelgan va ularning bir qismi o'troqlashib O'rta Osiyo, xususan, Ustrushona aholisi tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuechji – ro'zie (g'o'zer)liklarning tashqi qiyofasi yevropoidlarga xos, ya'ni ko'zlari chuqur, burunlari qirra, badanining rangi oq bo'lgan. Ular, asosan, braxikefal yevropoidlar bo'lgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan antropologik xususiyatlarni qabilalarning Ustrushona hududiga kirib kelishi, joylashishi, yuz yillar mobaynida xo'jalik yuritish shaklini o'zgartirib mahalliy aholi bilan aralashuv natijasi deb e'tirof etish mumkin.

Ustrushonaning shimol, shimoli-g'arb va sharq tomondan cho'l dunyosi vakillari - ko'chmanchi qabilalari, janubdan Morguzar, g'arbdan Nurota tog' tizmalari o'rab turganini hisobga olsak, Ustrushona ko'chmanchilar uchun eng qulay, beminat aloqa makoni "kontakt zona" edi. Bundan tashqari, janubga tomon yo'l olgan ko'chmanchilar ham, asosan, Ustrushona orqali o'tib borganlar [Pardaev M.H. 2003.B. 148.]. Chorva uchun qulay yaylovlarning mavjudligi esa, kirib kelgan aholi kattagina guruhining bu o'lkani makon tutib qolishiga ham sabab bo'lgan. Bu davrdagi barqaror ijtimoiy siyosiy vaziyat tufayli uning tarkibiga kirgan ulkan

hududlar, jumladan, Ustrushonada ham o'troq va ko'chmanchi aholining etnik qorishuv va bir-birini to'ldiruvchi madaniyati shakllangan [Toshboyev F.E. 2021. B.135.]. Bu "qorishiq" madaniyat aholining turmush tarzi va madaniyatida yaqqol aks etgan(atropologik va etnik xususiyatlarida) ko'chmanchilar kelib o'rmasgan O'rta Osiyo hududlarida yashayotgan xalqlarning antropologik qiyofasiga nazar tashlasak, quyidagi holatni kuzatamiz. Mo'g'uliy belgilari ancha rivoj topgan guruhlarini O'rta Osiyoning shimoli-g'arbiy tomonida joylashgan Volga-Uralda emas, aksincha, O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy, ya'ni Talas va Chu vodiylarida, Qozog'istonda yashagan aholida kuzatamiz. Bundan kelib chiqadiki, O'rta Osiyoda sarmat qabilalariga xos madaniy xususiyatlarni kuzatish bilan bir qatorda, e'tiborni, asosan, shimoli-sharqiy hududlarga qaratashimiz maqsadga muvofiq. Volga-Ural daryolari yoqalarida yashagan sarmat qabilalarining kuchli madaniy ta'siri Ustyurtda va Orol dengizining janubi-sharqiy qismida joylashgan Jetiasar madaniyati qabilalarida kuzatiladi. Jetiasar madaniyati aholisi milodning birinchi asrlardan boshlab sharqqa siljigani arxeologik ma'lumotlardan ma'lum. Aytish mumkinki, jetiasarliklar sarmat qabilalariga xos madaniyatni o'zida mujassamlashtirganlar va O'rta Osiyo hududlariga uni o'zi bilan birga olib kelganlar. Demak, unda biz O'rta Osiyoga bevosita sarmat qabilalari bostirib kelganligi haqidagi ilmiy farazdan voz kechib, sarmat qabilalari madaniyatini O'rta Osiyoga jetiasarliklar o'zi bilan olib kelgan degan fikrga kelamiz.

Bundan tashqari, Qovunchi madaniyati aholisi boshqa yo'nalishda ham o'z aloqalarini kuchaytirgan. Bu aholi tarkibida O'rtayer dengizi tipi vakillari ko'plab uchraydi. Bu tip O'rta Osiyoning janubiy rayonlarida yashagan dehqon aholisiga xos bo'lib, bronza va ilk temir davrida Janubiy Ural, Zarafshon va Farg'ona vodiysiga kelib qolgan. Antik davrda esa bu tipdagi odamlar Qovunchi madaniyati aholisi tarkibida ham bo'lgan. Bu esa janubiy rayonlarda dehqonchilik bilan shug'ullanayotgan aholi yangi yer izlab Toshkent vohasiga keyingi bronza yoki burgalik madaniyati davrida ko'chib kela boshlagan va bu hududlarda dehqonchilik madaniyatini rivojlantirishga "turtki" bo'lgan degan xulosaga asos bo'ladi.

Keyingi yillarda turkiy xalqlarning tili va etnik kelib chiqishi haqida qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Aytish mumkinki, O'rta Osiyoning etnik va antropologik tarixni o'rganish masalalari tizimli tarzda amalga oshirilmoqda, bu esa mavzuning qay darajada dolzarbligini ekanligini bildiradi.

ADABIYOTLAR

1. K.Shoniyozov O'zbek xalqining shakllanish jarayoni 83-b
2. Askarov A.A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari.
3. Asqarov A.A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi..
4. YAKubovskiy A.YU. Ko'rsatilgan asar, 6-7 betlar.
5. Tolstov S.P. Osnovnye problemy etnogeneza narodov Sredney Azii. SE. N VI-VII. 1947, str. 303
6. Asqarov A.A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi... - B.231.]
7. Toshboyev F.E. Ustrushonaning qadimgi davrdagi etnik tarixi.o'quv qo'llanma. "Yosh avlod matbaa" nashriyoti. Toshkent, 2021. B.51.]
8. Xo'jaev A. Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar.. – B.196.
9. Toshboyev F.E. Ustrushonaning qadimgi davrdagi etnik tarixi.o'quv qo'llanma. "Yosh avlod matbaa" nashriyoti. Toshkent, 2021. B.127.
10. A.X. Doniyorov, O.Bo'riev, A.A.Ashirov. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi... –B.40.



UDK: 94(575.1-25)

Mavluda MAMATOVA,
NavDPI talabasi
E-mail: mamatova@gmail.com

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD F.Fayziyeva taqrizi asosida

XOTIN- QIZLARING TADBIRKORLIK FAOLIYATIDAGI O'RNI VA ROLI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada xotin-qizlarning bandligini ta'minlagan holda ularni tadbirkorlik sohasiga jalb etish, xotin-qizlarning tadbirkorlik sohasiga qo'shgan hissasi va Navoiy viloyati xotin qizlarining tadbirkorlik faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Xotin-qizlar, Navoiy viloyati, Ayollar daftari, "Tadbirkorlik asoslari", Konimex, Nurota, Xatirchi, Navbahor, Subsidiya, Karmana tuman, Talqoq mahalla, Umida Gulomova, NavDPI, Saidova Dilrabo, "Shuhrat" medali, Maftuna Rahimova, Manzura Hasanova, Shaxnoza Ro'ziyeva, Ziynat Abdullayeva, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni, "Chados" MChJ.

РОЛЬ И РОЛЬ ЖЕНЩИН В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация

В данной статье представлена информация о занятости женщин и их вовлеченности в бизнес-сектор, вкладе женщин в бизнес-сектор, а также предпринимательской деятельности дочерей женщин в Навоийской области.

Ключевые слова: Женщины-девушки, Навоийская область, Женская тетрадь, "Основы предпринимательства Конимех, Нурота, Хатирчи, Навбахор, Субсидия, Карманинский район, Талкоқ Махалля, Умида Гуломова, NavDPI, Saidova Dilrabo, медаль "Шухрат", Мафтун Рахимова, Манзура Гасанова, Шахноза Рузиева, Зиинат Абдуллаева, Знак "Активный предприниматель", ООО "Чадос".

ROLE AND ROLE OF WOMEN IN ENTREPRENEURIAL ACTIVITY (ON THE EXAMPLE OF NAVOI REGION)

Annotation

This article provides information on the employment of women and their involvement in the business sector, the contribution of women to the business sector, as well as the entrepreneurial activities of women's daughters in the Navoi region.

Key words: Women-girls, Navoi region, Women's notebook, "Entrepreneurship basics Konimex", Nurota, Khatirchi, Navbahor, Subsidy, Karmana district, Talqoq Mahalla, Umida Gulomova, NavDPI, Saidova Dilrabo, "Shuhrat" medal, Maftuna Rahimova, Manzura Hasanova, Shakhnoza Ruzieva, Ziynat Abdullaeva, "Active entrepreneur badge", "Chados" LLC.

Kirish. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining joriy etilishi tufayli yurtdoshlarimizning ong-u tafakkuri va dunyoqarashi qanchalik o'zgarib ketgani ham shundan dalolat beradi. Ko'pchilikka yaxshi ayonki, 90 - yillarning boshlarida aksariyat odamlar bizda ham kimningdir xususiy zavodi, yoki fermasi u yoqda tursin kichginagina do'koni bo'lishi mumkinligini ham tasavvur eta olmas, tasavvur eta olganda ham o'ziga qabul qila olmas edi. Chunki hamma narsa davlat mulki bo'lgan eski tuzumda xususiy mulkka ega bo'lish, tadbirkorlik va kichik biznes bilan shug'ullanish bizga, begona bo'lgan tushunchalar sifatida baholanar edi Bugungi kunda esa xususiy mulk tushunchasiga nisbatan munosabat qanday o'zgarib u hayotimizdan qanchalar chuqur joy olib borayotganiga barchamiz guvohimiz va bu holat hech kimni xayron qoldirmaydi[1]. Ammo Bugungi kunda esa tadbirkorlik faoliyatini yo'lga quyishga doir ko'pdan-ko'p islohotlar amalga oshirilib, ularning tub negizida xalqimiz iqtisodiyotini yanada boyitish, savdo iqtisodiy masalalarda chet davlatlar bilan bevosita raqobatbardoshlikni yo'lga quyish kabi masalalar yo'lga quyilgan. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash, xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, ularni ijtimoiy faolligi va mavqini yuksaltirish, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadbirkorlik haqida so'z ketganda, avvalo, Tadbirkorlik bu – doimo o'z ishinin fidoyisi, bilimdonidir. O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik erkinligi kafolatlari to'g'risida"gi qonunida tadbirkorlik faoliyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlarig muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan

tashabbuskor faoliyat" demakdir. Ushbu mashaqqatli sohada xotin-qizlarimiz ham o'zlarining faoliyatlarini yo'lga quyib yurtimiz rivojiga ulkan xissa qo'shib kelmoqda desak mubolg'a bo'lmaydi[2].

Qolaversa, Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yan ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, resurs va sarmoyalarni teng taqsimlash borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 7-martdagi PF-87-son qaroriga asosan tadbirkor ayollarga subsidiyalar miqdorini 7 mln so'mdan 10 mln. so'mgacha oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu subsidiya biznesni boshlash va biznes yuritishlari uchun zarur bo'lgan asbob uskunalar va asboblarni sotib olish uchun beriladi. Bu esa o'z navbatida tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ayollarimizga yanada qo'laylik tug'diradi[3].

O'zbekiston Xotin-qizlar Qo'mitasi va boshqa hamkor tashkilotlar tomonidan oilaviy va xotin-qizlar tadbirkorligi va kasanachilikni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha ish joylari barpo etish, o'z biznesini boshlash istagidagi xotin-qizlarni iqtisodiy, huquqiy bilimini yuksaltirishga oid qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Bunda tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lar ajratildi. Ayni paytda, Navoiy viloyatida ikki mingdan ziyod tadbirkor ayollar faoliyat yuritmoqda. Mahallarda xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan seminarlar, davra suhbatlari o'kazilmoqda. „O'z biznesingni yo'lga quy“, „Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish“, „Ayol tadbirkor bo'lsa, oila farovon bo'ladi“ kabi mavzularda tashkil etilgan davra suhbatlari ko'plab xotin qizlarni bu sohaga qiziqishlarini yanada orttirmoqda[4].

Navoiy viloyatida 2023-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2746 taga yetdi.

Shundan, mikrofirmalar 2738 tani, yirik korxonalar 8 tani tashkil etadi. Navoiy viloyati har bir tumanida, xususan, Konimex tumanida "Tadbirkorlik asoslari" o'quv kursi 60 soatga mo'ljallangan dastur asosida darslar tashlik etilib, bu darslarda 2024-yilda "Ayollar daftari" ro'yhatiga kirgan, ijtimoiy himoya reyestrda turuvchi tadbirkorlik qilish istagini bildirgan xotin-qizlar o'qitilib moliyaviy bilimlar va kredit resurslaridan foydalanish biznes reja tuzish kabi eng muhim bilimlarni egallashmoqda[5].

Viloyatda 2022-yilda tadbirkor ayollar rahbarligida kichik korxonalar va mikro firmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 3824,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu 2021-yilning mos davriga nisbatan 824,6 mlrd. so'mga ko'paygan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yilda 26 ta mahalliy sanoat markazi va kichik zonalarini tashkil etish hamda oilaviy tadbirkorlik dasturlari uchun qo'shimcha 100 mlrd so'm, kelgusida 600 mlrd so'm, yo'naltirish hamda Nurota, Xatirchi, Navbahordagi bo'sh binolarda mono markazlar tashkil etish vazifasi yuklatilgan[6].

Tadbirkor xotin-qizlar misolida Navoiy viloyati Karmana tumanidagi Talqoq mahallasida o'zining Qandolatchilik sexini ochgan Umida Gulomovani keltirishimiz mumkin. Umida Gulomova o'zining tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yib o'z atrofiga "Ayollar daftari"dagi 23 nafar xotin-qizlarni jamlab, ularning bandligini ta'minlashda hissa qo'shgan.

Shuningdek, viloyatda yoshlar bilan ishlash, ularning qiziqishlarini ro'yobga chiqarish maqsadida, o'z mehnati irodasi bilan katta yutuqlarga erishgan tadbirkorlar hamda biznes vakillari bilan "Tadbirkor va Yoshlar" uchrashuvlari tashkil qilinish kelinmoqda. Bunday uchrashuvlardan biri Navoiy Davlat Pedagogika Institutida bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda tadbirkor, "Shuhrat" medali sovrindori, Konimex tumani ma'suliyati cheklangan jamiyat rahbari Saidova Dilrabo Alikulovna bilan talabalar suhbat bo'lib o'tdi. Suhbat jarayonida tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob topishdi.

Tahlil va natijalar. Dilrabo Saidova tadbirkorlik faoliyati davomida o'zining erishgan natijalari, ungacha bo'lgan ayrim qiyinchiliklar haqida so'zlab bergan. Shuni ta'kidlash joizki Dilrabo Saidova asli kasbi hamshira bo'lgan. U Tadbirkorlik sohasiga o'zining qiziqishlari bois qadam qo'ygan. U dastlab Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga quyishda 2 ta tikuv mashinasida ish boshlagan, keyinchalik esa u bu sohadan yaxshigina daromad ola

boshlagach faoliyatini kengaytirib dastgohlari sonini oshirib kattagina Tikuvchilik sexini boshqarishga o'tgan. Hozirda tadbirkor ayolimuz Dilrabo Saidova ushbu Tikuv sexida 500 nafar xotin-qizlarimizni bandligini ta'minlagan.

"100 tadbirkorga 100 shogirt" shiori ostidagi „Navoiy viloyatidagi tadbirkor va hunarmand xotin-qizlarning tashabbuskor va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash“ mavzusidagi viloyat konferensiyasi o'tkazildi. Markaz tomonidan 2023-yil 1-avgust holatiga 3126 nafar (bandligi ta'minlanmagan uzoq muddat bola parvarishlash ta'lidida bo'lgan mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollar) tadbirkorlik va mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitildi.

Shulardan, 674 nafari o'zini-o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yhatdan o'tishdi. Maftuna Rahimova, Manzura Hasanova, Shahnoza Ro'ziyeva va Ziyat Abdullayevlarni misol keltirish mumkin. Bu yerda bandlikning asosiy negizida boshlang'ich sarmoya ajratilgan subsidiya olishi kerakligi ko'zda tutilgan. Bugungi kunda 211 nafar vaqtincha ishsiz xotin-qizlarni tadbirkorlarga biriktirib, hozirda ularning 146 nafari o'ziga oilasiga daromad keltiradigan darajaga chiqishdi. O'tkazilgan konferensiyada asosan xotin-qiz tadbirkorlarni ancha vaqtdan kredit surab murojaat qilgan 14 nafari o'z faoliyatini boshlash va rivojlantirish uchun joy so'ragan 17 nafar boahlang'ich uchun subsidiya so'ragan 11 nafar, hunarmandchilik "Ustoz-shogird" o'qitish bo'yicha 9 nafar va boshqa masalalarda 10 nafar xotin-qizlar muommolari o'rganildi va ijobiy hal etildi[7].

Bundan tashqari, Navoiy viloyatida yana bir qancha "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan „Chados " mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Husanova Latofat Nurillayevnani aytishimiz mumkin[7]. Viloyat xotin-qizlari tadbirkorlik sohasiga o'zining faol xissasini qo'shganligi va jonbozlik ko'rsatganligi buning yaqqol dalilidir.

Xulosa o'rmda shuni ta'kidlash joizki buguni kunda Tadbirkorlik fa'oliyati juda keng yo'lga quyilmoqda, ayniqsa bunda ayollarimiz o'zining mehnatsevarligi bilan ahamiyatli o'rin egallamoqda. Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik qilish uchun yaratilgan qo'lay imkoniyatlar sabab tadbirkor ayollar safi yanada kengaydi. Tadbirkorlik faoliyatini boshlashda bir qancha qulayliklar yaratildi, xususan subsideyalar ajratildi, bank tomonidan foizsiz kreditlar ajratiladigan bo'ldi, shuningdek ko'pgina qarorlar qabul qilinib, bu qarorlar tadbirkorlarimiz uchun yanada manfaatli bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. "Yuksak Ma'naviyat -Yengilmas kuch " 2008 y 43- bet
2. "Tadbirkorlik Va biznes Asoslari " darslik Toshkent " Ilm Ziyoy " 2014 y 2-bob 27- bet
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022- yil 7- martdagi PF-87-sonli "Oila va Xotin-qizlarni Tizimli qo'llab- quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
4. <http:// uza.uz>
5. <http:// navstat.uz>
6. <http://hisobot.stat.uz>
7. <http://yoshlarovozi.uz>
8. Faol tadbirkor <http://president.uz>



UDK: 94(575.171)61

Shirin NIYAZOVA,
O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti magistranti
E-mail: niyazova_82@internet.ru

PhD O'.Mattiyeu taqrizi asosida

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA XUSUSIY KLINIKALAR FAOLIYATI

Annotatsiya

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab, barcha sohalar qatori tibbiyotning xususiy sektorini rivojlantirish ishlari olib borildi. Turli xususiy tibbiyot muassasalari nafaqat poytaxtda, balki viloyat markazlarida ham o'z faoliyatini boshladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning chekka hududlarida tibbiyotning xususiy sektori rivojiga yordam berdi. 2016 yildan e'tiboran bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda barcha hududlarda bo'lgani kabi Samarqand viloyatida ham xususiy tibbiyot muassasalari o'z faoliyatini boshladi. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Samarqand viloyatida ish boshlagan xususiy klinikalar faoliyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Islohotlar, xususiy tibbiy muassasalari, pullik xizmat tizimi, "Xursheda Nasimova" diagnostika davolash markazi, Innova Ekspert.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЧАСТНЫХ КЛИНИК САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

С первых дней обретения Узбекистаном независимости, наряду со всеми другими сферами, осуществлялось развитие частного сектора медицины. Различные частные медицинские учреждения начали свою деятельность не только в столице, но и в областных центрах. Это, в свою очередь, помогло развитию частного сектора медицины в отдаленных районах страны. С 2016 года работа в этом направлении вышла на новый уровень. В этот период, как и во всех регионах, в Самаркандской области начали свою деятельность частные медицинские учреждения. В данной статье представлена информация о деятельности частных клиник, начавших работать в Самаркандской области в годы независимости.

Ключевые слова: Реформы, частные медицинские учреждения, система платных услуг, диагностический центр «Хуршеда Насимова», Иннова Эксперт.

ACTIVITIES OF PRIVATE CLINICS IN SAMARKAND REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

Since the first days when Uzbekistan gained its independence, the development of the private sector of medicine, along with all other fields, has been carried out. Various private medical institutions started their activities not only in the capital, but also in regional centers. This, in turn, helped the development of the private sector of medicine in remote areas of the country. Since 2016, the work in this regard has reached a new level. During this period, as in all regions, private medical institutions started their activities in Samarkand region. This article provides information about the activities of private clinics that started working in the Samarkand region during the years of independence.

Key words: Reformy, private medical institution, paid service system, diagnostic center "Khursheda Nasimova", Innova Expert.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk kunlaridan boshlab barcha sohalar qatori sog'liqni saqlash tizimining xususiy sektori sohasida ham keng miqyosdagi islohotlar boshlandi. Avvalo, mazkur faoliyat dastlabki paytlarda sinov tariqasida amalga oshirildi. Jumladan, Toshkent viloyati hokimiyati va Sog'liqni saqlash vazirligining 1992 yil 1 fevraldagi «Feldsher-akusherlik punktlarini tajriba tariqasida xususiylashtirish haqida»gi qaroriga asosan Toshkent viloyatida 3 ta birlamchi bo'g'in bo'lgan feldsher-akusherlik punktlari xususiylashtirildi [1]. Natijada, mamlakatda ilk xususiy tibbiyot muassasalari paydo bo'ldi.

Mustaqillik yillarida Samarqand viloyatida ham xususiy tibbiy muassasalar faoliyatini rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Tibbiy muassasalarning moddiy-texnik bazasi va ta'minotini mustahkamlash, zamon talablari asosida yo'lga qo'yish ishlari xususiy tibbiyot muassasalarida ham izchil va tizimli amalga oshirildi. Mazkur qarorda, ularning faoliyatiga doir bir qator o'zgarishlar kiritildi. Jumladan, viloyatda faoliyat olib borayotgan ixtisoslashtirilgan xususiy tibbiyot markazlarida litsenziya-olanadigan mutaxassisliklar ro'yxatidagi tibbiy yordam ko'rsatishning 70 ta turidan 23 turi chiqarildi. Bundan keyin ularga akusherlik, qon-tomir xirurgiyasi, jag'-yuz xirurgiyasi hamda 7 turdagi bolalar kasalliklari bo'yicha tibbiy xizmat ko'rsatishga ruxsat etilmaydigan bo'ldi.

Pullik xizmat tizimi rivojlanishi islohotlar natijasida ko'zga tashlana boshladi. Jumladan, Samarqand shahridagi "Xursheda Nasimova" diagnostika davolash markazi buning yaqqol dalilidir. 1997 yilda tashkil etilgan ushbu markazda urologik kasalliklarni aniqlash va aniq tashxis qo'yib davolash usullari eng so'nggi texnologiyalar asosida olib borildi va samarali natijaga erishildi [5]. Mazkur markaz nafaqat shu soha bilan shug'ullanuvchi, balki mazkur soha vakillarini bir joyga to'plab urologik xastaliklarni davolashning zamonaviy usullarni keng qo'llash ishlari targ'ib etuvchi maskanga aylandi. Buni 2012 yilda markaz tashkil etilganligining 15 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan "Urologik kasalliklarni aniqlash va davolashda zamonaviy tibbiy uskunalarning ahamiyati" mavzuidagi ilmiy-amaliy konferensiya misolida ham ko'rishimiz mumkin [2].

Ushbu munosabat bilan tashkil etilgan anjumanda viloyatdagi bir qator tibbiy markazlar, shuningdek, Buxoro, Jizzax, Qashkadaryo va Navoiy viloyatlaridan urologiya sohasining yetuk olim va mutaxassislari ishtirok etishdi. Mintaqamizda urologiya xastaliklari ichida siydik-tosh kasalligi eng ko'p tarqalgan. Bu kasallik hamma yoshdagi kishilarda uchirishi mumkin. Siydik yullarida tosh paydo bulishi to'laqonli hayot kechirishga xalaqit berib, asoratlari juda xavfli bo'ladi. Shuning uchun viloyat shifoxonalarida mavjud uchta urologiya bo'limi hamda 27 ta urologiya xonalarida 50 ga yaqin vrach-mutaxassislar zamonaviy usullarda mazkur xastalikka chalingan

bemorlarni samarali davolash usullari joriy etishdi. Jumladan, konservativ usulda davolanishda asosiy e'tibor tanadagi modda almashinuvini, siydik yo'llaridagi infeksiyani yuqotishga va toshni o'z-o'zidan chiqib ketishiga qaratiladi. Zamonaviy davolash jarayoni asosan kam invaziv va endourologik (asbob-uskunalar bilan) amalga oshiriladi. Jahon tibbiyotida 90 foiz bemorlar yangicha usulda, ya'ni ekstrakorporal zarba-tulqinli litotripsiya uskunasi yordamida darddan forig' bo'lmoqda [3:4]. Viloyatda bu kabi zamonaviy davolash usuli birinchilardan bo'lib "Xursheda Nasimova" tibbiyot markazi mutaxassislari tomonidan yo'lga qo'yildi va muvaffaqiyatli olib borildi. Tibbiyot muassasasi shifokorlari bemor buyragi va siydik yo'llaridagi toshlarni maydalab tushirish usulini o'zlashtirib oldilar. Shuni ta'kidlash lozimki, "Xursheda Nasimova" xususiy tibbiyot diagnostika davolash markazi umrini aholi salomatligiga bag'ishlagan fidoyi insonlar - Daler Shukurlayev va Xursheda Nasimova tashabbusi bilan tashkil etilgan edi. V Maxmudova, I.Tavakkalova, K.Balandin, Ye.Serovyan kabi tajribali shifokorlar yangi dargohning birinchi xodimlari sifatida ish boshladilar. Markaz ishga tushgach, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati ham yaxshilandi. Moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, davolash samaradorligini oshirish maqsadida yangi, zamonaviy diagnostika davolash uskunalari xarid qilindi. Keyinchalik markaz qoshida "Zarmed" filiali barpo etildi. Ayni paytda markazda magnet-rezonans va multispiral kompyuter tomografiyalari yordamida aniq va to'g'ri tashxis qo'yilib, EKG, UZI diagnostika, exoensefaloskopiya, kolposkopiya (rangli rasm bilan), fizioterapiya, ignarefleksoterapiya va boshqa o'nlab usuldagi massajlar olib borildi.

Urologiya sohasida olib borilgan ko'p yillik tajriba va kuzatishlar tufayli toshlarni olib tashlash bo'yicha katta tajriba to'plandi. Natijada, bu paytga kelib bemorlarning jarrohlik yo'lisiz ham bu darddan forig' bo'lishlari uchun imkoniyatlar paydo bo'ldi. Ushbu davolash usulida yuqori energetik zarba to'liqlari tana orqali o'tib, buyrak yoki siydik pufagidagi toshlarni 2 mm bo'lgunicha maydalaydi va ular siydik yo'llari orqali oson chiqib ketadi. Davolash jarayoni 3 daqiqadan 40 daqiqagacha davom etib, bunda bemorning stasionar davolanishiga hojat qolmaydi. Asorati esa deyarli kuzatilmaydi. Bunda xorijdan keltirilgan ekstrakorporal zarba-to'liqinli litotriptor uskunadan foydalanish katta samara berdi.

2016 yildan e'tiboran bu boradagi tadbirlar yangi bosqichga ko'tarildi. Barcha sohalar qatori, xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2021 yil 29 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Moliy kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun [4] bilan bir qator soliq imtiyozlari joriy qilindi. Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra, tibbiyot muassasalari tibbiy xizmatlarni (bundan kosmetologik xizmatlar mustasno) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma soliq solishdan ozod qilindi. Qolaversa, tibbiyot muassasalari egallab turgan yerlar soliq

solinmaydigan yer uchastkalari ro'yxatiga kiritildi, foyda solig'i esa 0% stavkada qo'llanishi belgilandi [6].

Bu borada "Innova ekspert" xalqaro ko'p tarmoqli tibbiyot markazi faoliyati ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2015 yilda o'z faoliyatini boshlagan klinika yuqori texnologiyali uskunalar bilan jihozlandi [7]. 2021 yilda Innova klinikasi va Rossiyaning Ekspert kompaniyalar guruhi o'rtasidagi kelishuv natijasida hamkorlik shartnomasi tuzildi va yangi "Innova Ekspert" brendi yaratildi. O'zaro hamkorlik rejalarini klinikani to'liq rebrendinglash va Ekspert kompaniyalar guruhining barcha standartlarini joriy etish, shuningdek, Ekspert Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish instituti, muhandislik xizmati va telemeditsina platformasiga kirishni o'z ichiga oldi.

Qisqa vaqt ichida "Innova Ekspert" klinikasi Samarqandda rentgenologik va laboratoriya tekshiruvlari sohasida yetakchi o'rinni egalladi. Klinika tarkibida laboratoriya, Samarqand viloyati tumanlarida 8 ta qon namuna olish punktlari mavjud bo'lib, MRT, MSKT va rentgen diagnostikasi sohasidagi yuqori aniqlikdagi uskunalar bilan jihozlandi. Natijada, klinikada bemorlarga turli xil tibbiy yo'nalishlarda keng ko'lamli tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. Funktsional diagnostika, radiologiya, laboratoriya diagnostikasi, fizioterapiya, massaj, mutaxassislar maslahati, shuningdek, kunduzgi va kechayu kunduz stasionar xizmatlar shular jumlasidandir [8]. Shuningdek, "Innova Ekspert" saytida shifokor qabuliga yozilish, kasallik tarixini ko'rish, test natijalarini, shuningdek, shifokorlarning tavsiyalari va qabullarini shaxsiy kabinetdan olish imkoniyatlari yaratildi.

Bundan tashqari, viloyat markazida "Bio nur med servis" tibbiyot markazi, "Ekstramed servis" tibbiyot markazi, "Edelveys" xususiy tug'ruqxona, tibbiyot markazi, "Happy mama" diagnostika-davolash markazi, "Perfect diagnostic clinic" tibbiyot markazi, "Smart city medical" klinikasi, "Sogda" tibbiyot markazi, "Star medical" tibbiyot markazi, "Zuhal med" klinikasi, "Med-expert" tibbiyot markazi [9] va boshqalar ham o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi. Bu esa, o'z navbatida, hududda tibbiyotning xususiy sektori rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Xulosa. Mustaqillik yillarida Samarqand viloyatida tibbiyotning xususiy sektorini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar bajarildi. Mazkur tadbirlar mustaqillik yillarida bevosita davolash faoliyati bilan shug'ullanuvchi tibbiyot muassasalarini tashkil etish va aholini dori vositalari bilan ta'minlashdan iborat bo'lgan asosan ikki yo'nalishda amalga oshirildi. Mazkur yillar davomida davolash ishlari bilan shug'ullanuvchi xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan eng ilg'or texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi, davolashning eng yangi usullari joriy etildi. 2016 yildan e'tiboran bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, soha normativ-huquqiy bazasi mustahkamlandi, xususiy tibbiyot muassasalari xizmat ko'rsatishi mumkin bo'lgan tibbiy xizmat turlari kengaytirildi va hok. Bu esa o'z navbatida, sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish ishlarida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Djumanov S. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tibbiyotida xususiy sektor faoliyati tarixi/ Imom Buxoriy saboqlari. 2020 yil 4-son. –B.40.
2. Djumanov S.A. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi (Samarqand viloyati misolida) 5A 120301-O'zbekiston tarixi mutaxassisligi "O'zbekiston tarixi" bo'yicha magistr darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand: – B.85
3. Zamonaviy tibbiy tashxis salomatlikning asosii sharti. Zarafshon gazetasi, 2012 yil, 23 iyun. – B. 4.
4. Lex.uz
5. <https://t.me/s/zarmedportal?after=898>
6. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/17/tax-privilege/>
7. <https://med24.uz/uz/klinika/innova>
8. <https://sam.innova.uz/uz/about>
9. <https://www.goldenpages.uz/uz/rubrics/?Id=107162>



UDK: 338 (575.1)

Alisher OLTIBOYEV,
Perfect University dotsenti, PhD
E-mail:alisheroltiboyev@gmail.com

TDPU professori, t.f.d E.Nuriddinov taqrizi asosida

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON RESPUBLIKALARI O'RTASIDAGI ITTIFOQCHILIKKA ASOSLANGAN IQTISODIY HAMKORLIK

Аннотация

Mazkur tadqiqotda ikki Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning evolyutsiyasi va dinamikasi o'rganilgan bo'lib, savdo aloqalari rivojlanishining asosiy bosqichlari tahlil qilingan. Savdo ko'rsatkichlari, shu jumladan import va eksport hajmi, savdo tarkibi, shuningdek mamlakatlarning tarif va bojxona siyosatidagi o'zgarishlari batafsil tahlil qilingani. Shuningdek, asosiy e'tibor savdo-iqtisodiy aloqalarning o'sishiga yordam beradigan yoki to'sqinlik qiladigan omillarga qaratilgan. Olingan natijalar Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan samarali strategiya va siyosatni belgilash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Hamjamiyat, strategiya, sheriklik, hamkorlik, ittifoqchilik, tovar ayriboshlash, import, eksport, qadriyat, savdo-iqtisodiy aloqalar.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО, ОСНОВАННОЕ НА СОЮЗНИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ МЕЖДУ РЕСПУБЛИКАМИ УЗБЕКИСТАН И КАЗАХСТАН

Аннотация

В данном исследовании изучена эволюция и динамика торгово-экономических отношений между двумя странами Центральной Азии, а также проанализированы основные этапы развития торговых отношений. Подробный анализ торговых показателей, включая объемы импорта и экспорта, состав торговли, а также изменения в тарифной и таможенной политике стран. Также основное внимание уделено факторам, которые помогают или препятствуют росту торгово-экономических отношений. Полученные результаты могут послужить основой для определения эффективной стратегии и политики, направленной на укрепление экономического сотрудничества в Центрально азиатском регионе.

Ключевые слова: Сообщество, стратегия, партнерство, сотрудничество, альянс, торговля, импорт, экспорт, стоимость, торгово-экономические отношения.

ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLICS OF UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN, BASED ON THE ALLIANCE

Annotation

In this research, the evolution and dynamics of trade and economic relations between the two Central Asian countries were studied, and the main stages of the development of trade relations were analyzed. A detailed analysis of trade indicators, including import and export volumes, trade composition, and changes in countries' tariff and customs policies. It also focuses on the factors that help or hinder the growth of trade and economic relations. The obtained results can serve as a basis for determining an effective strategy and policy aimed at strengthening economic cooperation in the Central Asian region.

Key words: Community, strategy, partnership, cooperation, alliance, trade, import, export, value, trade and economic relations.

Kirish. Dunyo hamjamiyatidagi shiddatli o'zgarishlar davlatlar o'rtasidagi ishonchga asoslangan do'stlik, tenglik va hamfikrlilikni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillarini qo'shni mamlakatlar bilan teng huquqli hamkorlik munosabatlari rivojlantirishni muhim ustuvor yo'nalishi sifatida belgiladi. Markaziy Osiyo xalqlarining ahil qo'shnichilik va do'stona munosabatlari, ularning urf-odatlarini, an'analari hamda qadriyatlarini tarixan birligida o'z aksini topgan. Xususan, qo'shni Qozog'iston Respublikasi bilan o'rnatilgan o'zaro munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Zero, "Biz uchun Qozog'iston zamonlar va hayot sinovidan o'tgan, ko'p asrlik do'stlik va qardoshlik rishtalari bilan chambarchas bog'langan yaqin qo'shnimiz..."[1]. Bu borada O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalarining iqtisodiy hamkorligi muhim o'rin tutadi.

Markaziy Osiyo aholisining 70,1 foizi O'zbekiston va Qozog'istonda yashasa, bunda jami YAIMning 76,7 foizi va mintaqa mamlakatlari o'zaro ichki savdosining 77,6 foizi aynan shu ikki davlat hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdo aylanmasida Qozog'iston 2023 yilda 7 foiz ulush bilan uchunchi o'rinni egalladi.

O'zbekistonning MDH davlatlari bilan savdosida 21,4 foiz bilan ikkinchi, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdoda 61,1 foiz ulush bilan birinchi o'rinni egallaydi [4].

O'zbekiston Respublikasining Qozog'iston bilan hamkorligining rivojlanishiga xizmat qiluvchi huquqiy asoslar ikki davlat rahbarlarining muntazamlik kasb etib ulgurgan turli darajadagi o'zaro tashriflarida mustahkamlanib borganligini ta'kidlash o'rinli. Jumladan, 2017 yilning 23 martida "Strategik sheriklikni yanada mustahkamlash" [2] haqida kelishuvga erishganligi o'zaro munosabatlarni yanada rivojlantirishdan ikki tomon birdek manfaatdorligini ko'rsatadi. 2021 yil 5-6 dekabrda Davlat chegarasini demarkatsiya qilish to'g'risidagi shartnoma ikki tomonlama o'zaro hamkorlikning asosiy xalqaro-huquqiy xujjatlari hisoblanadi [4].

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining shakllanishi, jahon mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlik munosabatlari o'rganilgan. Bularga E.Nuriddinov, A.Qirg'izboyev, M.Raximov, L.Babaxodjayeva, R.Alimov, N.Ziyamov, Ch.Ko'charov, Sh.Arifxanov, S.Atadjanova, X.Nizomov, N.G'ofurov, F.Ismatullayev, D.Sayfullayev, O.Abdimo'minov, G'.Mirzayev kabi mualliflarning izlanishlarini

kiritish mumkin. Markaziy Osiyo mintaqasi mavzusi doirasida A.Kazansev, S.Nikolayev, YE.Troitskiy, O.Boyarkina, M.Laumulin, R.Jumali, T.Tokayev, V.Bogatirev, G.Kurbanbayeva, YE.Vyazgina kabi olimlar o'z tadqiqotlarida atroflicha to'xtalib o'tgan. O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari hamkorligiga doir materiallar va ma'lumotlarni o'rganish jarayonida erishilgan natijalar hamda ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ularda xozirgacha ushbu masala alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Metodlar. Maqolada bir qator metodlardan foydalanib tahlil ishlari olib borildi. Xususan, tizimli tahlil metodidan geosiyosiy siljishlar va mintaqaviy integratsiya jarayonlarining ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga ta'sirini o'rganish, mintaqaviy tashkilotlarning roli va ularning savdo rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish masalasida foydalanildi. Siyosiy-iqtisodiy tahlil metodi siyosiy omillarning savdo-iqtisodiy munosabatlarga ta'sirini o'rganish, ikki mamlakatning iqtisodiy dinamikasiga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi siyosiy voqealarni ko'rib chiqish, siyosiy qarorlarning savdo sherikliklari va bitimlarini shakllantirishga ta'sirini tahlil qilish uchun qo'llanildi.

O'zbekiston va Qozog'istondagi iqtisodiy islohotlarni o'rganish, har bir respublika iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning savdo-iqtisodiy munosabatlarga ta'siri tahlili, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish yoki to'sqinlik qilishda iqtisodiy o'zgarishlarning rolini baholash uchun qiyosiy tahlil metodi ishlatildi.

Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyo davlatlari orasida Qozog'iston Respublikasi O'zbekiston uchun savdo-iqtisodiy aloqalarni olib borishda munosib sherik bo'ldi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yilishi va o'zaro manfaatli rivojlanib borishining yangi bosqichi 2017 yil 22-23 mart kunlari O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Qozog'iston Respublikasi hukumati o'rtasida 2017-2019 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik strategiyasi imzolanishi bilan xarakterlanadi [4].

Yangicha qarash va yangicha yondashuv asosida, 2022 yil 21-22 dekabr kunlari Qozog'iston hukumatining O'zbekistonga davlat tashrifi O'zbekiston – Qozog'iston strategik sheriklik va ittifqchilik munosabatlarini yanada chuqurlashtirishda alohida turki bo'ldi. Shu bilan birga ikki mamlakat mintaqalari o'rtasida faoliyatning turli sohalardagi hamkorlikni ta'minlash hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanayotgan aloqalarini faollashtirishga qodir bo'lgan mintaqalararo hamkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va huquqiy asoslarini mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilib quydi.

O'zbek-qozog' savdo-iqtisodiy hamkorligi holatini O'zbekistondagi innovatsion jarayonlar sharoitida o'rganish, tomonlarning o'zaro munosabatlarning ilgari ishlatilmagan yangi shakllari joriy etilganidan yorqin dalolat beradi. Savdo ayirboshlash jarayoniga xususiy korxonalar va fermer xo'jaliklarini jalb qilishdan tashqari, ikki mamlakatning alohida hududlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni joriy etish keng rivojlangan. Ilgari samarasiz bo'lgan zaxiralardan maqsadli foydalanish savdo-iqtisodiy hamkorlikni sezilarli darajada jonlantirishga imkon berdi [3]. Buni aniq raqamli ma'lumotlar asosida baholash mumkin. Agar 2016 yilda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi tovar aylanmasi 1 898,9 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilga kelib bu ko'rsatkich 2055,7 mln. AQSH dollariga yetganligini ko'rish mumkin. Ikki mamlakat hukumatlararo komissiyasining iqtisodiy-savdo sohasidagi strategik sheriklikni mustahkamlash bo'yicha faol faoliyati keyingi yillarda o'z samarasini bera boshladi. Masalan, agar 2018 yilda savdo hajmi 2919,6 mln. AQSH dollarini, 2019 yilda u 3335,0 mln. AQSH dollari tashkil etdi. Biroq, 2020 yil jahonda pandemiya sharoiti tufayli O'zbekistonning xorijiy mamlakatlari bilan o'zaro tovar

ayirboshlash hajmi pasayganligini O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmida ham kuzatish mumkin. 2020 yil ikki mamlakat savdo-iqtisodiy tovar aylanmasi 3 018,5 mln. AQSH dollarini tashkil etgan [6].

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi o'zaro savdo 2023 yil yakunlariga ko'ra, quyidagi yiriklashtirilgan tovar guruhlari bo'yicha amalga oshirilgan:

O'zbekistonning Qozog'istonga eksporti: mashina va transport uskunalari – 645,3 million dollar (umumiy eksport hajmining 47 foizi), sanoat mahsulotlari – 200,5 million dollar (14,6 foiz), oziq-ovqat mahsulotlari – 184 million dollar (13,4 foiz), kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar – 90 million dollar (6,6 foiz), to'qimachilik va kiyim kechak – 82,8 million dollar (6 foiz), shuningdek, xizmatlar – 138,6 million dollar (10,1);

Qozog'istondan O'zbekistonga import: oziq-ovqat mahsulotlari – 1398,3 million dollar (23,6 foiz), energiya tashuvchilar va neft mahsulotlari – 254,45 million dollar (8,4 foiz), kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar – 189,1 million dollar (6,2 foiz), mashina va uskunalari – 103,4 million dollar (3,4 foiz) [4].

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Qozog'istondan jami eksport tarkibida asosiy ulushni (50-60 foiz) xomashyo mahsulotlari (mineral mahsulotlar, rangli va qimmatbaho metallar va boshqalar) egallaydi, ular asosan, uchunchi mamlakatlarga yetkazib beriladi. Shu bilan birga, xomashyo mahsuloti hisoblanmagan tovar turlari, ayniqsa, ikki mamlakatda xaridorgir bo'lgan tayyor mahsulotlar bilan o'zaro savdoni o'stirish bo'yicha katta istiqbol mavjud.

Mazkur ilmiy maqola yuzasidan xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Qozog'iston iqtisodiyoti aholi sonining o'sgani sari ikki mamlakat ichki bozorining umumiy salohiyati ham oshib boradi. Ular o'rtasidagi kooperatsiya aloqalari va o'zaro savdoning kengayishi esa ularning investitsiyaviy jozibadorligini oshirib, ikki davlat iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasida iqtisodiy hamkorlik yo'lga qo'yilganligi va o'zaro tovar aylanmasi savdo hajmi o'sganligi bilan xarakterlanadi. Ikki mamlakat uchun ham xarakterli bo'lgan yangilanish bosqichida davlat rahbarlari darajasidagi keng ko'lami islohotlar o'z samarasini berganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa tovar aylanmasidagi sanoat mahsulotlarining o'sishi mamlakatlar rivojlanishning samarali uslublarini qo'llayotganligini anglatadi [55].

Xulosa. Ikki mamlakatning ham o'ziga xos rivojlanish yo'llari bo'lgani holda tarixiy ildizlar va aholi farovonligi uchun qilinayotgan ishlarning yakkilligi bog'lab turadi. Mintaqada O'zbekiston va Qozog'istonning oziq-ovqat xavfsizligi masalasidagi hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, eksport va importda asosan homashyo mahsulotlarining ko'pligi iqtisodiy jihatdan dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan ancha ortda qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. O'zaro hamkorlikning samarali uslublari orqali homashyo mahsulotlarini mintaqaning o'zida qayta ishlash va tayyor mahsulot shaklida dunyoning boshqa hududlariga eksport qilish hudud rivojlanishi uchun juda ahamiyatli hisoblanadi. Har tomonlama yangilanayotgan ikki mamlakat rahbarlari buning ahamiyatini chuqur anglagan holda ish tutayotganligi tahlillar va olingan ma'lumotlardan anglashiladi. Hozirda Qozog'iston o'zaro savdo-sotiq bo'yicha O'zbekiston uchun uchinchi raqamli hamkor davlat hisoblanadi. Buni yanada oshirish va ikki mamlakat iqtisodiy qudratidan samarali foydalanish mustaqil rivojlanish yo'lini mustahkamlashi, dunyoning yetakchi davlatdarga raqobat qila olishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 355.
2. Народное слово. – 2017 йил – 24 март.
3. Нуриддинов Э.З. Ташқи иқтисодий фаолиятнинг ғоявий асослари. Мустиқил Ўзбекистон тарқиқетининг ғоявий асослари. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.128.

4. О.Ҳакимов Ўзбекистон ва Қозоғистон: иқтисодий ҳамкорлик қўлами ҳам, имкониятлари ҳам катта. Янги Ўзбекистон. 2024 йил 9 апрель.
5. Ўзбекистон – Қозоғистон: азалий дўстлик ва стратегик шерикликка асосланган ҳамкорликнинг янги босқичи. Андижон вилояти ҳокимлиги расмий портали. // <http://andijan.uz>
6. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг жорий архиви (ЎзР ДСҚ ЖА). 2000 – 2020 йиллар давомида Ўзбекистон Республикаси ва Қозоғистон Республикаси ўртасида ташқи савдо айланмаси ҳақида маълумот. 3 – варақ. (Мурожаат этилган сана: 12.03.2021.).



Azizbek RUZIMURODOV,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi
E-mail: azizbek@mail.ru

professor B.Sherov taqrizi asosida

ORGANIZATIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF NON-GOVERNMENTAL AND NON-COMMERCIAL ORGANIZATIONS IN UZBEKISTAN

Annotation

This article examines the organizational and legal frameworks that regulate the formation of non-governmental and non-profit organizations (NGOs and NGOs) in Uzbekistan. It examines the legislative framework, regulatory environment, and practical steps for the establishment of such entities. The study also covered the challenges and opportunities facing NGOs and NGOs in Uzbekistan, taking into account recent legislative changes and government policies aimed at increasing the role of civil society in national development.

Key words: Non-governmental non-profit organizations (NGOs), non-profit organizations (NGOs), Uzbekistan, legal framework, organizational framework, civil society, registration process.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НЕПРАВИТЕЛЬСТВЕННЫХ И НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются организационно-правовые основы, регулирующие создание неправительственных и некоммерческих организаций (НПО и НПО) в Узбекистане. В нем рассматриваются законодательная база, нормативно-правовая база и практические шаги по созданию таких организаций. В исследовании также были освещены проблемы и возможности, с которыми сталкиваются НКО и НПО в Узбекистане, принимая во внимание недавние законодательные изменения и политику правительства, направленную на повышение роли гражданского общества в национальном развитии.

Ключевые слова: Неправительственные некоммерческие организации (НПО), некоммерческие организации (НПО), Узбекистан, правовая база, организационная основа, гражданское общество, процесс регистрации.

O'ZBEKISTONDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKILTOLARI SHAKLLANISHINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekistonda nodavlat va notijorat tashkilotlari (NNT va NNT) shakllanishini tartibga soluvchi tashkiliy-huquqiy asoslar o'rganiladi. Unda qonunchilik bazasi, me'yoriy-huquqiy muhit va bunday sub'ektlarni tashkil etish bo'yicha amaliy qadamlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot, shuningdek, O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari duch keladigan muammolarga va imkoniyatlarga, qonunchilikdagi so'nggi o'zgarishlar va milliy taraqqiyotda fuqarolik jamiyatining rolini oshirishga qaratilgan hukumat siyosatini hisobga olgan holda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), notijorat tashkilotlar (nodavlat notijorat tashkilotlari), o'zbekiston, huquqiy baza, tashkiliy asoslar, fuqarolik jamiyati, ro'yxatdan o'tish jarayoni.

Kirish. Nodavlat va notijorat tashkilotlari (NNT va NNT) fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismlari bo'lib, ijtimoiy muammolarni hal etish, taraqqiyotga ko'maklashish va demokratik jarayonlarni takomillashirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda bu tashkilotlarning shakllanishi va faoliyatiga mamlakatning o'ziga xos huquqiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti ta'sir ko'rsatgan. O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishganidan so'ng, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini yaratish va faoliyat yuritishini qo'llab-quvvatlovchi mustahkam huquqiy bazani yaratish, ularning fuqarolik faolligini oshirish va jamiyat ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyatini e'tirof etish yo'lini boshladi.

Ushbu maqola O'zbekistonda NNT va NNTlarning tashkil etilishiga asos bo'lgan tashkiliy va huquqiy asoslarni o'rganadi. U ushbu tashkilotlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan qonunchilik bazasini, tartibga solish muhitini va protsessual qadamlarni o'rganadi. Bundan tashqari, u nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari duch keladigan muammolar va imkoniyatlarni, xususan, so'nggi qonunchilik islohotlari va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga qaratilgan hukumat siyosati nuqtai nazaridan o'rganadi.

Ushbu tadqiqotning ahamiyati uning O'zbekistonda NNT va nodavlat notijorat tashkilotlarining shakllanishi va faoliyatiga yordam beruvchi tarkibiy va huquqiy mexanizmlar haqida har tomonlama tushuncha berish qobiliyatidadir. Ushbu maqola

erishilgan yutuqlar va yaxshilashga muhtoj bo'lgan sohalarni ta'kidlab, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fuqarolik jamiyati tashkilotlarining rolini oshirish bo'yicha olib borilayotgan muvofiqdorchilik hissa qo'shishni maqsad qilgan.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy asoslari, birinchi navbatda, 1999-yilda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun orqali o'rnatilgan. ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Ushbu huquqiy qoidalarni tushunish O'zbekistondagi NNT va NNTlarning tashkiliy dinamikasini tushunish uchun juda muhimdir.

Bundan tashqari, maqolada ushbu tashkilotlarning faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan tartibga soluvchi muhit, shu jumladan Adliya vazirligi va boshqa tegishli davlat organlarining roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, u nizomni ishlab chiqishdan tortib, ro'yxatdan o'tish jarayonigacha bo'lgan NNT yoki NNTni tashkil etishning amaliy jihatlari ham ko'rib chiqildi.

Maqolada huquqiy va protsessual jihatlarga qo'shimcha ravishda, O'zbekistonda NNT va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kengroq konteksti ko'rib chiqiladi. Bu byurokratik to'siqlar va moliyaviy barqarorlik kabi ular duch keladigan muammolarni tahlil qilishni, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlik va texnologik yutuqlarni taqdim etish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini batafsil ko'rib chiqish orqali ushbu maqola ushbu tashkilotlarning mamlakat taraqqiyotidagi muhim rolini yoritishga qaratilgan. Shuningdek, u O'zbekistondagi fuqarolik jamiyati tashkilotlarining o'sishi va samaradorligini qo'llab-quvvatlash uchun tartibga solish muhitini qanday qilib yanada yaxshilash mumkinligi haqida tushuncha berishga intiladi.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini shakllantirishning huquqiy asoslari, birinchi navbatda, 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun orqali o'rnatilgan. Asosiy qoidalar quyidagilar:

Tashkilotlarning turlari: Qonunda notijorat tashkilotlarning turli shakllari, jumladan, jamoat birlashmalari, fondlar va muassasalar farqlanadi.

Tashkil etish va ro'yxatdan o'tkazish: NNT yoki NNTni tuzish jarayoni nizom loyihisini tayyorlash, ta'xis qo'mitasini shakllantirish va Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tishni o'z ichiga oladi.

Huquq va majburiyatlar: Qonun nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlariga o'z maqsadlariga muvofiq faoliyat yuritish, mulk sotib olish va xayriyalar olish huquqini beradi, shu bilan birga milliy qonunlarga rioya qilish va shaffof moliyaviy hisobotlarni taqdim etish kabi majburiyatlarni ham yuklaydi.

Tashkiliy jarayon

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkiloti yoki nodavlat notijorat tashkilotining shakllanishi bir necha muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Nizom loyihisini tayyorlash: Ta'xischilar tashkilotning maqsadlari, boshqaruv tuzilmasi va operatsion tartib-qoidalarini belgilab beruvchi nizom loyihisini ishlab chiqishi kerak.

Ta'xis qo'mitasi: Ta'xis jarayonini nazorat qilish uchun kamida uch kishidan iborat ta'xis qo'mitasi tuziladi.

Ro'yxatdan o'tish: Tashkilot nizom, ta'xischilar ro'yxati va boshqa zarur hujjatlarni taqdim etish orqali Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tishi kerak. Ro'yxatga olish jarayoni tashkilotning qonuniy talablarga javob berishi va shaffof ishlashini ta'minlaydi.

O'zbekistondagi NNT va nodavlat notijorat tashkilotlari uchun normativ-huquqiy muhitda fuqarolik jamiyati tashkilotlari uchun yanada qulay muhit yaratishga qaratilgan jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Qonunga kiritilgan so'nggi o'zgartishlar ro'yxatga olish tartib-taomillarini soddalashtirdi, byurokratik to'siqlarni kamaytirdi, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlariga katta avtonomiyalar berdi.

Normativ muhit

O'zbekistonda NNT va nodavlat notijorat tashkilotlari uchun me'yoriy-huquqiy muhit ularning o'sishi va jamiyatga qo'shgan hissasini oshirish uchun rivojlangan. Ushbu muhitning asosiy jihatlari quyidagilar kiradi:

Ro'yxatga olishning soddalashtirilgan tartiblari: Qonunga kiritilgan so'nggi o'zgartishlar ro'yxatga olish jarayonini soddalashtirdi, yangi tashkilotlar duch keladigan vaqt va byurokratik to'siqlarni qisqartirdi. Bunga elektron taqdim etish variantlari va hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha aniqroq ko'rsatmalar kiradi.

Davlat nazorati va qo'llab-quvvatlashi: Adliya vazirligi va boshqa davlat organlari nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini nazorat qilishda, ularning qonun talablariga rioya etilishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga, hukumat ushbu tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash siyosatini, masalan, soliq imtiyozlari va salohiyatni oshirish dasturlarini joriy qildi.

Moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik: NNTlar va nodavlat notijorat tashkilotlari shaffof moliyaviy amaliyotni qo'llab-

quvvatlashlari va o'z faoliyati va moliyaviy holati to'g'risida muntazam hisobot taqdim etishlari shart. Bu manfaatdor tomonlar, jumladan, donorlar va keng jamoatchilik o'rtasida mas'uliyat va ishonchni kuchaytiradi.

Jamoatchilik ishtiroki va advokati: huquqiy baza NNT va nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat siyosatini muhokama qilishda ishtirok etishga va o'z vazifalariga taalluqli masalalarni himoya qilishga undaydi. Bu boshqaruv va rivojlanishga yanada inklyuziv va ishtirokchi yondashuvni kuchaytiradi.

Qonunchilik bazasi: O'zbekistonda NNT va nodavlat notijorat tashkilotlarini shakllantirish va faoliyat yuritish uchun mustahkam poydevor yaratilsa-da, bir qator muammolar saqlanib qolmoqda:

Byurokratik to'siqlar: soddalashtirilgan tartiblarga qaramay, ba'zi tashkilotlar ro'yxatga olish va faoliyat bosqichlarida byurokratik qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Moliyaviy barqarorlik: Izchil moliyalashtirishni ta'minlash katta muammo bo'lib, ko'plab tashkilotlar xayriya va grantlarga tayanadi.

Potensialni oshirish: Ta'lim va rivojlanish resurslariga cheklangan kirish NNT va NNTlarning samaradorligi va barqarorligiga to'sinlik qilishi mumkin.

Biroq, muhim imkoniyatlar ham mavjud:

Hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlashning kuchayishi: Hukumatning fuqarolik jamiyati tashkilotlarining rolini tan olishi ularning o'sishi uchun qulay muhit yaratadi.

Xalqaro hamkorlik: Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining imkoniyatlarini oshirib, moliyalashtirish, tajriba va ilg'or tajribalardan foydalanish imkonini beradi.

Texnologik yutuqlar: Raqamli vositalarni qabul qilish operatsion samaradorlikni, tushuntirish ishlarini va shaffoflikni oshirishi mumkin.

Xulosa. O'zbekistonda nodavlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini (NNT va NNT) tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari keng qamrovli huquqiy baza asosida mustahkam yo'lga qo'yilgan. "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun qonun hujjatlariga keyingi o'zgartishlar bilan bir qatorda ushbu tashkilotlarni tashkil etish, ro'yxatdan o'tkazish va faoliyat yuritishning aniq tuzilmasini belgilab berdi. Ushbu huquqiy asos nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining samarali, shaffof va o'z vazifalariga muvofiq faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Biroq, O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining rolini oshirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan muhim imkoniyatlar ham mavjud. Hukumatning fuqarolik jamiyatini e'tirof etishi va qo'llab-quvvatlashi, jumladan, ro'yxatga olishning soddalashtirilgan tartib-qoidalarini va moddiy rag'batlantirish ushbu tashkilotlarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik moliyalashtirish, ekspertiza va ilg'or tajribalar uchun qimmatli imkoniyatlarni taqdim etadi, texnologik yutuqlar esa operatsion samaradorlikni oshirish va targ'ibot ishlarini yaxshilash imkonini beradi.

O'zbekistonda NNT va NNT salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun maqsadli siyosat va tashabbuslar orqali mavjud muammolarni hal qilish muhim. Moliyaviy barqarorlikni oshirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va salohiyatni oshirish uchun kengroq resurslar bilan ta'minlash bu yo'nalishdagi muhim qadamlardir. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlarda shaffoflik va hisobdorlik madaniyatini rivojlantirish manfaatdor tomonlar, jumladan, donorlar va keng jamoatchilik o'rtasida ishonch va ishonchni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistondagi NNT va NNTlarning tashkiliy-huquqiy asoslari ularning shakllanishi va faoliyat yuritishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish. Narimanov B.A. DSC avtoreferat. Toshkent-2023. 58 bet.
2. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/amendments-to-the-law-on-ngos>
3. <https://advice.uz/oz/document/2730>

4. <https://huquqiportal.uz/document/2731?id=624>



UDK:97(575.1-25)

Sayyodjon SALIMOV,
NavDPI tayanch doktranti
E-mail: sayyodjon1993@gmail.ru

PhD F.Fayziyeva taqrizi ostida

**MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TARIXIDAGI ILK PARLAMENT SAYLOVI JARAYONI VA TAHLILLAR
(1994-YILGI OLIY MAJLISGA SAYLOV MISOLIDA)**

Аннотация

Ushbu maqolada muallif tomonidan 1994-yil 25-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sayloviga bevosita tayyorgarlik ko‘rish va uni tashkil etish, saylov jarayonlarining borishi, shuningdek, saylov natijalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Parlament, referendum, Oliy Majlis, demokratiya, okrug, uchastka, kuzatuvchi, fuqaro, erkinlik, byulleten.

**ПРОЦЕСС И АНАЛИЗ ПЕРВЫХ В ИСТОРИИ НЕЗАВИСИМОЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПАРЛАМЕНТСКИХ
ВЫБОРОВ (НА ПРИМЕРЕ ВЫБОРОВ В ОЛИЙ МАЖЛИС 1994 Г.)**

Аннотация

В данной статье автор проанализировал непосредственную подготовку и организацию выборов в Олий Мажлис Республики Узбекистан, состоявшихся 25 декабря 1994 года, ход избирательного процесса, а также результаты выборов.

Ключевые слова: Парламент, референдум, Олий Мажлис, демократия, округ, избирательный участок, наблюдатель, гражданин, свобода, бюллетень.

**THE FIRST PARLIAMENTARY ELECTION PROCESS AND ANALYSIS IN THE HISTORY OF THE INDEPENDENT
REPUBLIC OF UZBEKISTAN (IN THE EXAMPLE OF THE 1994 ELECTION TO THE HOUSE OF COMMONS)**

Annotation

In this article, the author analyzed the direct preparation and organization of the election of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan held on December 25, 1994, the course of the election process, as well as the election results.

Key words: Parliament, referendum, Oliy Majlis, democracy, district, precinct, observer, citizen, freedom, bulletin.

Kirish. Demokratik huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri shubhasiz mamlakatda adolatli saylov tizimini yo‘lga qo‘ya bilishidir. Sababi fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini va fuqaroviy pozitsiyalarini aynan saylovlar orqali bildirib olishadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi”da quyidagi tamoyil belgilab o‘tilgan. “Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o‘z mamlakati boshqaruv ishida qatnashish huquqiga egadir. Xalq irodasi hukumatning hokimiyati asosi bo‘lishi kerak: bu iroda yopiq ovoz berish yoki ovoz berishni erkinligini ta‘minlovchi boshqa shunga teng ahamiyatli ko‘rinishlardagi umumiy va teng saylov huquqi asosida ifodalanishi kerak”[1]. Saylov muhim demokratik tamoyil hisoblanib, uni to‘g‘ri tashkil etish bevosita mamlakatda huquqiy madaniyatning yuksak darajada yetganligini ifodalab beradi. Saylov xususida birinchi prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlarida ham bu fikrlar o‘z aksini topgan. “Hayotimizda demokratik tamoyillar chuqur ildiz otishini istar ekanmiz, demokratiyaning bosh tamoyili bo‘lmish erkin saylovlar masalasiga alohida e‘tibor qaratishimiz lozim”[2].

Parlament saylovi masalasi har makonda va har zamonda eng muhim yirik siyosiy tadbir bo‘lib kelgan. Sababi aynan ushbu jarayonlar yakuni bo‘yicha mamlakatning asosiy qonun chiqaruvchi hokimiyati bo‘lmish – parlament shakllanadi, parlament esa davlatning keyingi taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy siyosiy institutdir. Bu haqda Prezidentimiz-Shavkat Mirziyoyev ham quyidagi fikrni bildirib o‘tgan. “Demokratiya qayerdan boshlanadi-parlamentdan boshlanadi. Parlament-demokratiya maktabi deymiz”[3].

1994-yil 25-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan navbatdagi parlament saylovi O‘zbekiston tarixi uchun muhim qadam bo‘ldi. Zero mustaqillikka erishib demokratik yo‘ldan borayotgan davlatimiz uchun ushbu parlament saylovini yaxshi darajada o‘tkazib olish muhim edi. Ushbu parlament saylovi ham xalqaro

huquq normalaridan kelib chiqqan holda belgilangan qoidalar asosida bo‘lib o‘tdi. Hamma joylarda deputatlikka nomzodlar bilan uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi. “Barcha saylov uchastkalarida saylovchilar ro‘yxatini tuzish ishi tugallandi. Saylovchilarning umumiy soni 11120219 kishidan iborat. Ro‘yxatlar barcha tanishib chiqishi uchun hamma joyda osib qo‘yilgan”[4].

Markaziy Saylov komissiyasi tomonidan har bir saylov uchastkasining modiy-texnik bazasiga alohida e‘tibor berildi. E‘tiborga molik jihati saylovga tayyorgarlik doirasida doimiy ravishda xalqaro aloqalar ham olib borildi. Xususan 14-dekabr kuni O‘zbekiston Markaziy saylov komissiyasining shu vaqtdagi raisi Qudratilla Ahmedov saylov tizimlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro jamg‘arma vakili Daniel Blessington bilan uchrashdi. Daniel Blessington saylov tizimlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro jamg‘armaning ko‘p yillik tajribasi mustaqil O‘zbekistonning ilk parlament saylovida qo‘l kelishi hamda bu borada hamkorlik qilishga tayyorligini bildirdi”[5]. Bunday xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yishdan asosiy maqsad bevosita xalqaro tajriba amaliyotini yurtimizda yo‘lga qo‘yish va parlament sayloviga o‘xshagan yirik siyosiy voqelikni jahon standartlariga mos ravishda o‘tkazishdir.

Yurtimizda 1994-yil 25-dekabr kuni bo‘lib o‘tan parlament saylovi o‘zining tarixiyli bilan 1990-yilgi O‘zbekistonSSR Oliy Kengashiga bo‘lib saylovdan ajralib turgan. Sababi 1994-yilgi parlament saylovi bu professional parlamentni shakllantirish maqsadida o‘tgan saylov edi. Qolaversa bu parlament saylovida saylovlar ilk marta ko‘ppartiyaviylik asosida bo‘lib o‘tadi. Bu holat parlament sayloviga tayyorgarlik jarayonida ham o‘z aksini topadi. “Mustaqil Respublikamiz tarixida birinchi marotaba ko‘ppartiyaviylik, demokratik asosda bo‘layotgan saylovlarga tayyorgarlik ko‘p jihatdan ilgarigilardan farq qiladi. Masalan, bugungi saylov komissiyalari a‘zolarining tarkibi partiyasiz fuqarolardan tashkil topgan”[6].

Ko‘rib turganimizdek ushbu saylov jarayonida saylov uchastkalari, okrug komissiyalari a‘zolari hech bir siyosiy

partiyaga a'zo bo'lmagan fuqarolardan tuzilgan edi. Bu holat saylovning qonuniy va adolatli o'tishiga imkon bergan edi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Qonunda belgilangan tartibda okrug va uchastka komissiyalarini shakllantirdi. "Saylovga tayyorgarlik va uni o'tkazish uchun 250 ta okrug va 7202 ta uchastka saylov komissiyalari tuziladi"[7].

Bevosita 1994-yil 25-dekabr kuni bo'lib o'tgan saylovlarning tartibiga to'xtalib o'tsak. Bunda birinchi navbatda e'tibor beriladigan jihat saylovlarning boshlanish va tugash vaqti hisoblanadi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda xalq deputatlari viloyat, tuman va Shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar uchun ovoz berish 1994-yil 25-dekabr kuni ertalab soat 7:00 dan boshlab kech soat 20:00 gacha davom etadi [8]. Bunda saylov uchun ajratilgan umumiy soat o'n uch soatni tashkil etmoqda. Saylovni vaqtini belgilashda saylovchilarga qulaylik yaratish e'tiborga olingan va ana shu vaqt belgilangan.

1990-yil bo'lib o'tgan parlament saylovi bilan solishtirilgan bo'lsak farq kuzatilmaydi. "Saylov to'g'risidagi qonunga muvofiq ovoz berish saylov kuni mahalliy vaqt bilan ertalab soat 7 dan 20 gacha qadar davom etadi"[9].

Saylovlarda vaqt me'yorlari xalqaro huquq normalaridan kelib chiqqan holda belgilangan. Shuningdek saylovlar qish faslida bo'lib o'tgani bois boshlanish vaqti ham aynan ertalab 7:00 etib belgilangan. Bevosita ovoz berish jarayoniga to'xtaladigan bo'lsak bunda ham "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning talablariga rioya qilinganligini ko'rish mumkin. "Saylovchi ovoz berish binosiga kelgach, uchastka saylov komissiyasining a'zosiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatadi va saylovchilar ro'yxatiga imzo qo'yadi. Shundan keyin unga saylov byulliteni beriladi"[10].

Saylov jarayonida saylovchilarning shaxsni tasdiqlovchi hujjat bilan ishtirok etishi muhim norma hisoblanadi. Sababi ma'lumki har bir saylovchi bir ovozga ega. Ana shu holatni aynan saylovchi saylov byullitenini olish jarayonida shaxsni tasdiqlovchi hujjat orqali amalga oshirib takroriy ovoz berish oldi olinadi. "Saylov byullitenini to'ldirish vaqtida ovoz beruvchidan boshqa shaxslarning ovoz berish kabinasi yoki xonasida hozir bo'lishi ta'qiqlanadi. Saylov byullitenini mustaqil ravishda to'ldirish imkoniga ega bo'lmagan saylovchi o'z xohishiga ko'ra saylov komissiyasi tarkibiga kirmagan shaxsni kabinetga yoki xonaga taklif qilishga haqlidir"[11].

Saylov qoida va nizomlariga binoan ovoz berish jarayoni yashirin, boshqa shaxslarning har qanday nazoratidan xoli holda amalga oshirilishi belgilangan. Ana shu jarayon ham bevosita 1994-yil 25-dekabrda bo'lib o'tgan saylov jarayonlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, e'tibor qilishimiz lozim bo'lgan narsa saylovchining saylov byullitenini to'ldirish jarayonini maxsus ovoz berish kabinasi yoki xonasida amalga oshirish belgilangan. Bunda ovoz berish kabinasi deyilganda- saylov uchastkalarida o'rnatilgan maxsus jihozlangan joy nazarda tutilmoqda. Ovoz berish xonasi deyilganda- esa ma'lum sabablarga ko'ra ovoz berishda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchilar uchun (nogironligi bo'lgan yoki yoshi katta saylovchilar nazarda tutilmoqda) turgan joyda ovoz berish tashkil etiladi va bu holat bevosita saylovchining uyida tashkil etilishi mumkin. Shuning uchun ham saylov xonasi degan tushuncha mazkur saylov jarayonlariga kiritilgan. Biroq turgan joyda ovoz berishda ham qonun talablariga qat'iy rioya qilingan holda saylovning yashirin bo'lishi tegishli saylov uchastkasi a'zosi tomonidan ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Saylovchi byullitenda o'z nomzodini belgilashda ham alohida tartib ko'zda tutilganligini ta'kidlab o'tish lozim. "Saylovchi o'zi qarshi ovoz berayotgan nomzodlarning saylov byullitenidagi familiyalarini o'chiradi. Ovoz berish chog'ida bittadan ortiq nomzodning familiyasi o'chirilmay qoldirilgan byullitenlar haqiqiy emas deb topiladi"[12].

Mazkur normani izohlaydigan bo'lsak, 1994-yilgi saylov jarayonlarida saylovchi qarshi ovoz berayotgan nomzodning familiyasi ustini o'chirishi lozimligi ta'kidlangan. Agar saylovchi kamida ikkita nomzodning familiyasini o'chirmasa byulliten haqiqiy emas deb topilishi mumkin bo'lgan. Saylov jarayonlarining takomillashuvi natijasida ushbu norma keyinchalik qayta ko'rib chiqilgan va bugungi kunga kelib ushbu holatning

aksini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni saylovchi eng oxirgi qonun normalariga asosan o'zi ovoz bermoqchi bo'lgan nomzodning familiyasi belgilaydi va qolgan nomzodlar hech qanday belgi qo'ymaydi. "Saylovda saylovchi o'zi yoqlab ovoz berayotgan deputatlikka nomzodning familiyasi ro'parasida, o'ng tomonda joylashgan bo'sh kvadratga belgi-krestik qo'yadi"[13].

Aytib o'tganimizdek ushbu parlament saylovi Respublika parlamentarizm tarixi uchun, demokratiyaning eng muhim belgilaridan biri bo'lgan saylov tizimining shakllanishi uchun ham muhim qadam bo'lgan edi. Sababi 1994-yil 25-dekabr kuni mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor ko'ppartiyaviylik asosida parlament saylovi bo'lib o'tgan edi. Albatta bu jarayon kamchiliklardan xoli bo'lmadi. Masalan aksariyat saylov okruglarida nomzodlar ikki yoki uch kishini tashkil etdi va saylovning asosiy talabi bajarildi. Lekin ba'zi saylov okruglarida bunga erishish imkonini bo'lmadi va bir nafar nomzod bilan saylov tashkil etildi. "Saylov to'g'risidagi Qonunning 20-moddasiga muvofiq Oliy Majlisidagi 250 o'ringa siyosiy partiyalardan va hokimiyat vakillik organlari tomonidan 634 nafar, shu jumladan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 243 nafar, "Vatan taraqqiyoti" partiyasidan 141 nafar va hokimiyat vakillik organlaridan 250 nafar nomzod ko'rsatildi va ular Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olindi. Bunda 139 ta saylov okrugida uch nafardan, 106 ta saylov okrugida ikki nafardan va 5 ta saylov okrugida bittadan kishining nomzodi deputatlikka qo'yildi"[14].

Tahlillar. Ko'rib turganimizdek Oliy Majlisga 250 deputatlik o'rniga jami 1268 nafar nomzodni Markaziy Saylov komissiyasi ro'yxatga olgan va ushbu nomzodlar muqobilik asosida saylovda ishtirok etgan. Bu holat saylov tarixi uchun muhim ahamiyat kasb etib o'zining tarixiyligi bilan esda qoldi.

Ushbu katta siyosiy voqeikka fuqarolarimizning munosib ishtirok etganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Buning uchun televideniya va ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlari olib borildi. O'z taqdirini vatan tadqiri bilan bog'lagan har bir vatandosh shu kuni o'z saylov uchastkasi tomon shoshdi. Buni quyidagi raqamlar orqali ham ko'rishimiz mumkin. "Saylovchilar ro'yxatiga 11 million 248 ming 464 kishi kiritilib shulardan 10 million 592 ming 896 kishi yoki saylovchilar umumiy sonining 93,6 foizi, shu jumladan: Toshkent shahrida -86,2 %, Andijon viloyatida -96 %, Buxoro viloyatida - 94,6 %, Jizzax viloyatida - 95,2 %, Navoiy viloyatida -86,9 %, Namangan viloyatida -97,2 %, Samarqand viloyatida -93,8 %, Sirdaryo viloyatida - 95%, Surxondaryo viloyatida -94,4 %, Toshkent viloyatida -89,5 %, Farg'ona viloyatida -94,9 %, Xorazm viloyatida -96,9 %, Qashqadaryo viloyatida -96,9 %, Qoraqalpog'iston Respublikasida 96 foizi ovoz berishda ishtirok etdi"[15]. Fuqarolarimiz vatan taqdiriga befarq bo'lmagan holda saylovda ishtirok etganligini ko'rib turibmiz. Bunga har bir saylov uchastkasida saylovchilarga barcha sharoitlar yaratilganligi ham rol o'ynadi. Xususan saylov uchastkalarida bozor rastalari tashkil qilingan edi. Saylovga kelgan saylovchilar o'zining maishiy yumushlarini ham bajarib ketishgan edi. Bu tadbirlar odamlarning saylovda qatnashishi uchun o'ziga xos targ'ibot vazifasini o'tab berdi. Barcha qilingan ishlar besamar ketmadi fuqarolarimizning deyarli barchasi ushbu saylovda ishtirok etdi.

Bo'lib o'tgan saylov natijalariga to'xtaladigan bo'lsak saylovchilar o'zlari munosib ko'rgan nomzodlarga ovoz berishdi. Jami 250 deputatlik o'rnidan 205 nafari saylandi qolgan ayrim okruglarda esa takroriy ovoz berish o'tkazilishi belgilandi. Xususan uchtadan nomzod qatnashgan va birortasi ham saylanmagan 39 saylov okrugida saylov haqidagi qonunning 43-moddasiga muvofiq, qaytadan ovoz berish, ikkita nomzod qatnashib birortasi ham saylovchilarning ovozini ko'p olmagan oltita okrugda esa qayta saylov o'tkazilishi belgilandi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati etib 205 nafar kishi, shu jumladan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan - 54 nafar, "Vatan taraqqiyoti" partiyasidan - 6 va hokimiyat vakillik organlaridan - 145 nafar nomzod saylandi. Bunda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzodlar saylovda ishtirok etgan O'zbekiston Respublikasi jami

saylovchilarining 30,6 %, “Vatan taraqqiyoti” partiyasidan ko'rsatilgan nomzodlar esa 9,8 %, ovoz oldilar” [16].

O'zbekiston ko'pmillatli davlat sifatida e'tirof etiladi. Barchaga ma'lumki bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat tinch va totuv yashab kelmoqda. Ushbu millatlarning tillari, urf-odatlar va an'analar hurmat qilinishi davlatimiz bosh qomusi orqali mustahkamlab qo'yilgan. Shuning uchun ham turli millat vakillari doimiy ravishda yagona O'zbekiston ravnaqi uchun yakdil qadam tashlab barcha sohalarida beminnat mehnat qilib kelmoqdalar. Buni biz 1994-yil 25-dekabr kuni bo'lib o'tgan parlament saylovlarida ham isbotini ko'rishimiz mumkin.”O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov joylarda saylov to'g'risidagi Qonun talablariga to'liq muvofiq holda, fuqarolarning yuksak faolligida o'tdi. Respublika Oliy organiga saylanganlar orasida 12 millat vakillari bor”[17].

Yurtimizda bo'layotgan siyosiy jarayonlar doimiy ravishda jahon jamoatchiligi e'tiborini tortib keladi. O'zbekiston mustaqilikka erishganidan so'ng davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan ochiq va oshkora siyosat olib borildi. Dunyoning nufuzli tashkilotlari bilan mustahkam aloqalar

o'rnatildi. Shuning uchun ham 1994-yilgi parlament saylovlarini kuzatish maqsadida dunyoning juda ko'p mamlakatlaridan kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari vakillari tashrif buyurishdi. Mutaxassislar katta siyosiy voqelikni o'z ko'zlari bilan kuzatib doimiy ravishda yortib boishdi. “Saylov kuni saylov uchastkalarida ovoz berish va ovozlarni hisoblash paytida 30 ga yaqin mamlakat, xalqaro tashkilot va harakatlardan 68 kuzatuvchi hamda “Reyter” va “Interfaks” agentliklari, “Bi-Bi-Si” radiokorporatsiyasi, “Ostankino” telekompaniyasi, “Liberason” va “Noyes tsyurxer tysantung” gazetalarini singari xorijiy ommaviy axborot vositalarining 10 nafar vakili bo'ldi. Ularning barchasi saylov jarayoni yuksak darajada tashkil qilingani qayd etib, saylov qonun talablariga muvofiq ravishda o'tganini tasdiqlashdi”[18].

Xulosa. 1994-yil 25-dekabr kuni bo'lib o'tgan ushbu Oliy Majlisga saylov mamlakatimiz parlamentarizmi shakllanishi uchun yana bir qadam bo'ldi. O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan bosqichma-bosqich, izchillik bilan bormoqda. Ushbu saylov natijasi bilan tashkil topgan parlament esa xalqimiz farovonligi uchun muhim qonunlarni ishlab chiqishda ishtirok etganligiga tarix guvoh.

ADABIYOTLAR

1. “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi” 21-modda 1948-yil 10-dekabr \ Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. Toshkent Adolat. 2004 34-bet
2. Karimov.I.A “Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz” T.7-T; O'zbekiston, 1999.-B.310.
3. Mirziyoyev.Sh.M “Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz”1-jild-T; O'zbekiston, 2017-B.552.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Saylov o'tkazuvchi Markaziy Saylov Komissiyasida // Xalq so'zi, 1994-y 16-dekabr №245 (993) B.1
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Saylov o'tkazuvchi Markaziy Saylov Komissiyasida // Xalq so'zi, 1994-y 16-dekabr №245 (993) B.1
6. Uyushqoqlik bilan o'tishiga ishonaman Rayimjon Abdurahmonov // Xalq so'zi, 1994-y 23-dekabr №250 (998) B.2
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi joriy arxivi I-fond,1-ro'yxat,56-yig'ma jild,20-varoq;
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda xalq deputatlari viloyat,tuman va Shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar uchun ovoz berish tartibi// Xalq so'zi, 1994-y 23-dekabr №250 (998) B.1
9. R.Rahmonov. Ovoz berish tartibi to'g'risida // Sovet O'zbekistoni, 1990-yil 14-fevral №38 (20.605)- B.4
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda xalq deputatlari viloyat,tuman va Shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar uchun ovoz berish tartibi// Xalq so'zi, 1994-y 23-dekabr №250 (998) B.1
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda xalq deputatlari viloyat,tuman va Shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar uchun ovoz berish tartibi// Xalq so'zi, 1994-y 23-dekabr №250 (998) B.1
12. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda xalq deputatlari viloyat,tuman va Shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar uchun ovoz berish tartibi// Xalq so'zi, 1994-y 23-dekabr №250 (998) B.1
13. 13.“O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi Qonunlari” T; Adolat,2014.-B.69.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi joriy arxivi I-fond,1-ro'yxat,56-yig'ma jild,20-varoq;
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi joriy arxivi I-fond,1-ro'yxat,56-yig'ma jild,20-varoq;
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi joriy arxivi I-fond,1-ro'yxat,56-yig'ma jild,20-21-varoqlar;
17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi joriy arxivi I-fond,1-ro'yxat,56-yig'ma jild,21-varoq;
18. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Saylov o'tkazuvchi Markaziy Saylov Komissiyasida // Xalq so'zi, 1994-y 30-dekabr №254 (1002) B.1



O'DK: 950:321.8(021)

Dilnoza O'ROQOVA,

Qarshi davlat universiteti talabasi

QarMII professori Y. Ergasheva taqrizi asosida

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QASHQADARYO VOHASI SUV YO'LLARI QURILISHI TARIXI

Annotatsiya

O'zbekistonning geografik jihatdan yirik hududi hisoblangan Qashqadaryo vohasining suv yo'llari bilan ta'minlanishi borasida amalga oshirilgan o'zgarishlar tadqiq qilingan. Vohada mavjud bo'lgan suv inshootlari tarixiga to'xtalib o'tilgan. Sovet davrida hududda paxta yakkahokimligiga erishish maqsadida bajarilgan keng ko'lamdagi siyosat tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Kanal, suv yo'li, rus irrigatori, Nasaf, ariq, qo'riq yer, muhandis, Qarshi cho'li.

HISTORY OF CONSTRUCTION OF WATERWAYS IN THE KASHKADARYA OASIS IN THE SECOND HALF OF THE XX CENTURY

Annotation

The changes that have occurred in the water supply of the Kashkadarya oasis, which is a geographically vast region of Uzbekistan, have been studied. The history of the existing water structures of the oasis is discussed. The large-scale policies pursued during the Soviet period with the aim of achieving a cotton monopoly in the region are analyzed.

Key words: Canal, waterway, Russian irrigator, Nasaf, ditch, reserved land, engineer, Karshi desert.

ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА ВОДНЫХ ПУТЕЙ В КАШКАДАРЬНСКОМ ОАЗИСЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА

Изучены изменения, произошедшие в водоснабжении Кашкадарьнского оазиса, который является географически обширным регионом Узбекистана. Обсуждается история существовавших водных сооружений оазиса. Анализируется широкомасштабная политика, проводившаяся в советский период с целью достижения хлопковой монополии в регионе

Ключевые слова: Канал, водный путь, российский irrigator, Насаф, ров, заповедная земля, инженер, пустыня Карши.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqimizning o'z vatani tarixini o'rganishga bo'lgan intilishi ortdi. Xolisona tadqiqotlar ilmiy nashrlardan chiqq boshladi. Shu bilan birga har qaysi sohada o'z kasbining fidoiylari tomonidan tarixiy voqealarni aks ettirgan nashrlar kelajak avlodga shu soha haqida ma'lumotlarni haqqoniy tanishish imkoniyatini bermoqda. Mazkur davr tarixini tahliliy o'rganish va ilmiylik, xolislik, tarixiylik nuqtai nazaridan yoritgan manbalarga ehtiyoj ortdi. Prezident Sh. Mirziyoyev: "Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak"[1] – deya ta'kidlaganlari biz tadqiqotchilarga ulkan mas'uliyatni yuklaydi.

O'zbekiston tarixining tarkibiy, ajralmas qismi hisoblangan Qashqadaryo vohasi hudud jihatdan katta maydonni egallagan bo'lib, O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarda voha tarixi chambarchas bog'liqdir. Qashqadaryo vohasi hududi shimoldan janubga, sharqdan g'arbga o'tish yo'lagida joylashganligi nuqtai nazaridan qaralganda ham muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga voha iqlimining o'ziga xosligi, o'lkada dehqonchilik qilish uchun qulay geografik muhitga ega hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada O'zbekistonning janubiy hududida joylashgan Qashqadaryo vohasining XX asrning ikkinchi yarmida suv bilan ta'minlanishi borasidagi amalga oshirilgan suv yo'llari qurilishi tarixiy tahlil, og'zaki so'rov, qiyoslash, tizimli tahlil, mantiqiy ketma-ketlik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. SSSRning markaziy hokimiyati tomonidan Sovet davlatining O'zbekistondagi agrar siyosati, xususan bu siyosatning Qashqadaryo vohasidagi ijrosining ta'minlanishi hamda irrigatsiya ishlari tarixining ilmiy tahlilini yoritish jarayonida vohaning suv bilan ta'minlanish tarixiga to'xtalib o'tishni joiz bildik.

Qarshi cho'lini o'zlashtirish va sug'orishga qadimdan qiziqish kuchli bo'lgan. Arxeologlar tomonidan olib borilgan

izlanishlar qadim Naxshab va Kesh sug'oriladigan yerlari orasida qariyb 100 km dan ortiq cho'l mavjud bo'lib, bu hududlar sug'orilib, ekinlar ekilganligini ko'rsatadi. Rus tadqiqotchisi G.A. Arandarenko qadimda Qarshi cho'llarini sug'orish uchun Zarafshon daryosi suvidan foydalanilganligini ta'kidlagan. Arxeologlar A.I.Trevojkina va L.I. Albaumlar bu jarayon taxminan miloddan avvalgi birinchi ming yillikdan boshlanib, XIII asrga qadar davom etganligini aniqlashdi. Mo'g'ullar istilosidan so'ng cho'lga keladigan suv yo'llari buzib tashlangan va uzoq yillar Zarafshon suvi Qashqadaryoga quyilishi to'xtab qolgan. Faqat Amir Temur (1336-1405) davrida vohaga suv chiqarilgan. XVI asr tarix qo'lyozmalari asosida mutaxassislar Qarshi cho'lini sug'oruvchi bu kanal 1533 yilda qurilganligi va qariyb 90 yil 1623 yilgacha mavjud bo'lganligini aniqlaganlar. Bu magistral kanal qurilishi Shayboniyxon vafotidan so'ng uning vorisi Ko'chukchixon (1510-1530) davrida boshlanib, uning o'g'li Buxoro xoni Abusaidxon (1530-1533) boshqaruvi yillarida tamomlangan. Undan Ubaydullaxon (1533-1539) hukmronligidan foydalanila boshlagan[2].

Amudaryo suvidan foydalangan holda Qarshi cho'llarini o'zlashtirish masalasiga keyingi davrlarda ham qiziqish bildirilgan. Rus sharqshunosi V.V. Bartold Abdullaxon (1534-1598) hukmronligi davrida Kelif atrofiga Qorakamarda, Amudaryodan Nasaf (Qarshi) hududini sug'orish uchun kanal chiqarilganligi haqidagi hikoyani keltiradi. Abdullaxon aholini yangi sug'oriladigan yerlarga ko'chirtirib, besh yil davomida soliqlardan ozod qiladi. Natijada bu joylar tezda gullab yashnaydi. XVII asr boshlarida Nasaf(Qarshi) aholisining Boqi Muhammadxonga(1601-1605) qarshi ko'targan qo'zg'oloniga javoban kanallar yopib qo'yiladi. Shu davrdan hududda yana suvga tashnalik ortgan. Ashtarxoniy hukmdorlarning aksariyatining boshqaruv davrida sun'iy sug'orish tarmoqlari kengaytirilmagan, mavjudlari ham ishdan chiqqan[3]. Imomqulixon (1611-1642) davriga kelganda Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal chiqarilgan. XVIII asr mang'itlar hukmronligining dastlabki yillarida vohani sug'orishga oid dalillar

keltirilmagan bo'lsa-da, keyinchalik Amir Haydar(1800-1826) kanalni tiklamochi bo'lganligi borasidagi fikr Bartold asarida aytib o'tilgan. Ammo vazirlar amirga Nasaf aholisi yana bosh ko'tarishi mumkinligi haqida ogohlantirib kanalni tiklash fikridan qaytargan. Shu bilan kanal tiklanmay qolib ketgan[4]. Bu kabi dalillar tarixiy asosga ega emas, biroq Qarshi cho'llarini Amudaryo suvi bilan sug'orish g'oyasi keyingi o'rta asrlar davrida ham mavjud bo'lganligiga ishora beradi.

XIX asrda mintaqa aholisi sonining oshishi va dehqonchilik taraqqiyoti Buxoro vohasini yerlarini sug'orish uchun Zarafshon daryosining suvi yetishmasligini ko'rsatdi. Yozuvchi va tarixchi Ahmad Donish (1827-1897) bu muammoni hal qilishning yagona yo'li Amudaryodan kanal chiqarib, uning suvini Qarshi cho'li hududiga keltirishda deb hisoblagan. Kanal chiqarish borasidagi o'z mulohazalarini amirga taklif etgan, katta mablag' talab qilinishi bois bu taklif amir tomonidan rad qilingan[5].

O'sha vaqtlarda quyi Zarafshon va Qashqadaryo etaklariga Amudaryodan suv chiqarish g'oyasi rus irrigatorlarining ham diqqatini o'ziga tortdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan Amudaryo oqimini cho'lga burish haqida qiziqarli takliflar o'rta tashlanadi. Y.A.Rextazamer, N.P. Petrov, M.N. Yermolayev, G.A. Dimo, V.V. Senzerlin, L.P. Lessar kabi muhandis-agronomlar cho'lga suv chiqarish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi. Xususan muhandis Lessar XIX asrning 80 yillarida Qarshi cho'lini o'zlashtirish uchun Amudaryodan suv chiqarish taklifini ishlab chiqdi. Temir yo'l muhandisi M.N. Annenkov Quyi Zarafshonga Amudaryodan suv chiqarish imkoniyatini aniqlash ishlarini olib borgan. Uning fikriga ko'ra, Amudaryodan suv olinishi Zarafshonning ortgan suvini Qashqadaryo sohili yerlarini sug'orish mumkin bo'ladi. Keyinchalik 1896 yilda savdogar Y. A. Rextzamer Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligiga Amudaryodan kanal chiqarishga ruxsat berilishini so'ragan. Y. A. Rextzamerning loyihasi bo'yicha Amudaryodan chiqariladigan kanal Kalifdan boshlanib, Qarshi cho'li orqali Buxorogacha 300 km bo'lib, kanal qurilgach 60 ming desyatina maydonni sug'orish imkoniyati vujudga keladi. Kanalni qurish muddati 5 yilga mo'ljallangan. Ammo bu loyiha puxta ishlanmagan degan sabab bilan Rossiya hukumati tomonidan e'tiborsiz qoldirilgan.

1912 yildan boshlangan qidiruv ishlarida muhandis A. V. Chaplignin Zarafshon vodiysi suv xo'jaligini tartibga solish loyihasini tuzib chiqqan. U 1912-1916 yillarda qidiruv ekspeditsiyasi ma'lumotlari asosida Buxoro vohasi Amudaryodan ancha baland bo'lishiga qaramay, Rossiyadagi va chet ellardagi texnika taraqqiyoti darajasini hisobga olib, Amudaryodan suv chiqarish mumkinligini qayd etgan. Uning loyihasiga ko'ra, Kanal suvini yuqoriga ko'taruvchi nasoslar tizimi quriladi. Amudaryodan chiqariladigan kanal sakkizta kuchli nasos yordamida vohaga keltiriladi. Lekin A. V. Chapligninning loyihasi ham rad qilindi. Loyiha ishi natijalari 1925 yilda kitob sifatida alohida nashr qilingan. Garchi bu loyiha amalga oshirilmagan bo'lsa-da, Amudaryo suvini mashina orqali yuqoriga ko'tarish g'oyasining yaratilishida muhim ahamiyat kasb etdi.

XX asrning birinchi choragida ham Sovet hukumati tomonidan loyiha-qidiruv ishlari davom etdi. Dastlab F. P. Morgunenkov tomonidan bu borada loyiha tuzib chiqilgan. U Amudaryodan Buxoroga suv keltirish uchun Turkmaniston hududidan 200 kilometr masofada kanal chiqarish va u kanal tufayli yangi o'zlashtiriladigan sug'oriladigan yerlarni ko'rsatib o'tgan edi.

1936 yili B. D. Korvashin boshchiligidagi muhandis-irrigatorlardan iborat guruh Buxoro vohasi suv ta'minotini yaxshilash uchun Amudaryodan chiqariladigan Kalif kanalini qurish haqidagi masalani yangidan ko'tarib chiqdi. Ular Buxoro vohasiga Amudaryodan kanal keltirilishi bilan Zarafshonning ortiqcha suvlarini Qashqadaryo vohasida sug'orishni rivojlantirish uchun Zarafshon kanali qurishni taklif etgan. Komissiya bu tadbirlarni Buxoro va Qashqadaryo vohalarida sug'orishni tubdan yaxshilashda yagona yo'l, deb hisoblagan. Professor F. P. Morgunenkov esa 1937 yili Buxoro vohasiga boshqa manbadan-Sirdaryodan suv keltirishning Kalif variantiga teskari Buxoro va

Qarshi tumanlariga qo'shimcha suv yuborish haqida yangi taklifni ilgari surgan. 1940 yilda F.P. Morgunenkov taklifidagi kanal yo'nalishi, kanalning suv olish inshooti qurish maydonlari o'rganilgan, ammo ikkinchi jahon urushi sabab ish to'xtab qolgan[6].

Sovet davrida urushdan keyingi iqtisodiy qiyinchiliklar va uning ijtimoiy hayotga ta'siri o'z o'rnida mamlakatda sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirishni talab qilgan. Bu murakkab vazifalarni bajarish uchun rivojlantirishning aniq dasturi ishlab chiqilishi kerak edi. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'ringa ega bo'lib, respublikada ishlab chiqilgan iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirish rejalarida qishloq xo'jaligiga asosiy e'tibor qaratilgan. Qishloq xo'jaligi ekinlari, xususan paxtani yetishtirishni ko'paytirish maqsadida XX asrning 50-80 yillarida butun respublikada yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, sug'orish inshootlarini qurish ishlari avj oldi. Bu kabi tadbirlar SSSRda qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish orqali yangi yerlarni kengaytirish jarayonlarida o'z aksini topdi.

Sovet hukumatining 1956 yil 6 avgustda «Paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSRdagi Mirzacho'lning qo'riq yerlarini sug'orish to'g'risida»gi[7] qarori qabul qilinib, mamlakatdagi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish ishlari boshlanib ketdi. Mirzacho'l bilan birga Markaziy Farg'ona yerlari, Surxondaryo, Zarafshon vohalari, Amudaryo etaklarida yirik irrigatsiya ishlari bajarildi. Surxon-Sherobod, Jizzax cho'llarini o'zlashtirish va sug'orish ishlari jadal tus olib, qishloq xo'jaligi ekinlari hamda paxtachilik maydonlari, ixtisoslashgan davlat xo'jaliklari ko'paytirildi. Demak, bu davrda sovet davlatining qishloq xo'jaligidagi asosiy yo'nalishlaridan biri bu – cho'llarning o'zlashtirish va sug'orishga qaratilgan. Shu jumladan bu siyosat doirasida Qarshi cho'lini o'zlashtirish va sug'orish tadbirlari ham olib borilgan.

Qarshi cho'li O'zbekistonda mavjud boshqa hududlardan o'zining qulay iqlimi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda mavjud sharoitlari bilan ajralib turadi. Ushbu cho'l'da uzoq davom etadigan ko'p yorug'lik hamda issiqlikni beradigan geografik imkoniyat mavjud. Cho'lining yozi issiq, qishi qisqa. Yoz uzoq davom etib, iyul o'rtalarida o'rta 28-32 gradusni tashkil qiladi[8]. Yoz oylaridagi bulutsiz kunlar soni va quyosh yoritish nuri bo'yicha AQSH va Misrning yirik paxtachilik hududlari bilan taqqoslash mumkin[9]. Qarshi cho'l'dagi vegetatsiya davri uzoq vaqt davom etadi. YA'ni, ob-havoning qulayligi bu yerda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun moslashgan. Qarshi cho'lida suv manbalari tanqis bo'lib, hudud Amudaryo daryosidan 130-120 metr balandlikda joylashgan.

Respublikaning boshqa hududida mavjud bo'lmagan, ingichka tolali paxta yetishtirishga moslangan qulay iqlim sharoitidan kelib chiqib, markaz tomonidan Qarshi cho'lining qo'riq va bo'z yerlarini o'zlashtirishga alohida ahamiyat qaratildi.

Faqat XX asrning 50-60 yillarida Qarshi cho'lini o'zlashtirishga jiddiy kirishildi. 50 yillarda vohada amalga oshirilgan irrigatsiya inshootlarini qurilishi natijasida Zarafshon suvi Qashqadaryoga quyildi. Qashqadaryoning quyi oqimi hududlarida sug'oriladigan yerlar paydo bo'ldi. Shuningdek, Qarshi cho'lida Qashqadaryodan foydalanish hisobiga kichik maydonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirildi. Faqat 1955 yilda Eskiandor kanali va 1963 yilda Chimgo'rg'on suv omborining qurilishi ushbu vohada yerlarni suv bilan ta'minlash imkoni yaratilgan[10].

XX asrning 50-yillaridan e'tiboran vohada yirik sug'orish inshootlarini barpo etish, qo'riq yerlarni o'zlashtirish ishlari jadal olib borildi. Qarshi tekisligida bu davrda taxminan 720 ming gektar yer o'zlashtirishga yaroqli bo'lib, shundan 63 ming gektar hududida eski irrigatsiya tarmoqlari mavjud bo'lgan[11]. Qarshi cho'lini sug'orish uchun Amudaryodan suv olish masalasi 1954 yilda boshlanib, bu loyihani o'rganish bosh muhandis S.A.Buyukov rahbarligida «Sredazgiprovodxlopok» instituti tomonidan amalga oshirilib, S.A. Buyukov «Amudaryo havzasidagi suv-yer resurslaridan foydalanishning umumiy loyihasi»ni tuzib chiqdi. Loyihaga ko'ra, Kelif uchastkasidan suv oladigan, Buxoro viloyatini suv bilan ta'minlash uchun

mo'ljallangan 155 km uzunlikdagi Amu-Buxoro kanalini qurish rejalashtirildi. Shu bilan birga loyihada uzunligi 185 km bo'lgan Qarshi magistral kanali (QMK) qurilishi haqida ham so'z borgan. Sug'oriladigan yer maydonlari shu kanal orqali sug'orilishi rejalashtirilgan[12].

Amu-Buxoro kanalning uzunligi Amudaryodan Zarafshon daryosigacha 522 km masofada ekanligi tufayli qurilish ishlari katta mablag' talab qilgan. Bu bilan loyihani qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelgan[13]. Loyiha ishtirokchilar Buxoro vohasiga Amudaryo daryosidan navbat bilan suv yetkazib berish yo'llarini izlay boshlagan. Ba'zi sug'orish inshootlarni qurilishidan voz kechishga to'g'ri kelgan. Shuningdek, Amudaryodan to'g'ridan-to'g'ri Qarshi kanaliga suv tortilishi haqida fikr o'rtaga tashlangan.

1959 yil 27 yanvardan 5 fevralga qadar KPSSning navbatdan tashqari XXI syezdi o'tqazilib, unda 1959-1965 yillarda SSSR xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun paxta yetishtirishni tezlik bilan keskin ko'paytirish belgilangan, natijada O'zbekistonda suv xo'jaligini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratala boshlangan.

1960 yilda O. N. Lyamin boshchiligida «Sredazgiprovodxlopok» instituti tomonidan «Amudaryo suvlari bilan Qashqadaryoning quyi oqimini nasos bilan sug'orish to'g'risida texnik-iqtisodiy hisobot (TIH)» tuzib chiqilgan[14]. Unda Qarshi cho'lini nasos bilan sug'orishning mumkin bo'lgan variantlarini ishlab chiqish, Amudaryo suvlari bilan Qarshi cho'lini nasosli sug'orish bo'yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarning texnik va iqtisodiy jihatdan muvofiqligi va gidrotexnik inshootlarning hamda nasos agregatlarining parametrlarini aniqlash, ish hajmini, ularning narxini ishlab chiqish kerak bo'lgan.

O'rganishlar natijasida QMK yo'nalishini Qiziloyoq uchastkasidan Amudaryoga boradigan eng qisqa yo'l bo'ylab yotqizish va kanalning Qashqadaryo quyi oqimining aholi yashaydigan qismini suv bilan ta'minlash rejasi taklif qilingan. Qiziloyoq uchastkasida vaqtincha suvsiz suv olish moslamasini, kanalning dastlabki uchastkasida - vaqtinchalik nasos stansiyasini qurish rejalashtirilgan. Ular Kelif uchastkasidan Amu-Buxoro kanali qurilgunga qadar ishlaydi deb taxmin qilingan. 1954 yilgi loyihaga ko'ra kelgusida QMKni Amu-Buxoroga ulash rejalashtirilgan[15]. Hisobotda ko'rsatilishicha, QMKdagi suv olish joyini Kelif to'g'on gidroelektr majmuasining bosh suvidan boshlanadigan kanalga joylashtirish ancha mablag'ni tejaydi. Bu muammoning to'liq va murakkab yechimini berdi. Ammo Qarshi cho'lini o'zlashtirishni tezlashtirish zarurati tufayli Qiziloyoq uchastkasida vaqtincha suv olishdan foydalanishga qaror qilindi. «Sredazgiprovodxlopok» instituti, shuningdek, Qiziloyoq uchastkasida bir vaqtning o'zida o'ng qirg'og'i Qarshi va chap qirg'og'i Qoraqum kanallariga suv olishini ta'minlash uchun doimiy to'g'on gidroelektr majmuasini qurish masalasini ham ko'rib chiqilgan[16].

Bu davrda Qarshi cho'lida qishloq xo'jaligiga yaroqli 1 million gektarga yaqin maydonlar mavjud bo'lib, ular faqat

mashinali suv ko'targich yordamida sug'orilishi mumkin edi. Bu joylarga suv yetkazib berish Qarshi magistral, Sho'rsroy tarmog'i, shuningdek, tizim ichidagi katta suv omborlari – Tallimarjon va Sho'rsroy suv omborlari orqali ta'minlanishi nazarda tutilgan. Birinchi navbatda QMK orqali keladigan suv bilan qariyb 200 ming gektar yerlarni, ikkinchi navbatda Sho'rsroy kanali orqali qariyb 300 ming gektar yerlarni sug'orish rejalashtirilgan[17].

Olib borilgan tadbirlar natijasida Qarshi cho'lidagi yerlarni mashinali suv ko'targich asosida o'zlashtirish kapital quyilmalar hajmi va boshqa texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

1962 yil iyun oyida O'zSSR Melioratsiya va suv xo'jaligi ministrligi tomonidan texnik hisobot tasdiqlangan[18]. Sug'orishning dastlabki bosqichidagi yerlarni o'zlashtirish uchun loyiha topshirig'ini tuzish boshlangan.

Qarshi cho'lini o'zlashtirish to'g'risidagi qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida ko'p o'tmay cho'lida loyiha-qidiruv va qurilish ishlari avj olgan. Qarshi cho'li obyektlarini loyihalash bo'yicha sovet davlatining 23 ta loyihalash instituti ish olib borgan[19].

1961 yil oktabrda o'tkazilgan KPSS XXII syezdida cho'l hududlarda millionlab gektar yangi yerlarni sug'orish va mavjud sug'oriladigan yerlardan hosilni ko'paytirish, sug'orish tizimining keng dasturini bajarish asosiy vazifa qilib belgilangan. Boshqa hududlarda bo'lgani kabi Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligida paxta va ekin maydonlarini kengaytirish maqsadida Qarshi cho'lini o'zlashtirishga kirishilgan. 1963 yil 16 aprelda Sovet hukumati Qarshi cho'lida qo'riq yerlarni o'zlashtirish va sug'orish bo'yicha 55 sonli buyrug'i qabul qilingan. Unga ko'ra cho'lni o'zlashtirish hududiy boshqarmasi tuzish belgilangan[20]. Boshqarma Qarshi cho'lini o'zlashtirishda asosiy qurovchi boshqarma bo'lgan. Bu Qashqadaryoda yerlarni o'zlashtirish hamda ekin maydonlarini ko'paytirish maqsadida suv yo'llarini yaratishga asos bo'lgan.

Xulosa. 1. Qashqadaryo vohasi qulay geografik hududda joylashganligi bois, tadqiq etilayotgan davrga qadar tabiiy suv manbalari bilan sug'orish asosiy o'rinda turganligini ko'rishimiz mumkin. 2. O'rganilgan davrda respublikadagi ekin maydonlarini muntazam sug'orish va suv zaxiralarni to'plash maqsadida ko'plab sug'orish kanallari suv omborlari qurishga e'tibor berilgan. Biroq ularning barpo etilishi ijobiy tomonlari bilan birga respublikada paxta yakkahokimligini yanada mustahkamlashga va Ittifoqni paxta xomashyosi bilan muntazam ta'minlashga ko'maklashdi. 3. Sovet hokimiyati yillarida sug'orish tizimini rivojlantirishga jiddiy e'tibor berildi. O'rganilgan davrda sug'oriladigan maydonlar hajmi ekstensiv ravishda qariyb ikki barobarga kengaytirildi. Bu esa o'z navbatida ortiqcha mablag' va ishchi kuchi talab qildi. Natijada sug'oriladigan maydonlardan hosil olish dastlabki yillarda mo'l hosil bergan bo'lsa-da, keyinchalik yildan-yilga asta-sekin kamayib bordi, ko'p hollarda ular yaroqsiz va tashlandiq holatga kelib qoldi hamda qishloq xo'jaligi iste'molidan chiqib ketdi.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2018/12/21/islom-sivilizatsiya>
2. «Qashqadaryo haqiqati», 1967 yil 5 may.
3. Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi. –Toshkent: Fan, 1995. –B.749.
4. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. –С.Петербург. –С. 76
5. Ахмад Махдум Дониш. Рисола ё Мухтасаре аз тарихи салтанати хонадони манғития. –Душанбе, 1960. –Б.132-133.
6. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. –С.Петербург. –С. 76
7. QVDA, 439-fond, 1-ish, 78-ish, 3-varaq.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. –Toshkent, 2005. T.10. –B.611.
9. Qoriyev M., Hisomov A. Qarshi cho'li va uning kelajagi. –Toshkent. 1963. –B. 8.
10. QVDA 439-fond, 1-ish, 38-ish, 42-varaq.
11. Ochilov N. O'zbekistonda irrigatsiya-melioratsiya ishlari (1946-1964). –Toshkent: Fan, 1991. –B. 53.
12. Ирригация Узбекистана Т. III –Ташкент, 1979. –С. 86.
13. QVDA 439-fond, 1-ish, 80-ish, 21-varaq
14. Ирригация Узбекистана –С. 86.
15. QVDA, 439-fond, 1-ish, 60-ish, 19 bet
16. Хамраев Н., Халиков И. Орошение и освоение Каршинской степи. – Ташкент: Узбекистан, 1981. –С.46.
17. Dala yozuvlari. Irrigator X. Toshev axboroti. 2020 yil 26avgust.

18. Хамраев Н., Халиков И. Орошение и освоение Каршинской степи. – Ташкент: Узбекистан, 1981. –Б.46.
19. Abdullayev M Qarshi cho'li qahramonlari. – Toshkent: O'zbekiston. 1980. – В. 6.
20. Jalolov E. Yashnayotgan voha//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 1983. 8.-son –В.50



Xusan XOLMUMINOV,
Termiz davlat universiteti professori v.b, f.f.d
E-mail xusan_75xolmuminov@mail.ru
<https://orcid.org/0009-0003-6634-6020>

TISU professori, f.f.d E.Qobulov taqrizi asosida

**DEMOGRAPHIC PROCESSES OF THE POPULATION OF THE SOUTHERN REGIONS OF BUKHARA EMIRATE.
(SECOND HALF OF THE XIX TH CENTURY - BEGINNING OF THE XX TH CENTURY).**

Annotation

This article describes the analysis of the demographic processes and social lifestyle of the population of the southern regions of the Bukhara Emirate. That is, it was based on the fact that the internal disputes, the conquest campaigns of the khanate had a negative impact on the political and economic situation of the country, as well as the fact that the lack of centralized state administration, the deterioration of the standard of living of the people, and the demographic processes of the population had a negative impact.

Key words: Bukhara Emirate, Shakhrisabz, Karshi, Guzor, Sherabad, Denov, Boysun provinces, demographic processes, population migration, properties, management procedures, positions and positions

ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ НАСЕЛЕНИЯ ЮЖНЫХ РАЙОНОВ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА. (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX ВЕКА – НАЧАЛО XX ВЕКА).

Annotatsiya

В данной статье представлен анализ демографических процессов и социального образа жизни населения южных районов Бухарского эмирата. То есть оно основывалось на том, что внутренние раздоры, завоевательные походы ханства отрицательно сказывались на политическом и экономическом положении страны, а также на том, что отсутствие централизованного государственного управления, ухудшение негативно влияющих оказали уровень жизни народа, демографические процессы среди населения.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Шахрисабз, Каршинский, Гузарский, Шерабадский, Денауский, Байсунский провинции, демографические процессы, миграция населения, имущество, процедуры управления, должности и позиции.

BUXORO AMIRLIGI JANUBIY HUDUDLARI AHOLISI DEMOGRAFIK JARAYONLARI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI- XX ASRNING BOSHLARI)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amirligi janubiy beklilari aholisining demografik jarayonlari hamda ijtimoiy turmush tarzidagi mavjud holatlar tahlili bayon etiladi. Ya'ni, bu davrdagi ichki nizolar, xonliklarning istilochilik yurishlari, mamlakat siyosiy va iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi, shuningdek, markazlashgan davlat boshqaruvining mavjud emasligi, xalq ommasi turmush darajasini og'irlashuviga, hamda aholi demografik jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatganligi asoslandi.

Kalit so'zlari: Buxoro amirligi, Shaxrisabz, Qarshi, G'uzor, Sherobod, Denov, Boysun beklilari, demografik jarayonlar, aholi migratsiyasi, amlokliklar, boshqaruv tartiblari, mansablari va lavozimlari

Kirish. Dunyo miqyosida yuz berayotgan globallashuv sharoitida aholi sonining o'sib borishi migratsiya va urbanizatsiya jarayonlariga ham ta'sirini ko'rsatmoqda. Mazkur holat doimiy ravishda xalqaro tashkilotlarning e'tiborida bo'lib, maxsus markazlar tomonidan maqsadli dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ming yillik taraqqiyot dasturlarida ham demografik jarayonlarning rivojlanishini ta'minlash, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashni nazarda tutgan ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan. Shuningdek, bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarda turli xalqlar o'rtasida millatlararo totuvlikni ta'minlash, o'zaro hamjihatlik hamda bag'rikenglik kabi tuyg'ularning ahamiyati yanada ortib, har bir millatning o'ziga xos tarixiy-demografik jarayonlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada kuchaymoqda. Shuningdek, aynan keyingi o'n yilliklarda dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari va turli tarixiy davrlarda mintaqalararo hamkorlik tizimining takomillashuvi milliy analarga hamda turli tarixiy mintaqalarga xos lokal jihatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. XXI asr tarix sahifasida nafaqat fan-texnika taraqqiyoti asri, balki turli xalqlar millatlar integratsiyasi, hamda tarixiy demografik jarayonlarining transformatsiyasi asri bo'lib ham kirib keldi. Ushbu jihatlardan kelib chiqqan holda zamonaviy tarix fani oldida bugungi sivilizatsion rivojlangan jamiyatda milliy madaniyatlarning o'zni va ahamiyati hamda ularning saqlanib qolish omillari, turli mintaqalarga xos aholining demografik muammolarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jumladan tadqiq etilayotgan davrda Buxoro amirligi va uning janubiy hududlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasidagi aholi demografik jarayonlarida yuzaga kelgan muammolarni ilmiy tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligi va uning janubiy hududlaridagi tarixiy demografik jarayonlarni yoritishga oid asarlar D.N.Logafet[1], N.N.Pokatillo[2], A.Tatarinov[3] va boshqa bir qator rus sharqshunos sayyoh olimlarning kuzatuvlari va tadqiqotlari asosida yaratilgan.

Shuningdek, rus sharqshunoslari, elchilari hamda harbiy mutaxassislari tomonidan tayyorlangan hisobotlar va ma'lumotnomalarda ham mahalliy aholining ijtimoiy va maishiy turmush tarzi bilan bog'liq masalalar aks etgan. Bular orasida A.Gubarevich-Radobylskiy va D.N.Logafetning ma'lumotlari muhim o'rin tutadi. Mualliflar o'z asarlarida Buxoro amirligi shaharlarining aholisi, beklilarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, Termiz - Sherobod pochta-telegraf yo'lining ochilishi, Sag'oniyon (Chag'oniyon) (Surxon vohasi) shaharlarining Buxoro amirligida tutgan o'zni, shaharlarni bog'lovchi yo'llar, chegara istehkomlari, qal'alar (Boysun qal'asi, Sherobod qal'asi) kabilar haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi. Bunda tashqari A.Tatarinov va N.Pokatilloning izlanishlarida esa vohaning xo'jaligi, turmush tarzi, aholining demografik holatlari masalalari ma'lum darajada tahlil etilgan. Ushbu tadqiqotlarda Buxoro amirligining janubiy vohalaridagi beklilarning boshqaruvi, aholisi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Mazkur mavzuga tegishli ayrim

ma'lumotlar rus muhandisi A.G. Ananevning asarlarida[4] ham uchraydi. Jumladan, muallif Sherobod vohasining sug'orish tizimini yoritish bilan birga, shaharlar haqidagi ayrim (aholi va uning mashg'ulotlari, hunarmandchilik va uning turlari) ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

Shuningdek, sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlarda ham janubiy vohalar hududlaridagi demografik jarayonlar bilan bog'liq ayrim jihatlar ham o'rganilgan. Jumladan ushbu asarlarda O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi sanoatining yirik xom ashyo bazasiga aylantirilishi, temir yo'llar qurilishini kengaytirilishi, ipakchilik, paxta tozalash va yog'-moy zavodlarining qurish, mayda kustar sanoatning holati kabi jihatlar bilan bog'liq holda aholi migratsiyasi hamda urbanizatsion jarayonlarning holati tahlil etilgan. Shuningdek, mustaqillik davri adabiyotlarida janubiy vohalar bekkliklaridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va aholining ijtimoiy demografik holatlari, o'troq aholining joylashish tarkiblari masalalari yoritib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologik asoslarini ishlab chiqishda tarixiy-demografiya yo'nalishi metodologiyasi bo'yicha yetuk olimlardan B.S Uralnis, V.A Borisov, Ye.B Breeva[5], V.V Ivanov[6], A.P Pronshcheyn[7] va boshqalarning asarlaridan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekistonda mustaqillik yillarida demografik jarayonlarni ilmiy o'rganishda O.B.Ata-Mirzaev, V.L.Gentshke, A.S.Soliev, R.H.Murtazaeva[8] kabi olimlarning tadqiqotlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan ushbu tadqiqotlarda ilmiy bilishning fanlararo aloqadorligini hisobga olgan holda mutaxassislar so'nggi yillarda o'zaro bog'liq fanlarning ilmiy yutuqlari va xulosalaridan keng foydalanmoqda. Aynan tarix fanining tarixshunoslik qismini boyitishda ushbu metod muhim o'rin tutadi. Natijada tarixiy voqealikka samarali yondoshuv jarayonlari shakllanmoqda. Jumladan, tarix va demografiya, tarix va iqtisod, tarix va geografiya, tarix va statistika fanlarining o'zaro aloqadorligi hamda fanlararo yondashuvlar asosida muayyan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, rus sharqshunoslari, elchilari hamda harbiy mutaxassislari tomonidan tayyorlangan hisobotlar va ma'lumotnomalarda ham mahalliy aholining ijtimoiy va maishiy turmush tarzi bilan bog'liq masalalar aks etgan. Bular orasida A.Gubarevich-Radobylskiy va D.N.Logofetning hisobotlari muhim o'rin tutadi. Mualliflar o'z asarlarida Buxoro amirligi shaharlarining aholisi, bekkliklarining ijtimoiy-iqtisodiy holati, Termiz - Sherobod pochta-telegraf yo'lining ochilishi, Sag'oniyon (Chag'oniyon) (Surxon vohasi) shaharlarining Buxoro amirligida tutgan o'rni, shaharlarni bog'lovchi yo'llar, chegara istehkomlari, qal'alar (Boysun qal'asi, Sherobod qal'asi) kabilar haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi. Bunda tashqari A.Tatarinov va N.Pokatilloning izlanishlarida esa vohaning xo'jaligi, turmush tarzi, aholining demografik holatlari masalalari ma'lum darajada tahlil etilgan. Ushbu tadqiqotlarda Buxoro amirligining janubiy vohalaridagi bekkliklarning boshqaruvi, aholisi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan.. Mazkur mavzuga tegishli ayrim ma'lumotlar rus muhandisi A.G. Ananevning asarlarida ham uchraydi. Jumladan, muallif Sherobod vohasining sug'orish sistemasini yoritish bilan birga, shaharlar haqidagi ayrim (aholi va uning mashg'ulotlari, hunarmandchilik va uning turlari) ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

Shuningdek, sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlarda ham janubiy vohalar hududlaridagi demografik jarayonlar bilan bog'liq ayrim jihatlar ham o'rganilgan.. Jumladan ushbu asarlarda O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi sanoatining yirik xom ashyo bazasiga aylantirilishi, temir yo'llar qurilishini kengaytirilishi, ipakchilik, paxta tozalash va yog'-moy zavodlarining qurish, mayda kustar sanoatning holati kabi jihatlar bilan bog'liq holda aholi migratsiyasi hamda urbanizatsion jarayonlarning holati tahlil etilgan. Shuningdek, mustaqillik davri adabiyotlarida janubiy vohalar bekkliklaridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va aholining ijtimoiy demografik holatlari, o'troq aholining joylashish tarkiblari masalalari yoritib o'tilgan.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asrning boshlarida janubiy vohalar bekkliklaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o'ziga xos tarzda kechgan. Bu davrdagi ichki nizolar, xonliklarning istilochilik yurishlari mamlakatning siyosiy va iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan[9]. Shuningdek, markazlashgan davlat boshqaruvining mavjud emasligi, barcha sohalar kabi aholi ijtimoiy turmush tarziga hamda demografik jarayonlarga xam o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda qo'shni mamlakatlar zo'raonligi va talonchiligi hamda turli tabiiy ofatlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlariga va o'z navbatida aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi.

Buxoro amirligi o'zining boshqaruv tartibida janubiy hududlarni egallash maqsadida bir necha bor yurishlar olib borilgan[10]. Jumladan Termiz haqiqatan ham amirlikning muhim strategik mustahkam qal'aga ega shaharlaridan biri bo'lib, bir tomondan Amudaryoning keng qirg'oqlari, ikkinchidan tomondan bo'ysunmas va isyonkor qo'ng'iroq turli qabilalari uni yanada kuchli himoya qilar edi. Ana shunday mustahkam qal'ani egallash orqali Ubaydullaxon o'zining xukmronligi davrida (1702 – 1711yillar) ikki maqsadni amalga oshirishni ko'zlagandi. Birinchidan, Balx yo'lidagi mustahkam qal'aga egalik qilish, ikkinchidan, bo'ysunmas va isyonkor qo'ng'iroqlar hukmdori Sheralini hokimiyatdan chetlatish. Mazkur sabablar tufayli Termizga harbiy yurish amalga oshirilib, qo'ng'iroqlardan bo'lgan shahar hokimi vazifasidan olindi, nayman urug'idan Ne'matullabiy mazkur vazifaga tayinlandi. Ushbu siyosiy voqealiklar davrida Sheralixon Sherobod shahriga asos soldi. Janubiy vohalar bekkliklari hududida joylashgan Sherobod keyinchalik amirlikning eng muhim o'rin tutuvchi shaharlaridan biriga aylandi[11].

XIX asr oxirida Buxoro amirligida 27 ta bekklik bo'lib, ma'muriy jihatdan bekkliklar amlolliklardan iborat bo'lgan . Shuningdek, bekkliklar hududida holi yashaydigan hududlar qishloq, mavze va daha nomlari bilan atalib kelingan.. Bular: Chorjo'y, Karmana, Ziyovuddin, Nurota, Xatirchi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog', G'uzor, Boysun, Qorategin, Denov, Hisor, Darvoz, Baljuvon, Shug'non, Rushon, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Qabodiyon, Sherobod, Kalif, Karki, Budalik, Qaboqli, Qarshi bekkliklaridan iborat bo'lgan. Shundan Shaxrisabz, Qarshi, Yakkabog', Chiroqchi, Boysun, Sherobod, Denov, bekkliklari janubiy vohalarda joylashgan eng yirik bekkliklardan hisoblangan[12].

XX asr boshlariga kelib Buxoro amirligi hududlari Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya'ni, Rossiya Pomiridan to Xivaning keng davlatlarigacha cho'zilib boradi. Buxoro shimol tarafdin Qizilqum sahrosi bilan, g'arb tarafdin Sirdaryo hamda Xo'qand xonligi bilan, janubda esa Afg'oniston, Sharqda turkman o'lkasi hamda Xiva dashti bilan chegaradosh bo'lganligi qayd etilgan[13].

Buxoro amirligi aholisi XIX asrning oxirlarida 2 million 153 ming 240 kishi bo'lib, milliy tarkibida aholining 1,5 mln. kishidan ortiqrog'ini o'zbeklar tashkil etgan. Aholi milliy tarkibida ikkinchi o'rinda tojiklar bo'lib, ularning umumiy soni 500 ming kishini, shuningdek turkmanlar soni 200 ming kishidan iborat bo'lgan[14]. "Buxoro amirligining janubiy sharqiy bekkligi hududlari aholisining katta qismini o'zbeklar tashkil etib, milliy tarkibi jihatdan o'zbeklar 50,7 foizni, tojiklar 31,8 foizni, turkmanlar 10 foiz, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqalardan 7,5 foizni tashkil etgan. [15]

XX asr boshlariga kelib esa, ijtimoiy turmush darajasining asta-sekin yaxshilanishi, aholi manzilgoxlari va sonining ortishiga sabab bo'lgan. 1924 yillarda Moskvada nashr etilgan "Buxarskaya jizn" nomli to'plamida ham Buxoroda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar xususida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, shuningdek, 1913-14 yillarda Buxoroda 2.700.000. aholi istiqomat qilganligi, shundan 2.460.000. mingga yaqin aholi vakillarining qishloqlarda istiqomat qilganligi xususida ma'lumotlar keltirib o'tilgan[16].

Buxoro amirligi hududida amirlik aholisining kichik qismini arablar tashkil etib, ular asosan Qarshi va Sherobod hududlarida istiqomat qilishgan. Shuningdek, Buxoro amirligi

hududida forsiylar, yahudiylar, hindlar, lo'lilar, afg'onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa millat vakillari ham istiqomad qilishgan[17]. Demografik jarayonlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, janubiy hududlar aholisi bu davra asosan o'troq va ko'chmanchi hayot kechirib, XX boshlariga kelib, charvodor aholining ko'proq o'troq turmush tarziga o'tishi jarayoni yanada jadallashdi. Bu omillar natijasida janubiy vohalarda asta-sekinlik bilan ma'muriy markazlar hisoblangan shaharlarda aholi sonining ortishi bilan izohlanadi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida janubiy vohalardagi katta shaharlar soni bir necha o'ndan ortiq bo'lib, bulardan Qarshi, Shaxrisabz, Kitob, Boysun, Termiz, Yurchi, Denov, Sarijo'y, Sherobod shaharlari muhim o'rin tutgan. Bu shaharlarda aholi soni muttasil ortib borgan. Jumladan ma'lumotlarga ko'ra Qarshi shahri aholisi 1897 yillarda 15198 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1926 yilga kelib 37587 kishiga ortganligini ko'rishimiz mumkin[18].

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Surxon vohasi hududlarida joylashgan beklklarga tegishli bo'lgan amlokliklar soni ham o'zgarib turgan. Jumladan 1868 yildan boshlab Boysun a'lohida mustaqil beklk sifatida qayd etiladi. Bekliklarga tegishli hududlarning kengayishi amir oldida ko'rsatgan xizmatiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan. 1868 yilda Boysun begi Muhammad Yusuf tortuliga amirga qarshi isyonlarni bostirishdagi a'lohida xizmatlari uchun hududdan uzoqda joylashgan bo'lsa-da, Zarabog', Buzravot, Poshxo'rd va Kakaydi amlokklari ham qo'shib berilgan. Bu davrda Boysun bekligi Boysun, Yaumchi, Rabot, Darband, Sayrob, Xatak, Zarabog', Poshxo'rd, Buzravot, Kakaydi amlokliklaridan iborat edi[19].

Boysun bekligiga qarashli Xatak amloklorligida Tangi, Chorvoq, Bedak, Xo'janqo, Zarautsoy, Yoriqsoy, Chinor, Kalapo'shqiya singari qishloqlardan iborat bo'lgan. Dastlab bu qishloqlarning markazi Bog'lidara edi. Shundan keyin aholining asosiy qismi Chorvoq qishlog'iga ko'chib o'tadi, bora-bora bu joy Xatak deb yuritila boshlaydi. Aholining bog'-rog'lariga

aylantirilgan Markaziy Xatak qo'rg'oni esa, Bog'lidara nomini oladi[2].

Sherobod bekligi hududi va aholisining soni jihatidan Surxon vohasidagi beklklar orasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. Beklik hududida joylashgan Tallashqon amlokligida 2800 ta aholi xo'jaliklari istiqomat qilgan bo'lsa, Saidobodda 3300, Tallimaronada 2600, Gilambopda 3000, Jarqo'rg'onda 2000, Solihobodda 300 ta aholi xo'jaliklari istiqomat qilganligini manbalarda qayd etilgan. Aholi xo'jaliklarining Sherobod bekligi geografik hududiy joylashuvi janubda Amudaryoning Qorakamar kechuvidan Pattakesargacha (Sherobod bekligida to'rtta kechuv bo'lgan: Pattakesar, Sho'rob, Cho'chqaguzar va Qorakamar), shuningdek, sharqda Surxondaryoning o'ng qirg'og'i, shimoli-g'arbda esa Istara arig'idan Tallashqon va Xo'janqo tog' etaklarigacha bo'lgan hududlarni egallaganini ko'rishimiz mumkin [21].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki janubiy vohalardagi mavjud beklklar aholisining ijtimoiy turmush tarzi hamda ma'muriy boshqaruv tizimi va boshqa sohalarida bir qator muammolar mavjud bo'lib hisoblangan. Shuningdek, aholi manfaatlaridan ko'ra xukumat manfaatlari ustunlik qilganliklari bois aholi ijtimoiy turmush tarzida qator muammoli holatlar mavjud edi.

Shuningdek, ijtimoiy jarayonlardagi bunday holatlar albatta voha iqtisodiyotining qo'loqligi, xususan, aholining bir yoqlama (dehqonchilik va chorvachilik) mehnat rusurslari bilan shug'ullanishi jarayoni bilan bevosita bog'liq edi. Aholi demografik holatidagi mavjud muammolar yana shu bilan bog'liq ediki, bu davrda aholi ijtimoiy turmush darajasini yaxshilash borasida mehnat rusurslari yanada yaxshilash shuningdek, ish o'rinlarini yaratish, voha hududlari bo'ylab sanoat sohalarini ko'proq jalb etish ishlari yetarli darajada olib borilmagan. Bu holatlarning barchasi albatta aholi demografik holatiga o'ziga xos tarzda salbiy ko'rsatgan.

ADABIYOTLAR

1. Логофет Д.. Бухарское ханство под русским протекторатом. -СПб., 1911. -40 с.
2. Покатило Н.Н. . Путешествие в центральную и восточную Бухару в 1886 г..
3. Татаринов А. Семимесячный плен в Бухарию. Библиотека Российского географического общества. -СПб., 1867. - С.11-111
4. Ананьев А.Г. Орошение Шерабадской долины водами реки Сурхана. – Ташкент, 1911. – С. 56
5. Б.Ц Урланис Эволюция продолжительности жизни. – М.: Статистика, 1978; С-247.
6. Иванов В.В. Методология исторической науки. – М.,1985. С-127
7. Пронштейн А.П.А. Вопросы теории и методики исследования. – М.,1986;.
8. 8.Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Ташкент, 1998 . С 298
9. Хожа Самандар Термизий. Дастан ул-мулк. – Тошкент: Шарк. 2001. – Б. 196 – 203;.
10. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва: Из. Восточной литературы, 1958. – С. 72.
11. Бартольд В.В. Аму-Дарья. – Т. III. Москва: Наука, 1965. – С. 160.
12. Населенные пункты Бухарского эмирата. Отв.ред. Академик АН РУз А.Р.Мухамеджанов.-Ташкент: Университет. 2001.;С 19
13. Холикова Р. Россия – Бухоро: тарих чоррахасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – б 133.
14. Тўхтаматов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX- начале XX в с-14; 1969, с.197:
15. Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX века. Ч.1. – Душанбе, 1962. – С. 355.,
16. Холмунинов Х. Э. Особенности проблемы социально-демографических процессов населения в Кашкадарьинском и Сурхандарьинском оазисах (конец XIX в.) //Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 9. – С. 408-413.
17. Кармышева Х.Б, Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана,М: Изд- Наука . 1976. с. 111-112.
18. Холмунинов Х. Э. Социально-культурные процессы в Сурхандарьинской области в начале XX века //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 5. – С. 521-526.
19. Ўзбекистон Республикаси Миллий Архиви, И-126-жамғарма, 2-рўйхат, 71-иш, 92-варақ;
20. Умаров. И. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар (Хатакилар мисолида) .Т. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2014.Б-132-134.
21. Холмунинов Х. Э., Эшмунинов О. З. Влияние советской политики на миграционные процессы в Узбекистане (на примере Сурхандарьинской области, 1930-1950 гг.) //Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 12. – С. 487-491.



Rahimjon YUSUPOV,

Samarqand Davlat universiteti Sosiologiya va Ijtimoiy ish kafedrasida dosenti, tarix fanlari nomzodi

E-mail: rahim_6161@mail.ru

Tarix fanlari doktori, professor F.Nabiyev taqrizi asosida

YANGI O'ZBEKISTONDA UMUMMILLIY AHOLINI RO'YXATGA OLISH TARIXIDAN

Annotatsiya

Yangi O'zbekistonda demografik jarayonlarni o'rganishda mamlakatda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada, umummilliy aholini ro'yxatga olish tadbiri, tarixiy demografiya fani ilmiy usullaridan foydalangan holda, aholini rasmiy ro'yxatga olishning tarixiy va hozirgi zamon bosqichlari yoritiladi. Aholini ro'yxatga olishga umumdavlat tadbiri sifatida qaraladi. Bu tadbirda respublika aholisining ishtiroki demokratiyaning zarur sharti deb baholanadi.

Kalit so'zlar: aholi ro'yxati, aholi hisobi, dastur ma'lumotlari, besh yoki o'n yil, birinchi aholi ro'yxati, asosiy manba, tamoyil, qo'ngilli yollanganlar, "ro'yxatga olishning muhim lahzasi", "bir vaqtning o'zida", fuqarolik nikohi, yo'l xaritasi, statistika agentligi, planshet va qog'oz usullar.

ИЗ ИСТОРИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПЕРЕПИСИ НАСЕЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В изучении, демографических процессов и результатов по итогам проведения переписей населения в Новом Узбекистане, имеют большое значение. В статье описаны исторические и современные этапы переписей населения с использованием научных методов исторической демографии. Перепись населения считается событием национального масштаба. Участие народа республики в этом мероприятии считается необходимым условием демократии.

Ключевые слова: перепись, население, программа, каждые пять или десять лет, первоисточник, принцип, набор добровольцев, «критический момент переписи», «одновременно», гражданский брак, дорожная карта, статистическое агентство, планшетный и бумажный методы.

FROM THE HISTORY OF THE NATIONAL CENSUS IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

In the study, demographic processes and results of population censuses in New Uzbekistan are of great importance. The article describes the historical and modern stages of population censuses using scientific methods of historical demography. The population census is considered a national event. The participation of the people of the republic in this event is considered a necessary condition for democracy.

Key words: census, population, program, every five or ten years, primary source, principle, recruitment of volunteers, "critical moment of the census", "simultaneous", civil marriage, road map, statistical agency, tablet and paper methods.

Kirish. Mustaqillikdan keyin biror marta O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish ishlari amalga oshirilmagan. Ko'pgina mamlakatlarda aholini ro'yxatga olish qonun bilan tartibga solinishi mustahkamlab qo'yilgan. Bu jarayonlarni ilmiy jihatdan o'rganishni yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish ishlari 2025-2026 yillarda o'tkazilishi bilan amalga oshirish rejalashtirilgan[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-mart kuni imzolagan 114-sonli qarorida aholini ro'yxatga olishning barcha qoidalari, fuqarolar, uy xo'jaliklari, korxonalar va muassasalarning qaysi toifalari ro'yxatga olinishi, aholini ro'yxatga olishni kim o'tkazishi, so'rov varaqalari qanday bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Ushbu maqolada aholini ro'yxatga oladigan hisobchilarni yollash qoidalari, ularning xizmat vazifalari hamda aholini ro'yxatga olish qoidalari ko'rsatilgan.

Asosiy qism. O'zbekistonda aholini ro'yxatga olishi amalga oshirishda viloyat, shahar yoki tuman aholisi to'g'risida fikr yuritish uchun aholi soni, yosh jinsiy, milliy, diniy tarkibi, aholining tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish, nikohdan o'tish yoshi, ajralishlar to'g'risida ma'lumotlarni aniqlash lozim bo'ladi. Bunday ma'lumotlar aholi ro'yxatlari paytida o'rganiladi. Aholini o'rganish asosan ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: birinchisi - aholini hisobga olish, ikkinchisi - aholi ro'yxati. Aholini hisobga olish har yili tug'ilganlar, o'lganlar, kelganlar va ketganlar soni bilan aniqlanadi. Aholini ro'yxatga olish keng miqyosda olib boriladi. Aholi ro'yxati paytida ma'lum dastur asosida aholiga doir barcha ma'lumotlar yig'iladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O'zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlarni o'rganishning ilmiy, uslubiy, amaliy jihatlari kengayib bormoqda. Tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan aholini hisobga olish va aholi ro'yxati masalalari to'g'risida demograf – aholishunoslar, geograf olimlar G.R.Asanov [2], M.A.Kadirov [3], iqtisodchilar Q.X.Abduraxmonov va X.X.Abduramanov [4] juda yaxshi ma'lumotlarni ko'rsatganlar. Ularning fikricha, qadimda ba'zi mamlakatlarda, masalan, Xitoyda, Misrda, Eronda, Shuningdek, Rim imperiyasida eramizdan bir necha asr oldin aholi hisobga olingan, ammo u paytdagi aholi ro'yxati bilan hozirgi aholi ro'yxatini taqqoslab bo'lmaydi. U davrdagi hisoblar ma'lum bir maqsadga, ya'ni soliq to'lashi lozim bo'lgan kishilar yoki askarlikka layoqati bo'lgan kishilar sonini aniqlash uchun zarur bo'lgan. Shunda ham erkaklar hisobga olingan. 1790 yilda AQShda o'tkazilgan aholi ro'yxatini to'liq demografik ma'lumot to'plash maqsadida o'tkazila boshlangan birinchi zamonaviy aholi ro'yxati, desa bo'ladi. Ammo, bu aholi ro'yxatlari juda oddiy shaklda hamda uzoq muddatga cho'zilgan. Birinchi AQShda aholini ro'yxatga olish ishlari 18 oy davomida olib borilgan [5].

Ayni paytda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan butun dunyo aholisi hisobga olib boriladi. Bu tashkilot tomonidan har yili yillik demografik to'plam nashr etiladi. Aholi ro'yxati ma'lum bir davrda o'tkaziladigan tadbir bo'lib, unda aholiga doir barcha ma'lumotlar yig'iladi. Bu ma'lumotlar baholanadi, tahlil qilinadi va natijalari chop etiladi. Aholi ro'yxati paytida demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlar mamlakatning har bir fuqarosi bilan suhbat asosida yig'iladi. Aholini ro'yxatga

olishdan maqsad aholi soni, tarkibi, aholining joylashuvi, ijtimoiy holati kabi bir qancha ma'lumotlarni yig'ishdan iborat. Bu ma'lumotlar har bir mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida katta o'rin tutadi. Aholiga doir barcha ma'lumotlar faqatgina aholini ro'yxatga olish jarayonida to'planadi [5].

Tadqiqot metodologiyasida ta'kidlanganidek, O'zbekiston hududida oxirgi to'la aholi ro'yxati 1989 yili o'tkazilgan. Yangi O'zbekistonda umummilliy aholini ro'yxatga olish tadbiri tarixini o'tkazish ko'rsatadiki, respublikamiz hududida to'laroq aholi ro'yxati 1897 yili chor Rossiyasi tomonidan o'tkazilgan. Bu aholi ro'yxatida Buxoro va Xiva xonliklari aholisi hisobga olinmagan edi. Sobiq ittifoq hokimiyati yillarida aholi ro'yxati 1920, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989 yillarda o'tkazilgan. O'zbekiston hozirgi hududining to'la qamrab olgan batafsil aholi ro'yxati 1926 yilda o'tkazilgan. Shu sabab, Yangi O'zbekistonda umummilliy aholini ro'yxatga olishni tarixiy demografiya fanidan foydalanib tadqiq etamiz.

Yangi O'zbekiston aholi soni jadal o'sib borayotgan mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi. 2030 yilga borib, O'zbekiston aholisi 40 million kishiga yetadi va bu Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisining deyarli yarmini tashkil qiladi. Ayrim bashoratlariga ko'ra, 2040 yilda mamlakat aholisi 50 millionga yetishi mumkin [6]. Yuqoridagilarni nazarda tutib, umummilliy tadbir o'tkazilishidan oldin, "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonun asosida [7], demografik, ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlarni shakllantirish hamda, uning natijalaridan mintaqaviy, milliy va xalqaro miqyosda foydalanish zarurati bilan bog'liq, tarixiy-demografik jarayonlarni, retrospektiv o'rganamiz.

Aslida demografiya fanida XVIII-asr oxirlariga kelib, dunyo aholisining soni haqida, uning ko'payishining manbasi sifatida, yangi ma'lumotlar to'plangan. Dunyo aholisi haqidagi asosiy manba, bu aholining umumiy ro'yxatini olish tadbirlarining o'tkazilishi edi. Ammo o'ttmishda, aholini ro'yxatga olishda aniq dastur bo'lmagan. Olingan ma'lumotlar yillab tahlil qilingan va ilmiy jihatdan o'rganib borilgan. Masalan, 1846 yilda Belgiyada aholi ro'yxati o'tkazilgan. Bu belgiyalik olim Jak Kettle (1796-1874) boshchiligidan olib borilgan [8]. Shundan so'ng, aholini umumiy ro'yxatga olishni o'tkazishda, ma'lum talablarga amal qilish tamoyili shakllandi. Hozirgi zamonda aholi umumiy ro'yxatini olish tadbirini o'tkazishning eng muhim tamoyili, universallikdir, ya'ni aholini umumiy ro'yxatga olish uchun aholining ba'zi guruhlarini yoki mamlakatning bir qismini emas, balki bir mamlakatning umumiy aholisini to'liq qamrab olish kerak. BMT tomonidan, xalqaro miqyosda qo'llash uchun, aholini ro'yxatga olishda so'rovnoma va dasturlar, turli tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu dunyo mamlakatlaridagi umumiy aholini ro'yxatga olishning natijalarini keng yoritish va demografik jarayonlar sifatini oshirishini ta'minladi. Shu tufayli, umumiy aholini ro'yxatga olish tadbirlarining o'tkazilishi, jahondagi aholining soni va uning tarkibini o'rganishga xizmat qiladi [9].

Umumiy aholini hisobga olishda, aholi sonini sanaydigan qo'ng'ili yollangan ishchilar, barcha demografik ma'lumotlarni hisobga olib, aholi sonini yozib oladilar. Bu esa, aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishda, ma'lum bir sanadagi aholining fotosuratiga o'xshaydi. Belgilangan sanada o'tkazilgan umumiy aholini ro'yxatga olish tadbiri "ro'yxatga olishning muhim lahza" deb nomlanadi. Bu lahza odatda aholining harakatchanligi eng kam bo'lgan, ko'proq dam olish chog'larini nazarda tutadi. Shuning uchun, aholini ro'yxatga olishda haftaning o'rtasi – chorshanba yoki payshanba tanlanadi. Aholini ro'yxatga olishning ushbu tamoyili "bir vaqtning o'zida" deb ataladi. Aholining ro'yxatga olish jarayoniga munosabati ro'yxatga olishning muvaffaqiyatli o'tishi uchun muhim ahamiyatga ega. Demak, aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish uzoq va puxtalik bilan olib borishi kerak bo'ladi.

1897 yilgi aholini ro'yxatga olish Rossiya imperiyasining birinchi va yagona umumiy ro'yxati bo'ldi. Mana shu yerda ta'kidlash zarurki, sobiq Sovetlar mamlakatida sakkiz marta umumiy aholi ro'yxatini tuzish tadbirlari o'tkazildi. Bular 1920, 1926, 1937, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillardagi aholini ro'yxatga olishdir. Sobiq SSSRda oxirgi Butunittifoq aholini

ro'yxatga olish sakkiz kun davomida, 1989 yil 12 yanvardan 19 yanvargacha bo'lgan muhlatda, fuqarolarning haqiqiy yashash joyida so'rov o'tkazish orqali o'tkazildi. Avvalgi aholini ro'yxatga olishlarda bo'lgani kabi, aholini ro'yxatga olish blankalarida so'rov va javoblarni yozib olish korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan jalb qilingan, maxsus tayyorlangan aholini ro'yxatga olish xodimlari tomonidan amalga oshirildi. Ma'lumotlar ro'yxatga oluvchilar tomonidan respondentlarning so'zlaridan, javoblarning to'g'riligini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilmasdan yozib olingan edi. 1989 yil aholini ro'yxatga olishning o'ziga xos jihati shundan iborat ediki, birinchi marta aholi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda respublikamizning barcha hududlarida aholining turli ijtimoiy-demografik guruhlarini turmush sharoiti, uy-joy kooperatsiyasini rivojlantirish, uy-joy qurilishi darajasi to'g'risida ma'lumotlar ham to'plangan edi. Bu mamlakatimizning barcha hududlarida aholining turli ijtimoiy-demografik guruhlarining turmush sharoiti, uy-joy kooperatsiyasini rivojlantirish, aholini uy-joy bilan ta'minlash darajasi va uni yaxshilash to'g'risida ma'lumotlarni olish imkonini berar edi.

Aholini ro'yxatga olish materiallarini to'liq ishlab chiqish, tahlil qilish 1990 yil oxirida yakunlandi. 1989 yilgi aholini ro'yxatga olish materiallari bir necha yil davomida kichik hajmda juda chuqur tahlil qilinmasdan nashr etilgan. Dastlab, sobiq SSSR va ittifoq respublikalari aholisining soni va taqsimoti, aholining jinsi, yoshi, nikoh va milliy tarkibi, uning ta'lim darajasi va oila tarkibi to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan beshta to'plamda nashr etildi. Keyin bir xil ma'lumotlar bilan bir nechta kichik jildlarda biroq batafsilroq nashr etildi. Rossiyada shundan keyingi, aholini ro'yxatga olish tadbirlari 2002, 2010, 2020-yillarda o'tkazilgan edi [10].

Ayni paytda, yana bir karra ta'kidlash kerak, 1990-yillarda sobiq Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin ko'plab sobiq Ittifoq respublikalarida ham aholini ro'yxatga olish tadbirlari o'tkazildi. Qozog'iston Respublikasi Mustaqilligi davrida aholini ro'yxatga olish 1999, 2009 va 2021 yillarda o'tkazildi [11], Tojikistonda aholini ro'yxatga olish 2000, 2010 yillarda [12], Qirg'iziston aholisini ro'yxatga olish 1999, 2009, 2022 yillarda amalga oshirildi [13].

O'zbekistonda ham aholini ro'yxatga olish ishlarini kuchaytirishga imkoniyat, 2025-2026 yillarda o'tkazilishini amalga oshirishga xizmat qiladigan, 2024-yil 4-mart kuni Prezident imzolagan 114-sonli qaror ilovasida belgilab qo'yildi [1]. Prezident qarori bilan tasdiqlangan rasmiy statistika sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha yo'l xaritasida, Prezident huzuridagi Statistika agentligi hamda mas'ul vazirlik va idoralarda 2025-2026-yillarda aholini ro'yxatga olish ishlarini tashkil etish vazifalari yuklatildi.

Xususan, mazkur qarorda 2024-yil davomida Statistika agentligi mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish, jumladan, aholini ro'yxatga olishni aholining keng ommasiga tushuntirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarida foydalanish uchun videorolik, banner, flayer va bukletlar tayyorlash, 2021- yilda o'tkazilgan sinov natijalari va xalqaro ekspertlarning tavsiyalari asosida aholini ro'yxatga olish savollari shakllarini takomillashtirish ishlarini amalga oshirish kerakligi bildirilgan. Bundan avval, O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish umummilliy tadbiri 2022-yilda o'tkazilishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi RF-5655-son farmoni [14], 2020-yil 16-martdagi "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonuni qabul qilgan edi [15].

Keyinchalik koronavirus pandemiyasi tufayli mazkur tadbiri o'tkazish muddati uzaytirilib, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabridagi "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, respublikada aholini ro'yxatga olish ishlari 2023-yilning 1-25 noyabrida o'tkazilishi belgilandi [16]. O'sha paytda aholini ro'yxatga olish tadbiri faqat aholi sonini aniqlash bilan cheklanmasdan, uy-joy, bandlik,

oilaviy holat, turmush farovonligi kabi bir nechta mezonlarni aniqlashtirishga xizmat qilishi bilan ham rejalashtirilgandi. Vaholanki, jahon tajribasi va mamlakatimizda bu tadbir birinchi bor o'tkazilayotganini hisobga olib, 2021 yilda "O'zbekistonning bir qismi bo'l" shiori asosidagi tadbir ikki bosqichda o'tkazildi. Ya'ni, birinchi bosqichda 1-10 noyabr kunlari fuqarolar ixtiyoriy ravishda va internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishi belgilandi, ikkinchi bosqich - 11 noyabrdan xonadonlarda ro'yxatga olish ishlari olib borildi. Aholini ro'yxatga olish uchun so'rovnoma 53 ta savol kiritildi. Ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash uchun Samarqand viloyatining Narpay va Jomboy tumanlaridan boshqa barcha hududlarida statistika bo'limlarining binolari va arxiv xonalari tashkil etildi. Bundan tayorgarlik ishlari respublikaning barcha hududlarida ham olib borildi. Masalan, 2021 yil 1-25 noyabr kunlari Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani, Xorazm viloyatining Xiva shahri hamda Toshkent shahrining Yashnobod tumanida sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazildi. Ro'yxatga olish jarayonlari 3 xil usulda, ya'ni internet tarmog'i orqali, planshet va qog'oz usullarida tashkil etildi. Sinov jarayonlarida planshet usulida aholini ro'yxatga olish qog'oz usuliga nisbatan qulayligi, tezkorligi va iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanini ko'rsatdi. Ma'lumki, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, aholini ro'yxatga olish ishlariga sarflanadigan mablag' miqdori aholi jon boshiga o'rtacha 3 AQSh dollaridan to'g'ri kelishi mumkinligi aytilgan edi[17]. Bu xarajatlar davlat byudjetidan qoplanishi ham belgilandi.

Tadqiqotni ilmiy jihatdan o'rganish tahlili ifodalaydikim, aholini ro'yxatga olish qonuni natijalari jamiyatimizni yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Aholini ro'yxatga olishda individual asosda har bir shaxs to'g'risidagi yakka ma'lumotlar to'planadi. Respondentlardan olingan ma'lumotlarning nomsizligi kafolatlanadi. Aholini ro'yxatga olish varaqasidan faqat natijalarni umumlashtirish uchun foydalaniladi. Sinov natijalari va ilg'or davlatlar tajribalari asosida ro'yxatga olish jarayonlarini qog'oz usulidan voz kechib, internet tarmog'i orqali va planshet qurilmalaridan keng foydalangan holda o'tkazish ustida ish olib borilmoqda. Shu sababli, asosiy tadbirni mukammal va sifatli o'tkazish uchun tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Xulosa. Xullas, aholini ro'yxatga olish 2025-2026-yillarda o'tkazilishi, natijalari esa 2026-2027-yillarda tayyorlanishi va e'lon qilinishi rejalashtirilgan. Mustaqillik yillarida esa, 2012 yilda ma'lum bir hududlar tanlanib, tanlanma aholi ro'yxati o'tkazilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi tavsiyani bildiramiz. O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilishi nihoyatda dolzarbdir. Bunday tadbirlar uzoq va yaqin qo'shni davlatlarda bir necha marotaba o'tkazilgan. Ammo qo'shni mamlakatlarda o'tkazilgan bu tadbirlar O'zbekistonda, mustaqillik sharoitida o'tkazilmasdan qolmoqda. Shu tufayli, ushbu tadbirni amalga oshirish nihoyatda muhim. Ilmiy jihatdan umummilliy aholini ro'yxatga olish tadbiri, mamlakat tarixiy-demografik rivojlanishida ulkan ahamiyatga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.03.2024 й. ПҚ-114-сон "Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Статистика агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори <https://lex.uz/docs/6826200#:~:text=%D0%A3%D0%>
2. Асанов Г.Р. Аҳоли географияси. – Т.: Ўқитувчи. 1978. – 222 б.
3. Кадиров М.А. Демография [Монография] - Samarqand: Zarafshon, 2019. – 10-24 бетлар; Kadirov M.A. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Darslik. – Т.: "Lesson Press" nashriyoti, 2023-y. – 21-74betlar; Kadirov M.A. Shaharlari geografiyasi. O'quv qo'llanma. – Т.: "Lesson Press" nashriyoti, 2019-y. – 19-29 betlar.
4. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qo'llanma. Т.: Noshir, 2011. – 29-55 betlar.
5. Демографический энциклопедический словарь/Редкол.: Валентей Д.И. (гл. ред.) и др. - М. : Сов. энциклопедия, 1985. – 313-325 стр.
6. O'zbekiston Respublikasining demografik ko'rsatkichlari — raqamlarda <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasining-demografik-korsatkichlari->
7. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 16.03.2020 йилдаги ЎРҚ-611-сон// <https://lex.uz/docs/4766082?ON>
8. Ламбёр Адольф Жак Кетлэ, belgiyalik matematik, astronom, meteorolog, sotsiolog. Ilmiy statistika asoschilaridan biri. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%>
9. Худоёров А. Аҳолини рўйхатга олиш қачондан ўтказила бошланган? <https://angor.uz/oz/blog/so-aga-oid-nashrlar/180>
10. Переписи населения в Российской Федерации 2002 года, 2010 года, 2020 года// <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%92%D1%81%D0%B5%D>
11. За время Независимости Республики Казахстан переписи населения были проведены в 1999, 2009 и 2021 годах. <https://www.google.com/search?q=%D0%BF%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%>
12. Перепись населения Таджикистана (2000), (2010) // <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9F%D0%B5%D>
13. Перепись населения Кыргызстана (1999), (2009), (2022) <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%B0%D1%82%D0%B5%D0%B3%>
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.02.2019 йилдаги ПФ-5655-сон // <https://lex.uz/docs/4190059#:~:text=>
15. O'zbekistonda aholini ro'yxatdan o'tkazish yana kechiktirilishi mumkin. Bu texnik sabab bilan izohlanmoqda// <https://kun.uz/news/2023/07/29/ozbekis>
16. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 16.03.2020 йилдаги ЎРҚ-611-сон// <https://lex.uz/docs/4766082?ON>
17. Aholini ro'yxatga olish qanchaga tushadi?// <https://kun.uz/37014984#:~:text>



Gullolaxon YUSUPOVA,

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, PhD

E-mail: gullolaxonyusupova@gmail.com

O'zbekiston Milliy universiteti professori O.Musaev taqrizi asosida

SITUATION OF CHEMICAL, OIL AND GAS EXTRACTION AND AGRICULTURE IN FERGANA ECONOMIC REGION

Annotation

In this article, the socio-economic life of Uzbekistan was analyzed using the example of agriculture in the Fergana economic region. Contains analyzes of the oil and gas industry, light industry, chemical industry, as well as the Fergana economic region.

Key words: Synthesis, state of agriculture, development of oil and gas industry, cotton, chemical industry, viscose, acetate, silk, oil and gas fields.

СИТУАЦИЯ ХИМИЧЕСКОЙ, НЕФТЕГАЗОДОБЫЧНОЙ И СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В ФЕРГАНСКОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РЕГИОНЕ

Аннотация

В данной статье социально-экономическая жизнь Узбекистана была проанализирована на примере сельского хозяйства Ферганского экономического района. Содержит анализы нефтегазовой отрасли, легкой промышленности, химической промышленности, а также Ферганского экономического района.

Ключевые слова: Синтез, состояние сельского хозяйства, развитие нефтегазовой промышленности, хлопок, химическая промышленность, вискоза, ацетат, шелк, месторождения нефти и газа.

FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA KIMYO, NEFT-GAZ QAZIB OLISH ISHLARI VA QISHLOQ XO'JALIGINING HOLATI

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy hayotida Farg'ona iqtisodiy rayonining qishloq xo'jaligi misolida tahliliy bayon etildi. Unda neft-gaz sanoatiga, yengil sanoatiga, kimyo sanoatiga, shuningdek, Farg'ona iqtisodiy rayoni xususida tahlillar berilgan.

Kalit so'zlar: Sintezlash, qishloq xo'jaligi holati, neft-gaz sanoati rivojlanishi, paxta, kimyo sanoati, viskoza, asetat, ipak, neft – gaz konlari.

Kirish. O'zbekistonning xom ashyo yetishtirishga ixtisoslashuvi respublikada kimyo sanoatini rivojlanishiga turkib berdi. Bu yerda ikkinchi jahon urushidan so'ng mamlakat manfaatlariga xizmat qiladigan sanoatning 100 ortiq turlari shakllandi. Respublikada kimyo sanoatini rivojlantirish maqsadida 1933 yilda tashkil qilingan Kimyo instituti laboratoriya qoshida beshta mustaqil ilmiy – tekshirish institutlari tashkil etildi. Ilm - fanga xizmat qilishi mumkin bo'lgan kimyo sanoatining boshqa sohalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Natijada, 1956 yilda O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining O'simliklar kimyosi instituti ochildi, u o'simlik xom ashyolarini kimyoviy tekshirish, ularni sintezlash, medisina, oziq - ovqat, qishloq xo'jaligida qo'llash ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi. Institutda o'simlik moddalaridan dori - darmon ajratib olish va qo'llash, qishloq xo'jaligi, birinchi navbatda g'ozga uchun defioland hamda pestisid sintezlash va ularni joriy etish, paxta chigitini kompleks qayta ishlab, undagi foydali moddalarni oziq-ovqat sanoatida qo'llash kabilar amalga oshirildi. Biroq, kimyo sohasi paxtachilikni rivojlantirishga alohida xizmat qilganligini ta'kidlash lozim. Ma'lumki, paxtaning uchdan bir qismi tola va uchdan ikki qismi chigitga to'g'ri keldi. Paxtaning uzun tolalari to'qimachilik sanoatida turli gazlamalar to'qishga sarflansa, qisqa tolalar xom ashyo bo'lgan. Lint, momiq deb atalgan bu "chiqindilardan" viskoza, asetat, ipak, karboksimetilsellyulozalar olingan. Barglari limon va olma kislotalariga boy bo'lgan. Shu maqsadda 1959 yilda Toshkentda paxta tozalash syellyuloza kimyosi va texnologiyasi ilmiy tekshirish instituti ochildi. 1964 yilda O'rta Osiyo neftni qayta ishlash instituti ochildi va 1980 yilda u Butunittifoq kimyo-texnologiya ilmiy-tekshirish institutiga aylanti-rildi. Uning tadqiqotlari medisina sanoatiga qaratildi. Unda yuqori effektiv texnologik jarayonlarni amalga oshirish, avtomatlash, nozik organik sintez orqali kimyo farmasevt moddalar olish, atrof-muhitga xavfsiz texnologik jarayonlar

yaratish, chiqindilarni xavfsiz darajagacha yetkazish va ularni texnik-iqtisodiy asoslarini tuzib berish ishlari olib borildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Farg'ona iqtisodiy rayoni 1950 yillarda respublika sanoat mahsulotlarining 30 foizini bergan. Bu rayon nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo iqtisodiy rayonida qishloq xo'jalik mahsulotlari hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan[1]. O'sha davrdagi adabiyotlarda qayd etilishicha, "Farg'ona oblasti – o'zining tabiiy, iqlim va tuproq xususiyatlariga ko'ra uzumchilik va bog'dorchilikni juda keng rivojlantirish uchun boy imkoniyatlarga ega. Oblast aholi jon boshiga paxta yetishtirishda jahonda oldingi o'rinlarda turadi. Shuningdek, paxta tolasi, xom ipak, shoyi gazlamalar, paypoq-noski mahsulotlari, o'simlik yog'i, sovun ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda turishi, qurilish uchun ishlatiladigan ohak, syement, g'isht bo'yicha ikkinchi o'rinni, elektr quvvati, ip-gazlama materiallari, oyoq kiyimlari, konservalar, tabiiy gaz chiqarish bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi[2]. M.Abramov O'zbekistonda kimyo sanoatini tahlil qilib, "...bu tarmoq Farg'ona viloyatida alohida rivojlanganligini, shuningdek, Farg'ona viloyati 1975 yilda respublika kimyo sanoati umumiy mahsulotining 22 foizga yaqinini berganligi, bu viloyat haqli ravishda katta kimyo o'lkasi bo'lib qolganligini" – ta'kidlab o'tadi.[3]. Mustaqillik yillari yaratilgan adabiyotlar [4] va tadqiqotlarda [5] sovet davlatining iqtisodiy siyosati, agrar islohotlari, paxta yakka xokimligining oqibatlari, O'zbekistonning xalq xo'jaligini sovet ittifoqi xalq xo'jaligi kompleksiga moslashtirilishi, respublikani rayonlashtirish kabi masalalar yoritilgan bo'lib, faqat ba'zi tadqiqotlar, xususan, D.Bobojonova o'z ilmiy tadqiqoti va monografiyasida sovet hukumatining iqtisodiy rayonlashtirish siyosatiga to'xtalib o'tadi. Muallif, "Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va ularni rivojlantirishni rejalashtirish dasturlari va islohotlarga doir masalalar ittifoq markaziy idoralari tomonidan iqtisodiy qonunlarga

asoslanmaganligini, respublika manfaatları e'tiborga olinmagan holda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligini" – ta'kidlab, O'zbekistonning hududi tabiiy – iqtisodiy jihatdan o'ziga xos bo'lib, u 6 ta iqtisodiy rayonga bo'linganligini – qayd etib, har bir iqtisodiy rayonning iqtisodiy imkoniyatlari va respublikada iqtisodiy rayonlari orasidagi o'rniga qisqacha ta'rif berib o'tadi. [6]

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston yengil sanoatini tahlil qilgan Sh.Marasulov "SSSRda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekistonning tutgan o'rnini tahlil qilib, respublika paxta tolasi, pilla yetishtirish va paxtachilik sohasi uchun mashinalar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinda, to'qimachilik mashinalari va ip gazlamalar ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinda, shoyi gazlamalar bo'yicha uchinchi o'rinda turganligini keltirib o'tadi. Muallif to'qimachilik sanoatining o'rnini alohida ko'rsatib, SSSRda ishlab chiqarilgan har 100 metr gazlamaning 70 metri O'zbekiston paxtasidan to'qilganligini" – ta'kidlaydi[7]. O'zbekiston SSR sanoati mamlakat sanoatining tarkibiy qismi hisoblanib, respublikaning ishlab chiqarish usuli va uslubi o'ziga xos bo'lgan.[8] O'zbekiston SSR asosiy paxta xom ashyosi yetishtiradigan va paxtachilikka xizmat qiladigan sanoatning rivojlanishi bilan o'z o'rniga ega bo'lib keldi. Paxtachilik kompleksiga kiruvchi qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublika mamlakatda yagona hisoblangan. Paxtachilik respublika qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'it tayyorlash, paxta tozalash sanoati, to'qimachilik sanoati va unga mashina hamda uskunalar yetkazuvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohalari rivojlanish imkonini bergan. Shu tariqa, O'zbekistonda asosiy e'tibor paxtaga qaratilganligi sababli bu yerda "xalq xo'jaligining nuqsonli, bir tomonlama xomashyo tuzilmasi shakllandi[9].

Tahlil va natijalar. Sovet davlatining iqtisodiy rayonlashtirish siyosati jarayonida Farg'ona iqtisodiy rayonining o'ziga xos o'rnini bo'lib, tadqiqotda qator birlamchi manbalarda asosida sanoatning rivojlanishi, korxonalar faoliyatidagi o'ziga xususiyatlar bilan bog'liq masalalar tahlili keltirilgan hamda ularda O'zbekiston tarixini yozishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan jihatlari aniqlangan.

Mustaqillik yillari iqtisodiy rayonlashtirish tarixiga bag'ishlangan barcha turdagi adabiyotlar va manbalarning o'ziga xos umumiy va xususiy jihatlari ko'rsatilgan.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda tashkil etilayotgan kimyoviy korxonalar bilan mineral o'g'it yildan –yilga oshib borganligini ta'kidlash lozim. Masalan, 1940 yilda respublikada ikki ming tonna mineral o'g'it ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1969 yilga kelib ishlab chiqarilgan mineral o'g'it 3 mln. 491 ming tonnaga yetdi[10]. Shuning bilan birgalik kimyo sohani rivojlantirish ishlari ham davom etdi.

1973 yilda tashkil qilingan O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining Bioorganik kimyo instituti o'simliklardan alkaloid, polifenol va boshqa hosilalarni ajratib olib, medisina va qishloq xo'jaligida samarali foydalanish, shu bilan bir qatorda, hayvonot va oqsil toksinlarining tuzilishi, ta'sir etish va mexanizmlarini tekshirib bioorganika fanining fundamental qonunlarini yechishdan iborat bo'ldi. Kimyo institutlarining eng

kichiga O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti hisoblandi. Institutning ilmiy yo'nalishi, medisina aloqador bo'lgan polimerlarning kimyo va fizikasini o'rganish hamda polimer koordinasion birikmalarni tekshirish va uning yutuqlarini xalq xo'jaligiga qo'llashdan iborat bo'lgan.

Kimyo sanoati mahsulotlarini xalq xo'jaligida ishlatish maqsadida ham 1960 yil 1 iyul O'zbekiston KP MQ va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining ishtirokida O'zbekiston SSR Xalq xo'jaligi soveti tarkibida Kimyo sanoati boshqarmasi tashkil etildi. 1960 yil iyul - avgust oylarida boshqarma tomonidan respublikaning turli viloyatlarida ishlab turgan 14 ta korxonalar ro'yhatga olindi. Ularning tarkibiga kimyo sanoatida - Chirchiq elektr-kimyo kombinati, Toshkent lak bo'yoq zavodi, Qo'qon superfosfat zavodi, Samarqand superfosfat zavodi, Andijon viloyatida 518-sonli Namangan zavodi, Andijon viloyatidagi Leninsk kislorod zavodi, Toshkent kimyo-farmasevtika zavodi, o'rmon, qog'oz, yog'ochga ishloq beruvchi sanotida – Toshkent qog'oz zavodi, Farg'ona gidroliz zavodi, Andijon gidroliz zavodi, Yangi yo'l gidroliz zavodi, Rezina azbest sanoatiga – Toshkent vikelniy zavodi, Yengil azotga - Pop rezina - texnik va rezina oyoq kiyimlari zavodi, azot o'g'it zavodi, shuningdek, Toshkent gramplastinkalar zavodi kabilar kiritildi. Shuningdek, qurilishi boshlangan Farg'ona azotli o'g'itlar zavodi, yangi qurilayotgan Navoiy kimyo kombinati, 1957 yildan ta'mirlashda bo'lgan Quvasoy kimyo kombinati, loyihalashtirish ishlari tugallangan Farg'ona asetat zavodlari kiritildi [11].

Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston iqtisodiy rayonlari orasida Farg'ona iqtisodiy rayoni paxta yetishtirish hamda kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarishga moslashtirilgan korxonalar qurilishi bilan alohida ajralib turdi. Farg'ona iqtisodiy rayonining qulay tabiiy iqlim sharoitlari mintaqani paxta va boshqa madaniy ekinlar yetishtirishga ixtisoslashuvini tezlashtirdi. Paxta yetishtirishni ta'minlash maqsadida vodi shaharlarida mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi, terim mashinalari ehtiyot qismlari, paxtani yarim tayyor holatga keltiruvchi korxonalar ishga tushirildi. Farg'ona vodiysida asosiy sanoat korxonalari Qo'qon, Marg'ilon, Quvasoy, Farg'ona, Andijon, Namangan shaharlarida qurildi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda sobiq harbiy zavodlar tez orada kamyoviy zavodlarga aylantirildi, mineral o'g'itlar, paxta zararkunandalariga qarshi defoliantlar ishlab chiqaruvchi korxonalar Andijon, Namangan, Qo'qon shaharlarida qurildi [12].

Partiyaning bu ko'rsatmalaridan O'zbekiston xalq xo'jaligi ham chetda qolmadi. Aynan kimyo sanoatini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Respublikada kimyo sanoatini rivojlantirish uchun gazning ahamiyati katta bo'lgan. Aynan Farg'ona vodiysidagi neft - gaz konlari va yerlarda kimyo sanoatini rivojlantirish imkonini berganligi bois gazdan kimyoviy kimyoviy mahsulotlar olish, avvalo qishloq xo'jaligi uchun zarur azotli o'g'itlar ishlab chiqarishni yanada kuchaytirishga imkon berdi. Natijada aseton va organik sintezning turli mahsulotlari, jumladan, plastmassa, asetat ipak, sun'iy jun va boshqa mahsulotlar tayyorlashga ketadigan xom ashyoni ishlab chiqarish mumkin bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Экономические районы УзССР. – Ташкент, 1957. – С.27.
2. Фаргона области (тарихий –иқтисодий справочник). – Тошкент. Ўзбекистон, 1974. – 31 бет.
3. Абрамов М. Фаргона – катта химия ўлкаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – 6 бет.
4. Бобождонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент: Шарк, 1999. - 151 бет.;
5. Хайдаров И. Ўзбекистон саноатининг совет иттифоқи ягона халқ хўжалиги комплексидаги ўрни (1945-1991 йй). Тарих. фан. доктори (DsC) дис. ... автореферати. – Тошкент, 2021.
6. Бобождонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий – иқтисодий муносабатлар (70-80 йиллар мисолида). – Тошкент: Шарк, 1999. 25-32 бетлар.
7. Марасулов Ш. Ўзбекистонда тўқимачилик саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. 23-24 бетлар.
8. Управление социалистическим производством. Вопросы теории и практики. – Москва: Экономика, 1978. – С. 678-679.
9. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 61 бет.
10. Ахмедов Э. Бутуниттифоқ меҳнат тақсимотида Ўзбекистоннинг ўрни. – Тошкент. Ўзбекистон КП МК нашриёти, 1970. – 23 бет.
11. Ўз МА Р-2598-фонд, рўйхат – 1, йиғма жилд – 10, 2-3- варақлар.
12. Гаевая Т., Писарева В. Экологическая ситуация в Узбекистане. 2017 год 12 март // http://www.igpi.ru/bib/igpi_publ/uzb_eco.html